

B.QURBONOVA

**TIL SATHLARIDA
LOKALLIKNING IFODALANISHI**

Farg'ona-2010

O'quv qo'llanmasida turli sathlarga mansub bir umumiy tushuncha ostidagi lingvistik birliklar bir mazmuniy maydonga birlashtirib o'rganilgan. Mazkur qo'llanma filologiya fakulteti talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, aspirantlar, kollej hamda litsey o'quvchilari, shuningdek, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

SH.ISKANDAROVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar:

A.NURMONOV,
AnDU professori

M.HAKIMOV,
filologiya fanlari doktori

Ushbu o'quv qo'llanma Farg'ona davlat universiteti Ilmiy kengashining 10-yig'ilishi (2010 yil 26 iyun)da nashrga tavsiya etilgan.

“... ilmu fan sohasidagi harakatlarimiz ham, ilmiy ishlarimiz va yutuqlarimiz ham dunyodagi eng ilg’or mezonlar bilan o’lchanishi lozim”.

I.A.Karimov.

S O’ Z B O S H I

Struktur semantikaning asosiy metodlaridan biri sifatida lingvistik birliklarni mazmuniy maydonlarga bo’lib o’rganish usulini ko’rsatish mumkin. Kontseptual semantikaning struktur semantika tarkibidan ajralib chiqishi maydon nazariyasi uchun turtki bo’ldi. Mazmuniy maydon lingvistik birliklar ifoda etgan tushunchalarning umumiyligi orqali vujudga keladi. Bir umumiy tushuncha ostida birlashgan lingvistik birliklar turli sathlarga mansubligi bilan namoyon bo’ladi.

O’zbek tilshunosligida lingvistik birliklarga maydon sifatida yondashilganda, maydonning differentsial belgisi maydonning turi asosida belgilanmoqda.¹ Bu ishlarda lug’aviy² yoki grammatik aspektdagi yondashuv, sathlararo munosabat³ alohida hisobga olinadi. Biroq o’zbek tilidagi lokallik maydonining til sistemasida tutgan o’rni, uni tashkil etuvchi lingvistik birliklarning tilning turli sathlarida shakllanishi va uning nutq jarayonida voqelanishi muammolari hali monografik asosda tadqiq etilmagan. Mazkur

¹ Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: филол. фанл. докт....дисс. автореф. Тошкент, 1994; Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -1988. - № 4.-Б.62-66 ва бошқалар.

² Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): филол. фанл. докт....дисс. автореф. Тошкент, 1999; Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 2000; Ҳақимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Фарғона, 2004; Вокқосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: филол. фанл. номз....дисс. автореф. Фарғона, 2005 ва бошқалар.

³ Ҳожиёва Ҳ. Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусиятлари: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Самарқанд, 2001; Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: филол. фанл. номз....дисс. автореф. Самарқанд, 2004 ва бошқалар.

qo'llanmada fonetik, morfemik va leksik sathga xos lokallik maydonini tashkil etuvchi lingvistik birliklar o'rganilgan, lokallik atamasining o'ziga xos ma'no abzats va tushuncha ifodalash o'rinlari tahlil qilingan.

Tilning semantik strukturasida lokallik maydonining o'rnini belgilash, tilning turli sathlari misolida uning tabiatini ochish, shu asosda lokallikning universal – geterogen hodisa ekanligini ko'rsatish, har qaysi sath doirasida lokal belgili birliklarning imkoniyatini belgilashdan iborat maqsad amalga oshirilgan.

Ushbu qo'llanmada lokallikning ifodalanishiga oid masalalargagina e'tibor berildi. U muallifning dastlabki ishi bo'lganligi uchun ham ayrim munozarali fikrlar va kamchiliklar kitob yuzasidan bildirilgan tanqidiy fikr va maslahatlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

LINGVISTIK MAYDON TALQINI VA LOKALLIK

Hozirgi kunda deyarli barcha fanlarda sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, chunki har bir fan o'zi o'rganayotgan ob'ektning boshqa ob'ektga munosabatini, ob'ektni tashkil etgan ichki a'zolarining bir-biri bilan va bu a'zolarining butun bilan o'zaro munosabatini o'rganmasdan turib, shu ob'ekt haqida hech qachon to'g'ri ilmiy xulosalarga kela olmaydi.¹

Fanlar sistemasidan qat'iy o'rin olgan lingvistika ham ana shu umumiy tamoyildan xoli emas.

Tilshunoslik tarixida sistemaviy-struktur davr boshlangandan buyon tilni belgilar sistemasi sifatida e'tirof etish va lingvistik belgilarni ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik deb talqin qilish deyarli barcha struktur tilshunoslik vakillari tomonidan e'tirof etiladi. SHu bilan birga, lingvistik belgi strukturasini belgilashda dastlabki davrlarda ko'proq ifodalovchi tomoniga tayanildi. Faqat o'tgan asrning ikkinchi

¹ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. Тошкент, 1988.- 4-бет.

yarmidan, to'g'rirog'i, Osloda bo'lib o'tgan lingvistlarning VIII xalqaro kongressidan boshlab, lingvistik belgining ifodalanmish tomoni ham o'z ichki tuzilishiga ega ekanligiga e'tibor qaratildi. Bunga L.Elmslevning "So'z ma'nosi strukturani tashkil qiladi, deb hisoblash mumkinmi?" degan maqolasi turtki bo'ldi.¹ Shundan boshlab lingvistik semantika tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida maydonga keldi.

Keyinchalik lingvistik semantika boshqa fanlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mantiqiy semantika, psixologik semantika singari fan yo'nalishlari paydo bo'ldi va bu fan yo'nalishlarining umumiy tomonlarini o'rganuvchi umumiy semantika ham vujudga keldi.² Demak, lingvistik semantika umumiy semantika tarkibidagi bir fan yo'nalishi bo'lib psixologik semantika va mantiqiy semantika bilan o'zaro uzviy bog'lanadi va ularning barchasi umumiy semantikaning rivojlanishiga oziq beradi.

To'g'ri, sistemaviy-struktur tilshunoslik paydo bo'lgunga qadar ham so'z semantikasi tilshunoslarni qiziqtirib kelgan. Lekin bu faqat tilning bir sathi doirasidagina chegaralangan bo'lib, uning sistemaviy tabiatini yoritishga e'tibor qaratilmagan edi.

Lingvistik birliklarning shakl va mazmuniy tomoniga sistemaviylik tamoyillarining qo'llanilishi lingvistik semantikaning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

Lingvistik semantikaning muhim o'rganish ob'ektlaridan biri lingvistik maydon hisoblanadi.

"Ma'no (mazmun) umumiyligi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktsional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi ko'pchilik lingvistik adabiyotlarda maydon sifatida belgilandi."³

¹ Ельмслев Л. Можно ли считать, что значения слов образуют структуру? – Новое в лингвистике. М., 1962.- с.117.

² Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. М.: ВШ, 1990.- С. 20-21.

³ Лингвистический-энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. – с.380; Искандарова Ш.Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007.- 47-бет.

Lingvistik maydon bilan bog'liq fikrlar dastlab tilshunoslikka mazmuniy maydon sifatida kirib keldi. Uning yuzaga kelishi buyuk tilshunos Vilgelm fon Gumboldtning "tilning ichki shakli" xususidagi ta'limoti bilan bog'lanadi. Tilshunos olim A.A.Ufimtseva bu to'g'rida fikr yuritib, bu davrda (XIX asrda – B.Q.) uzoq vaqt "tilning ichki shakli" to'g'risidagi ilmiy munozaralar davom etgani, ayni shu bahslar lingvistik tadqiqotlar uchun ma'lum ma'noda asos bo'lib qolgani, buning natijasida mazmuniy maydon nazariyasi yuzaga kelganini ta'kidlab o'tadi.¹

V. Gumboldtning ushbu ta'limoti esa turli olimlar tomonidan turlicha belgilab berildi. Bular:

- so'zlarning mazmuniy guruhi (G.Ipsen, V.Portsig);
- tushunchalar guruhi (F.Dornzayf, V.Vartburg);
- tushunchalar doirasi (Y.Trir, L.Vaysgerber);
- semantik birlashish (A.Yolles) va boshqalar.

"Ichki shakl" haqidagi ta'limotning asosi va afzalligi shundaki, u avtonomlikka barham beradi, unda tilni har tomonlama o'rganish bilan birga, til birliklari o'rtasidagi turlicha munosabatlar hisobga olinadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, dastlab G.Ipsen tomonidan *mazmuniy maydon* termini sharq tillaridagi metall nomlariga nisbatan ishlatilgan. U hind-evropa tillari leksikasini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganish bilan bog'liq faoliyati jarayonida ushbu muammoga to'xtalib o'tgan edi.

Y.Trir til sistemasi, uning birliklari o'rtasidagi aloqalarni "ob'ektiv reallik ustida turuvchi va unga qarama-qarshi qo'yiluvchi tanlovlar sistemasi tarzida ko'rsatadi."²

Sistem tilshunoslikning otasi deb ulug'lanuvchi F.de Sossyur esa tilga ishoralar sistemasi sifatida qaraydi. U til birliklari bir-birini taqozo etuvchi

¹ Уфимцева А.А. Теории «семантического поля» и возможности их применения при изучения словарного состава языка.// Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. – М., 1961. –с.31.

² Бу ҳақда қаранг: Искандарова Ш.Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007.- 50-51-бетлар.

belgilar sistemasidan iborat ekanligini ta'kidlab, munosabat tushunchasini tilshunoslikka olib kiradi.¹

Ma'lumki, V.Gumboldt tovushning fikr ifodasi bilan bog'liqligiga to'xtalib o'tadi.² Tilga ishoralar sistemasi sifatida qaragan F.Sossyur yangigumboldtchilik (neogumboldtizm) yo'nalishining nazariy asoslarini chuqur tahlil qiladi. Bu qarashlar uning vafotidan so'ng e'lon qilingan va jahonning o'nlab tillariga tarjima qilingan, eng muhimi, sistem-struktur tilshunoslikning shakllanishi uchun muhim turtki bo'lgan "Umumiy lingvistika kursi" asarida atroflicha bayon qilinadi. V.Gumboldt qarashlari, g'oyalarini davom ettirgan tadqiqotchilar uchun F.Sossyurning tilga yopiq sistema sifatida yondashuvi haqidagi qarashlari yo'nalish vazifasini o'tadi.

Til birliklariga maydon sifatida qaralganda ham, muayyan umumiylik ostidagi birlashuv ma'lum mezonlar orqali bog'langan birliklarning o'zaro munosabatini namoyon qiladi.

Maydon tushunchasi algebrada qo'shish, ko'paytirish va ularning aksi bo'lgan ayirish, bo'lish, kiritilgan to'plam³; fizikada uning asosiy tushunchalaridan biri sifatida⁴ qayd etiladi.

Akademik A.Hojiyev mazmuniy maydonni shunday ta'riflaydi: *ma'lum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuiga semantik yoki tushunchaviy maydon deyiladi.*⁵

Jahon tilshunosligida so'nggi yillarda yaratilgan lingvistik maydon xususidagi qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maydon sifatida qaraluvchi hodisalarning turli-tuman tarzda talqinlari mavjud bo'lib, shunga ko'ra, tadqiqotchilarning maydonga nisbatan xilma-xil qarashlarini e'tirof etish

¹ Тожиев О. Лисоний муносабатлар ва уларнинг ўрганилиш даражаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004.- № 1. 78-бет.

² Звегинцев В.А. Семасиология. М. МГУ, 1957. –с.266.

³ ЎСЭ- Тош. : ЎСЭ бош редакцияси, 1975. -6-том. -521-бет

⁴ ЎСЭ- Тош. : ЎСЭ бош редакцияси, 1975. -6-том. -521-бет

⁵ Хожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. - 87-бет.

mumkin. Bunday materiallar ko'pligiga, ularning xilma-xilligiga qaramay, ushbu talqinlar o'rtasida bir qator umumiyliklar ham ko'rinadi.¹

Yuqoridagi talqinlarning turlicha rivojlanishi natijasida qator yo'nalishlar yuzaga chiqdi. Yu.D.Apresyan tadqiqotchilar qarashlaridagi umumiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

- til lug'at tarkibi ma'lum mazmuniy muvofiqlik orqali umumlashgan qator maydonlardan tashkil topgan;

- har qaysi maydon borliqni tarkibiy qismlarga ajratadi, bunda shu tilga xos bo'lgan o'ziga xos imkoniyatlardan foydalaniladi;

- maydonni tashkil etgan birliklar ma'lum qarama-qarshiliklar orqali mazmuniy umumiylikni keltirib chiqaradi.²

Ushbu nazariy tadqiqotlarda ma'lum tushunchalarni xronologik asosda tahlil etish, muayyan tarixiylikka bog'lash, muammolarning qo'yilishi jihatidan farqlanuvchi fikrlar mavjud.

Maydonga nisbatan turlicha yondashuv xulosalarning turli-tumanligiga ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, A.Sobirov sistem-struktur yo'nalish bo'yicha yuzaga kelgan tadqiqotlarni uch guruhga ajratib ko'rsatadi:

1. Sistem tilshunoslik va sistem leksikologiyaning umumnazariy masalalariga oid ilmiy tadqiqot ishlari.

2. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlarini tadqiq qilish asosida lug'atlar va glossariylar yaratish.

3. Semantik maydon nazariyasi asosida sohalararo alohida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish.³

Jahon tilshunosligida lingvistik maydon bilan bog'liq ilk tadqiqotlar nemis tilshunosligida shakllanib, bu nazariya Y.Trir, L.Vaysgerber, G.Ipsen, V.Portsig, F.Dornzayf, A.Yolles nomi bilan bog'lansa, o'zbek tilshunosligida

¹ <http://psycholing.narod.ru/auto/bosova-auto.html> -- 102.7 K6 -- 11.07.2006

² Апресян Ю.Д. Дистрибутивный анализ значений и структурные семантические поля// Лексикографический сборник. М., 1962 Вып.V.-С.53.

³ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тош. Маънавият, 2004.-33-бет

maydon bilan bog'liq izlanishlar Sh.Iskandarova, A.Sobirov, H.Hojiyeva, N.Nishonova, F.Safarov, D.Voqqosova kabi olimlar nomi bilan bog'lanadi.¹

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligidagi ishlarning aksariyati (Sh.Iskandarova, A.Sobirov, D.Voqqosova, N.Nishonovalarning izlanishlari) maydon bilan bog'liq muammolar tahlilida o'z o'rganish ob'ektlaridan kelib chiqib, leksik birliklar bilan cheklanadi. H.Hojiyeva va F.Safarovlar esa maydonga yondashuvda turli sathlar birliklarini qamrab oladilar.

T.Mirzaqulov ham bu xususda to'xtalib o'tadi: "Maydon nuqtai nazaridan yondashilganda, u tilning bir necha sath hodisalarini tutashtirib, sathlararo farqqa chek qo'yadi, paradigma esa, bir sath doirasida bo'lib, sathlararo chegarani saqlaydi."²

"Fanda lisoniy maydon va lug'aviy maydon juda ko'p hollarda sinonimik atamalar sifatida qo'llaniladi. Til hodisalari esa ularni farqlashni talab qiladi. Chunki maydon atamasi ostida ikki mohiyatan farqli hodisa birlashtiriladi".³

Ma'lumki, dastlabki yuzaga kelgan ishlardan turli lug'atlar tuzishda muayyan qonuniyatlar uchun foydalanildi. Keyingi yillarda maydon metodi bilan bog'liq yondashuvlar tilning leksik sathidan boshqa sathlari ham uchun asos bo'lib bormoqda.

Mazmuniy maydon doirasiga bir so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlarning semantik guruhini ham, turli so'z turkumlarining bir-biri bilan mazmuniy munosabatda bo'lgan so'zlar guruhini ham, leksik-grammatik (funktsional-semantik) maydonlarni ham, transformatsion munosabatlar bilan

¹ Iskandarova Sh.M. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш: Филол.фанл.док....дисс.автореф.. Тошкент, 1999; Собиров А.Ш. Ўзбек тили лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол.фанл.док....дисс.автореф.. Тошкент, 2005; Ҳожиева Ҳ.Я. Ўзбек тилининг ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нуткий хусусиятлари: Филол.фанл.номз....дисс.автореф., Самарқанд; Нишонов Н.Р. "Ҳайвон" архисемали лексемаларнинг мазмуний таҳлили: Филол.фанл.номз....дисс.автореф., Тошкент, 2000; Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Филол.фанл.номз....дисс.автореф., Самарқанд, 2004; Воққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол.фанл.номз....дисс.автореф., Фарғона, 2005 ва бошқалар.

² Мирзакулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол.фанл.докт....автореф. Тошкент, 1994.-18-бет

³ Ҳамдамова Г. Лисоний ва нуткий майдон ҳақида (эғалик-қарашлилик семаси асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2005.- № 2. – 107-бет.

bog'langan sintaktik konstruktsiyalarning paradigmalarini ham, mazmuniy sintaktik sintagmalarning ma'lum turlarini ham kiritish mumkin.¹

So'nggi davrlarda maydonga xos fikrlar tahlilida jahon tilshunoslarining grammatik muammolar tadqiqiga oid qarashlari ham ko'zga tashlanmoqda. Grammatik planda maydon tushunchasiga yondashuv morfologik sath doirasidagi grammatik kategoriyalar bilan aloqador bo'lib, u bilan funktsional-semantik tarzda yaqinlashuvchi tilning boshqa sath birliklari orqali aloqa e'tiborga olinadi. Bunday talqin M.M. Guxman, V.Portsig, V.G.Admoni, N.I.Filicheva kabi tadqiqotchilar qarashlarida kuzatiladi.²

Jumladan, A.Abduvaliyev tomonidan sintaktik sathning to'siqsizlik kategoriyasi³, T.Mirzaqulov tomonidan morfemik sath birliklari⁴, F.Safarov tomonidan miqdor belgili leksik-grammatik vositalar⁵ maydon sifatida olinadi.

Bunday tasnif usuli bir qator til sathi orqali belgilanishi kutilgan samarani beradi. Mazmuniy maydon lingvistik birliklar ifodalagan tushunchalar umumiyligi asosida hosil bo'lar ekan, uning tasnifi ham ana shu belgi asosiga tayanmog'i lozim bo'ladi. Ana shunday tushunchalardan biri **lokallik** tushunchasidir.

Ushbu tushuncha akad. A.Hojiyev tomonidan shunday izohlanadi:

Lokal munosabatlar (*lot. Localis* – o'rin, o'rin-joyga aloqador) - ayn. **Makon munosabatlari**.⁶

¹ Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007.- 60-бет.

² Гухман М.М. Единицы анализа словоизменительной системы и понятие поля// Фонетика. Фонология.Грамматика. К семидесятилетию А.А.Реформатского.- М., 1971; Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. Система отношений и системы построения. Л.: Наука, 1973.; Филичева Н.И. Синтаксические поля. Пособие по грамматике немецкого языка. М.: Высшая школа, 1977 ва бош.

³ Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1988, 4-сон.

⁴ Мирзақулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол фанл.док.... дисс.автореф. Тошкент, 1994.

⁵ Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Филол.фанл.номз....дисс.автореф.-Самарканд,2004.

⁶ Хожиев А.Тилшунослик терминлар нинг изохли луғати. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.- 59-бет.

Yaqin yillarga qadar o'zbek tilshunosligida "o'rin" belgisiga ega bo'lgan lingvistik birliklar tadqiqida ushbu birliklarning semasiologik asosiga katta e'tibor qaratilgan edi. Jumladan, o'zbek tilidagi yasama otlarning ma'lum bir guruhi sifatida "o'rin-joy ma'nosili ot leksema yasovchilar" hisobga olinadi va uning tarkibiga **-loq, -qoq, -zor, -ston** affikslari hamda **-xona, -goh** affiksoidlari kiritiladi.¹

"O'zbek tili morfem lug'ati" kitobida **-dagi** qo'shma affiks sifatida izohlanadi: "**-dagi** – qo'shma affiks (o'rin kelishigi ko'rsatkichi **-da**) ot, sifat va olmoshdan sifat yasaydi: *uy/dagi, bog'/dagi, uzoq/dagi, yaqin/dagi* kabi."²

Shuningdek, grammatik sathda ot turkumiga mansub birliklarda o'rin kelishigining ifoda imkoniyatlari belgilab o'tiladi.³ Q.Muhammadjonov esa o'zbek tilidagi o'rin va chiqish kelishiklarining genezisiga doir maqolasida turkiy tillardagi qator ilmiy tadqiqotlarni tahlil etadi, ushbu kelishiklarning kelib chiqishi yuzasidan o'z qarashlarini bildirib o'tadi.⁴

Z.Qodirov o'zining monografik tadqiqida kelishik kategoriyasini sistema sifatida tahlil etadi.⁵ Unda o'rin kelishigining ma'no xususiyatlariga atroflicha to'xtalib o'tadi.

Shuningdek, ravish turkumidagi so'zlarning ma'no turlaridan biri sifatida o'rin ravishi xususida ham adabiyotlarda turlicha fikrlar uchraydi.⁶ Ilmiy grammatikalarda "tomon va zamon ma'nosini bildirgan ayrim otlar o'rin kelishiklarining birida ravishga" aylanishi va ularning predmet tushunchasini emas, balki o'rin, payt va holat ravishlari ma'nosini anglatishi ham aytiladi.⁷

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент: Фан, 1975.- 258-бет.

² Ўзбек тили морфем луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1977.- 410-бет.

³ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент: Фан, 1975.- 242-бет.

⁴ Муҳаммаджонов Қ. Ўрин ва чиқиш келишикларининг генезиси// Ўзбек тили ва адабиёти. 1989,4-сон.-31-35-бетлар.

⁵ Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадқиқ қилиш (келишик категорияси): Филол.фанл. номз.... дисс.автореф. Самарқанд, 1993.

⁶ Ўзбек тили грамматикаси.I том. Тошкент: Фан, 1975.-538-бет; Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 1980 ва бошқалар.

⁷ Ўзбек тили грамматикаси.I том. Тошкент: Фан, 1975.-536-бет

F.Ubayeva sintaktik sath birliklari doirasida hol pozitsiyasidagi birliklarning o'zni tadqiqiga bag'ishlangan ishlarida o'rin holining ifodalanish usullari, ma'no tuzilishi borasida fikr yuritadi.¹

So'nggi yillarda til birliklarining onomasiologik tadqiqiga alohida ahamiyat berila boshlandi. O'rin-joy ma'nosiga ega bo'lgan turli sathlarga xos til birliklarining tahlili ayrim mualliflarning u yoki bu nuqtai nazardan e'borini tortmoqda. Jumladan, I.Qudratova makon munosabatini yuzaga chiqaruvchi ayrim vositalar xususidagi maqolasida o'zbek tilidagi ot, sifat turkumiga xos bo'lgan leksemalar hamda frazeologizmlar orqali o'rin-joy ma'nosining ifodalanishiga doir ba'zi qarashlarini bildirib o'tgan.² U "tilda makon kategoriyasining bunday o'lchamlari (bo'yi, eni, balandligi va miqdoriy o'lchamlari – B.Q.), xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladigan so'zlar, so'z birikmalari va gap qoliplari mavjud"³ ekanini ta'kidlab o'tadi.

Biz ushbu qo'llanmada lokallikning tilni turli sathlarida namoyon bo'luvchi, geterogen hodisa ekanini shu asosda lokallik maydonining chegarasini belgilab, bu birliklarni struktur tahlil qilish usullarini yoritishga harakat qildik.

Lokallik tilning barcha sathlariga xos bo'lib, u lingvistik vositalar yordamida ifodalanadi. Lokallik fonologik sathda fonologik birliklarni farqlovchi differentsial belgi sifatida qaraladi. Fonologiya asoschisi N.S.Trubetskoyning fonemalar tasnifida ham lokallik belgisi markaziy o'rinni egallaydi.⁴ Turkiy tillar fonologiyasiga bag'ishlangan A.M. Shcherbakning monografik tadqiqotida ham N.S.Trubetskoy an'anasi davom ettiriladi hamda undosh va unlilar lokal belgisiga ko'ra privativ

¹Убаева Ф. Ўрин ҳоли.// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1969. №3; Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси.- Тошкент: Фан, 1971..

² Кудратова И. Макон муносабатининг ифодаланиш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005, 3-сон.- 112-114-бетлар.

³ Кудратова И. Макон муносабатининг ифодаланиш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005, 3-сон.- 112-бет.

⁴ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. М.: Иностранной литературы, 1990.

zidlanadi. Undoshlar bunga ko'ra markerlangan, unlilar esa markerlanmagan hisoblanadi.¹

Lokallik, ayniqsa, yuqori sath birliklarida muayyan vositalar yordamida ifodalanadi, bunda lingvistik vositaning mazmuniy mundarijasida lokallik markaziy yoki chegara sema sifatida ishtirok etadi. Lingvistik vositalarning mazmuniy mundarijasida lokallik qanday o'rin egallashiga ko'ra lokallikka xoslangan, lokallikka betaraf va lokallashgan birliklarga bo'linadi. Masalan, grammatik kategoriyalardan kelishik kategoriyasining a'zolari lokallik belgisiga ko'ra xuddi fonologik birliklar singari bir-biri bilan zidlanadi. Lokal kelishiklar – jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishiklari; lokallikka neytral – bosh, qaratqich kelishiklari; lokallashgan – tushum kelishigi.

Xuddi shunday holat leksik sathda ham kuzatiladi. Leksemalar ham mazmuniy mundarijasida “o'rin” semasining mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra bir-biriga privativ zidlanadi.

“O'rin” semali leksemalar.

“O'rin”ga betaraflar.

Sintaktik sathda ham lokallik maxsus sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, gap bo'laklari qatorida lokallik maxsus o'rin hollari orqali ifodalansa, qo'shma gap sathida o'rin ergash gaplar yordamida yuzaga chiqadi.

Shu fikrlarning o'ziyoq lokallik tilning barcha sathlariga xos bo'lgan va bir maydonga birlashgan universal mazmuniy kategoriya ekanligidan dalolat beradi.

TIL SATHLARI VA LOKALLIK MAYDONI

Borliqdagi narsa va hodisalar o'zaro uzviy munosabatda bo'lib, muayyan sistemani tashkil qiladi. Sistema tarkibidagi har bir a'zoning faollashishi makon va zamon bilan chambarchas bog'liqdir.

¹ Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л.: Наука, 1970.

Makon va zamon barcha moddalarning yashash shaklidir. Makondan tashqarida turuvchi ob’ekt ham va harakat qiluvchi materialdan tashqarida o’z-o’zicha bo’ladigan makon va zamon ham bo’lmaydi.¹

Borliqning asosiy shakllari sifatida **fazo** va **vaqt**ning belgilanishi barchamizga ayon. Falsafiy manbalarda fazo narsalarning ko’lamini, hajmini, o’zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalashi, vaqt esa hodisalarning ketma-ketligini, jarayonlarning davomiyligini aks ettirishi qayd qilinadi.

“Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko’lamga, hajmga ega. Fazo – vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o’zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro’y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.”²

Fazo va vaqtni tushunish bo’yicha substantzial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substantzial kontseptsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo’shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o’ziga narsalarni sig’diruvchi substantsiya. Hech narsasi yo’q, ya’ni narsalar solinmagan fazo ham bo’lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion kontseptsiya tarafdorlari esa narsalar fazoviy o’lchamga ega, deyishadi.

“Hech narsasiz fazoning bo’lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi A.Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko’z oldingizga keltiring. Nyuton fizikasiga ko’ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo’sh qoladi, ana shu substantzial kontseptsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko’ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo’qoladi. Bu relyatsion kontseptsiyadagi fazodir.”³

¹ Философский словарь М., 1986, с.75.

² Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005. – 137-бет

³ Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005. – 137-бет

Har bir narsa va hodisa, harakat va holat, belgi va xususiyat inson ongida aks etadi hamda til orqali o'z ifodasini topadi. Fazo va vaqt tushunchalari ham undan istisno emas.

Fazoning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi lokallik maydonini tashkil qiladi. Lingvistikada lokallik fazo bilan bog'liq xilma-xil vositalarni o'zida birlashtiradi.

Keyingi yillarda fazo va vaqtning ifoda asoslariga ko'ra metrik va tipologik xususiyatlarga ega ekanligi e'tirof etilmoqda. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o'lchanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko'lam, bir jinslilik, izotropik kabi xususiyatlar kiradi.¹

Lokallik maydoni tarkibiga kirgan lingvistik tushunchalar geterogenlik xususiyatiga ega, chunki lokallik tilning turli sathida ifodalanadi.

Geterogenlik so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, **heteros** – boshqa, o'zga ma'nolarini anglatadi.² **Geterogen** atamasi O.S.Axmanovanning "Lingvistik terminlar lug'ati"da turli jinsga (rodga) mansublik³ sifatida izohlanadi.

Keyingi yillarda geterogenlik tushunchasi o'zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Mavjud adabiyotlarda geterogenlikning universal hodisa ekanligi, unga gomogenlik tushunchasi zidlanib, gomogenlikning bir qator - sathga xos hodisa ekanligi e'tirof etilmoqda.

Xususan, D.Nabiyeva invariant-variantlilik xususida bahs yuritir ekan, yuqoridagi tushunchalarni shunday ko'rsatib o'tadi: " ... sezgi a'zolarimizga ta'sir etuvchi har qanday real talaffuz qilinuvchi birliklar variant, bu birliklar ostida yashiringan imkoniyat tarzidagi umumlashma esa invariant sanaladi.

¹ Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005. – 138-бет

² Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990.- С.103.

³ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966.- С.97.

Bundan invariant va variant o'zaro bir qatordagi **gomogen** hodisalar emas, balki turli qatordagi **geterogen** hodisalar ekanligi ma'lum bo'ladi".¹

1. Eng avvalo, nutqiy jarayon nutq a'zolarining faoliyat mahsuli sanaladi. Shunday ekan, nutq oqimini tashkil etgan har bir tovush muayyan nutq a'zosining harakati natijasida yuzaga chiqadi. Ana shu nutq a'zolarining harakati belgisi fonetik birliklarda lokallik belgisini hosil qiladi. Xususan, undosh tovushlar o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida to'siqqa uchrashi natijasida hosil bo'ladi. Ana shu to'siq bo'lgan joy shu tovushning lokal belgisi sanaladi.

Demak, undosh tovushlar uchun lokal belgi, falsafadagi materiyaning birlamchi va ikkilamchi belgilari tushunchasi nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, birlamchi belgi sanaladi.

2. Bundan tashqari, inson ongida aks etgan bizni qurshab turgan olam unsurlari va ularning turli-tuman belgilari uning tilida maxsus lingvistik vositalar yordamida, xususan, leksemalar yordamida o'z ifodasini topadi. Ya'ni har bir tilning leksik sistemasidan o'rin olgan muayyan leksemalar borki, ularning mazmuniy tuzilishida lokallik semasi markaziy o'rinni egallaydi, bunday holda lokallik markaziy sema sanaladi. Bunday leksemalar lokallikni ifodalash uchun xoslangan leksemalar hisoblanadi. Shu tufayli bu leksemalar xuddi zamon ma'nosini ifodalash uchun xoslangan va shu birlashtiruvchi semasi bilan alohida leksik-semantik guruh (LSG)ni tashkil etuvchi temporal leksika kabi, lokal leksikani hosil qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida lokal ma'no ifodalovchi ***o'rin, joy, makon, qishloq, shahar, ovul, o'lka*** singari bir qator leksemalar borki, ularda lokallik semasi markaziy sema hisoblanadi va ana shu sema lokallik maydoniga birlashtiruvchi umumiy sema sanaladi.

Xarakterli tomoni shundaki, bunday so'zlar gap tarkibida qanday kelishik qo'shimchasini olishidan va qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishidan

¹ Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Тошкент: Шарқ, 2005.-52-бет.

qat'i nazar, lokallik semasiga ega bo'ladi va ana shu semasi bilan bog'liq **qaer?** so'rog'ini saqlab qoladi. Masalan, **Shahrimiz tobora obod bo'lmoqda** gapida lokallik maydoniga kiruvchi **shahar** leksemasi gapda bosh kelishik shakli vositasida kesim bilan bog'lanib, ega vazifasida kelyapti, lekin lokal semani aniqlashga qaratilgan **qaer?** so'rog'ini saqlab qolmoqda.

Yoki **Shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shilmoqda** gapida xuddi shu leksema qaratqich kelishigi yordamida qaralmishga bog'lanib aniqlovchi sintaktik vazifasida kelsa ham, so'rog'ida lokallik semasi o'z ifodasini topadi, chunki bu bo'lak **qaerning?** so'rog'iga javob bo'ladi.

Xullas, lokal leksikaga mansub bo'lgan har bir leksema gap tarkibida turli gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin uning lokal semasi saqlanib qoladi va so'rog'i shu semaga qarab beriladi. Ko'rinadiki, gap bo'laklari ichida faqat o'rin hollarigina emas, balki barcha gap bo'laklari lokallik semasiga ega bo'lgan so'zlardan ifodalanib, o'rin ma'nosiga ega bo'lishi mumkin.

3. Lokallik belgisi har bir tilning lug'aviy birliklari fonetik arxitektonikasi bilan ham bog'liqdir. Fonetikada lokallikni ifodalash uchun **anlaut**, **inlaut** va **auslaut** atamaları qo'llaniladi.

Har qaysi til so'zlarning fonetik tuzilishi bo'yicha boshqa oiladagi tildan farq qiladi. Leksemalarning fonetik tuzilishi va so'zning bosh qismi, o'rta qismi va oxirgi qismi o'ziga xos xususiyatga egadir. Bu unli va undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalarini ajratishda, qo'llanish o'rinlarining erkinligi va chegaraliligini belgilashda katta ahamiyatga egadir. Masalan, leksemaning oxirgi o'rni, ya'ni auslaut undosh fonemalarning jarangli va jarangsizlik belgilarini ifodalash uchun kuchsiz o'rin sanaladi. Shuning uchun xuddi shu o'rinda jarangli va jarangsiz undoshlar farqlovchilik belgisini yo'qotadi. Yoki inlautda ochiq bo'g'inlik o'rni tor unlilar uchun kuchsiz pozitsiya hisoblanadi, shuning uchun ular xuddi shu pozitsiyada reduktsiyaga uchraydi va hokazo.

4. Polisillabik leksemalar bo'g'inlarining urg'uli bo'g'inga nisbatan tutgan pozitsiyasi ham lokallik bilan uzviy aloqadordir. Urg'uli bo'g'in unlilar talaffuzi uchun kuchli pozitsiya, urg'usiz bo'g'in esa kuchsiz pozitsiya hisoblanadi.

5. Lokallik derivatsiya yo'li bilan hosil qilingan ikkilamchi nomlarda ham ifodalanadi. Bunday lokal leksemalar maxsus yasovchi vositalar yordamida ma'lum bir tilning so'z yasash modeli asosida hosil bo'ladi.

O'zbek tilida bunday leksemalar **-zor, -iston, -goh, -lik** kabi qo'shimchalar yordamida hosil bo'ladi.

6. Muayyan relyatsion shakllarni olgan leksema boshqa xuddi shunday shakldagi leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. So'zshakllarning sintagmatik munosabatini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi relyatsion morfemalarning bir qismi ham lokallik grammatik semasiga ega bo'ladi.

Xususan, kelishik shakllari tobe so'zni hokim so'zga tobe munosabatini ifodalash bilan birga, hokim bo'lakning leksik ma'nosidan ifodalangan harakat-holatning chiqish, yo'nalish, yuzaga chiqish-chiqmaslik o'rnini ham ifodalaydi. Bunday kelishiklar bosh va qaratqich kelishiklari bilan **lokallik** belgisi asosida zidlanadi. Chiqish, o'rin, jo'nalish kelishiklari belgiga egaligi, qolgan ikkitasi esa belgiga ega emasligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun birinchi guruh kelishiklari lokal kelishiklar deb ham yuritiladi. Bu jihatdan tushum kelishigi oraliq o'rinni egallaydi. Chunki bu kelishik shakli o'timli fe'llarga bog'lanib, hokim bo'lakdan anglashilgan harakatning tushish o'rnini, tushish nuqtasini ifodalaydi. Faqat tushum kelishigi bilan lokal kelishiklarning o'rin ma'nosini ifodalashdagi farqi shundaki, lokal kelishiklarning o'rin semasi barqaror, doimiy, markaziy sema sanalsa, tushum kelishigining o'rin semasi chegara sema hisoblanadi.

7. Lokal leksemalarning sintaktik vazifalari o'rin hollari uchun xoslangan. Demak, sintaktik tuzilish birliklarida ham lokallikni ifodalash uchun xoslangan vositalar mavjud. Bunday sintaktik birliklar sintaktik

lokallikni ifodalashda markaziy vosita sanaladi. Bundan tashqari, sintaktik sathda gap bo'laklarining kesimga nisbatan o'rni (pozitsiyasi) tushunchasi ham borki, bu ham lokallik ma'nosi bilan uzviy bog'liqdir. Gapning shakliy tuzilish birliklarining gapning yoki bo'lakning bo'lagi ekanligini, ya'ni gap tuzilishi uchun funktsional va nofunktsional bo'lak ekanligini gapning kommunikativ tuzilishida tema-rematik vazifasini belgilashda sintaktik pozitsiya belgisi katta ahamiyatga ega. Lekin gap bo'laklari va va gapning lokallik ma'nosini ifodalashda keyingi holat chegara belgi sanaladi.

Shunday qilib, lokallik til tuzilishining fonetik sathidan tortib eng yuqori sathigacha xos bo'lgan mazmuniy kategoriyadir.

Har qaysi sathda bu mazmuniy kategoriyani ifodalovchi, shu sema uchun xoslangan markaziy birliklar bo'lishi bilan birga, bu semani ifodalashda yordamchi vosita vazifasini bajaruvchi chegara birliklar ham mavjuddir.

Lokallik semasini ifodalashga daxldor barcha lingvistik birliklarni bir semantik maydonga – lokallik maydoniga birlashtirish mumkin.

Lokallik maydoniga birlashgan barcha lingvistik birliklar lokallik paradigmasiga birlashuvchi lingvistik birliklardan **geterogenlik** belgisi bilan farq qiladi. Ana shu geterogenlik belgisiga qarab lokallik maydoniga kiruvchi lingvistik birliklarni quyidagi ma'no guruhlariga tasnif etish mumkin:

1. **Generativ lokallik.** Bunday lokallik tovushlarning paydo bo'lish (tug'ilish) o'rni bilan bog'liq ravishda yuzaga chiqadi.

2. **Pozitsion lokallik.** Bunday lokallik lingvistik birliklarning o'zidan kattaroq lingvistik birlik tarkibida o'ziga o'xshash boshqa lingvistik birliklar bilan sintagmatik munosabati natijasida sodir bo'ladi. So'z qismlarining butunning turli o'rinlarida bir-biriga nisbatan joylashuv o'rni, lingvistik birlikning so'zning fonetik cho'qqisi sanalgan urg'uga nisbatan, gapning mazmuniy va grammatik cho'qqisi sanalgan kesimga nisbatan o'rinlashishi belgisini pozitsion lokallik deb belgilash mumkin bo'ladi.

Demak, pozitsion lokallik sintagmatika bilan uzviy bog'liqdir, shuning uchun u faqat sintagmatika orqali voqelanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi har ikki lokallik lingvistik birlikning ichki tuzilishidan tashqarida bo'lib, nisbiylik belgisiga egadir.

3. Nominativ lokallik. Bunday lokallik lokallik maydonining markazi (yadrosi) sanaladi va u ob'ektiv borliqdagi lokal belgilarni ifodalashga xoslangan nominativ birliklarni o'z ichiga oladi. Lokallik bunday birliklarning denotativ ma'nosi, lokal birliklar esa shunday ma'nolarning nominali hisoblanadi.

4. Derivatsion lokallik. Bunday lokallik nominatsion lokallik bilan uzviy aloqador, uning tarkibiy bir qismi. Nominativ lokallik bilan derivatsion lokallik o'rtasidagi farq nomlanish darajasidadir. Tub leksemalar o'rin semasiga ega bo'lsa, ular orqali ifodalangan lokallik nominativ lokallik sanaladi. Narsa va hodisalarni ifodalovchi asos qismga o'rin-joy yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilingan hosila leksemalar ikkilamchi nomlar sanaladi va ular orqali ifodalangan lokallik derivatsion lokallik hisoblanadi.

5. Relyatsion lokallik. Sintaktik munosabatlar ifodalovchi shakllar orqali ifodalangan lokallik relyatsion lokallik sanaladi.

Fonologik sathda "lokal" belgi

Lokallik belgisi tilning turli sathlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu jihatdan quyi sath (fonologik sath) birliklari bilan yuqori sath (morfemik sath va boshqalar) birliklarida mavjud bo'lgan lokallik bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Xususan, fonologik sathda lokallik belgisi faqat shaklga daxldor bo'lsa va artikulyatsiya o'rni bilan izohlansa, yuqori sath birliklarida lokallik belgisi mazmuniy tuzilishga mansubdir. Shuning uchun ham yuqori sathlarda lokallik belgisi "lokal" semalar orqali yuzaga chiqadi. Ma'noli birliklarning semik tuzilishida "lokal" sema ishtirok etadi va lokallik

sinfiga kiruvchi ma'noli birliklar doirasida bu sema integral sema vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi..

Shunday bo'lishiga qaramasdan, quyi sath birliklari ham, yuqori sath birliklari ham bir umumiy belgi ostida muayyan bir qatorga tiziladi. Lokallik belgisi ularni ana shunday qatorga bog'lab turadi. Shu nuqtai nazardan qo'llanmada dastlab fonologik sathda lokallik belgisi haqida va bu belgining fonologik qimmatga ega bo'lish yoki ega bo'lmasligiga qisqacha to'xtalib o'tiladi. Lekin asosiy e'tibor ma'noli birliklarning lokallik belgisi asosida tadqiq etilishiga qaratiladi.

Ma'lumki, fonemalar eng kichik farqlovchi belgi sifatida amal qiluvchi, so'z va morfemalarni shakllantiruvchi, yuqori sath birliklarining ma'nolarini farqlashga xizmat qiluvchi quyi sathga tegishli til birligidir.

Fonemalar o'rtasida muayyan zidlanishlar bo'lib, bu farqlanishlar tilga va nutqqa xos tarzda amal qiladi. Til hodisasi sifatida fonemalar o'rtasidagi differentsiatsiya ko'proq ularning bir-biridan farqlanuvchi eng muhim belgilarini aniqlashga yo'naltiriladi. Nutq hodisasi sifatida esa muayyan qurshovda yuzaga keluvchi farqlarni hisobga olish mumkin. Bu holat fonemalar (barcha til birliklari) o'rtasidagi belgining bir xil emasligini ko'rsatadi. Shu asosda tilshunoslikda til birliklarining turli variantlari tushunchasi paydo bo'ldi. Xususan, fakultativlik, shartlanganlik belgisi tushunchasi ham ana shunday qarashlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan.

“Tilshunoslikda fakultativlik tushunchasi fonologiya sathi birliklari munosabatini aniqlash uchun qo'llangan. “Fakultativ fonema” va “fonemaning fakultativ variantlari” tushunchalarini izohlagan O.S.Axmanova ularni shartlangan pozitsion variantga qarshi qo'yadi. Shuningdek, J. Maruzo ham variantlarning yuzaga kelishi matn bilan bog'liq bo'lmagan taqdirdagina fakultativlik haqida fikr yuritish mumkinligini qayd etadi”.¹

¹ Раҳмонкулов А. Ўзбек тилида морфологик факультативлик: Филол. фанл. номз...дисс.автореф. Тошкент, 2000. – 5-6-бет.

N.S.Trubetskoyning fikricha, har bir fonema boshqa fonemadan ma'no farqlash xususiyati orqali ajratiladi. Natijada har bir tilning barcha fonemalari qarama-qarshiliklar sistemasini tashkil etadi.¹

Turkiy tillarda muayyan "lokal" belgi bilan farqlanuvchi ayrim fonemalar o'rtasida ham o'ziga xos zidlanishlar kuzatiladi. Avvalo, har bir tilning fonologik birliklari "lokal" belgiga ko'ra binar tamoyil asosida privativ zidlanishga kirishadi: unlilar va undoshlar. Bu zidlanishning chap qatordagi a'zosi lokallik belgisiga nisbatan kuchsiz, o'ng qatordagi a'zo esa lokallik belgisining kuchliligi bilan xarakterlanadi.²

Shunga ko'ra, o'zbek tilida unli fonemalar tasnifiga nisbatan turlicha qarashlar kuzatiladi. Ayrim qarashlarda unlilarning paydo bo'lish o'rnida asosida guruhlanishi alohida hisobga olinsa³, ayrimlarida bunday tasnif inkor qilinadi⁴.

Bu masalaga professor Sh.Rahmatullayev to'xtalib shunday qayd qiladi: "Adabiyotlarda hozirgi adabiy o'zbek tilidagi olti ovoz tovush muntazam tizimni tashkil etadi, deb ta'kidlanadi. Bu olti tovush ikki nuqtai nazardan (tilning yotiq harakati va lablarning qatnashish darajasiga ko'ra) bir xil tizimni hosil qiladi".⁵

D.Nabiyeva esa, o'zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun singarmonizmning amal qilmasligi, faqat o'zbek shevalarida qatorga ko'ra zidlanishning saqlanganini ta'kidlab shunday yozadi: "Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmaydi"⁶.

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. М.: 1960. С.38.

² Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л.: Наука, 1970. –С.35; Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

³ Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 36-бет; Решетов В.В. Узбекский язык. Фонетика. Ташкент: Учпедгиздат, 1959. – стр.357.

⁴ Умаров Э. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми? // ЎТА, 1994, 6-сон. – 77-бет; Умаров Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида унлиларни таснифлаш масаласига доир. // ЎТА, 1995, 2-сон.- 52-бет.

⁵ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (darslik) Toshkent: Universitet, 2006. -15-bet.

⁶ Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Тошкент: Шарқ, 2005.- 69-бет.

Muallif o'zbek tili unli fonemalari uchun asosiy belgi sifatida kenglik-torlik va lablanishlik-lablanmaslik belgisini ko'rsatib, qator belgisini qo'shimcha belgilardan biri sifatida e'tirof qiladi. Biz ham o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun "lokal" belgini kuchsiz, asosiy bo'lmagan belgilar qatorida ko'rsatishni lozim topdik. Boshqacha aytganda, unli fonemalar nutq jarayonida lokallashib (bu hodisa ayrim o'zbek shevalarida kuzatiladi), natijada faqat nutq jarayonidagina til oldi va til orqa fonemalari farqlanishlarining ma'lum fonologik qimmatini namoyon bo'ladi: *o'n-ön, o't-öt* va boshqalar.

Undosh fonemalar uchun esa ma'lum fonologik qimmatga ega bo'lgan belgilardan biri paydo bo'lish o'rni belgisi sanaladi. Bilamizki, undosh fonemalar talaffuzi orqali muayyan to'siqqa uchrash holati kuzatiladi. Ayni shu to'siq orqali undoshlar unlilardan farq qiladi, ya'ni o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqqa uchrashi undoshlar talaffuzida, to'siqqa uchramasligi esa unlilar talaffuzida kuzatiladi. Shu jarayon natijasida unli va undosh fonemalar bir-biridan "lokal" belgiga egalik (undoshlar) va "lokal" belgiga ega emaslik (unlilar) xususiyati orqali o'zaro farqlanadi.

Bu haqda D.Nabiyeva: "Ana shu to'siqqa uchragan nuqta ularning o'rin belgisi sanaladi. Bu belgiga ko'ra undoshlar bir necha zidlikni tashkil etadi: lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, uvulyar va faringal undoshlar oppozitsiyasi"¹, - deb ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi undosh fonemalar uchun "lokal" belgi asosiy belgi hisoblanadi. Ularning har qaysisi bir-biriga muayyan belgilar orqali tutashsa-da, o'z navbatida, bir-biridan ma'lum farqlovchi belgi orqali ajratiladi. Chunonchi, **b, p, m** undoshlarining umumiy belgisi ularning labda (paydo bo'lish o'rni) to'siqqa uchrashi bo'lsa, **k, g, ng** undoshlarining umumiy "lokal" belgisi "til undoshi", "til orqa" va "sayoz" ekanligi hisoblanadi. Keyingi undoshlarga **q, g', h** fonemalari "lokal" belgi asosidagi ko'p jihatlari bilan birlashib, ular bilan umumiylik hosil qilsa-da, ular

¹Набиева Д. Ўша асар, 87-бет.

o'rtasidagi "sayoz" va "chuqur" til orqa belgisi farqlash uchun xizmat qiladi va ular orasida ma'lum zidlanish hosil bo'ladi.

Shu asosda o'zbek tilidagi undosh fonemalar tahlil qilinsa, har qaysi fonemaga tegishli o'ziga xosliklar yuzaga chiqadi.

Lab undoshlari sifatida belgilangan **b, p, m, v, f** fonemalari uchun integral belgi lokallik belgisidir, bu "lokal" belgi labiallik sanaladi.

Lokallik belgisi kuchli bo'lgan fonemalar (undosh fonemalar)da shu belgi, ayni paytda, ham integral (barcha undoshlar shu umumiy belgi ostida birlashadi), ham differentsial (undoshlar shu belgiga ko'ra ichki bo'linish xususiyatiga ega) belgi vazifasini bajaradi. Xususan, "lokal" belgi ostida birlashgan barcha undoshlar lokallikning nutq a'zolarining qaerida sodir bo'lishi nuqtai nazaridan yuqoridagi tarzda uch guruhga bo'linadi. Bunday bo'linish ilmiy manbalar orqali barchaga ma'lum.¹ Til undoshlarining o'zi ham o'z ichida xuddi shu belgiga ko'ra gradatsiyalanadi: til oldi, til o'rta, til orqa, chuqur til orqa kabi.

Shu fikrlarning o'ziyoq fonologik sathda lokallik belgisi fonologik birliklarni tasnif etishda asosiy belgilardan biri sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi.

Morfemik birliklarda "lokal" belgi

Ma'lumki, jahon tilshunosligida **morfema** atamasi ilk bora I.A.Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan bo'lib, unda uzviy bog'liq ma'lum bir nutq gaplar yoki iboralarga, gaplar so'zlarga, so'zlar morfologik bo'g'inlar yoki morfemalarga, morfemalar fonemalarga bo'linishi ko'rsatib o'tiladi.

F.Sossyur talqini bo'yicha morfema tilning boshqa asosiy birliklari sifatida qaralishi kerak.

¹ Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

V.M.Solntsev o'zining tilning sistem-struktur xususiyatlariga bag'ishlangan monografik asarida *morfema* atamasi to'g'risidagi qarashlarni umumiy holda quyidagicha izohlaydi:

- birinchidan, morfemaning yordamchilik xususiyati, bunda ohang, urg'u kabi tilga xos vositalarning joylashish imkoni hisobga olinadi (Vanderies);
- ikkinchidan, morfemaning minimallik xususiyati, bunda morfemaning eng qisqa ma'noli qism ekanligi hisobga olinadi (Boduen).¹

Sh. Rahmatullayev morfema ma'nosini toraytirgan holda, bu atamani faqat qo'shimchalarga nisbatangina qo'llaydi. Tilshunos olim etakchi morfema o'rnida *leksema* atamasini ishlatadi.²

Bular orasida uchinchi talqin sistem tilshunoslik uchun muvofiq keladi va bunda morfemaning boshqa sath birliklari bilan uzviy bog'liq ekanligi muhim hisoblanadi.

D.Nabiyeva o'z risolasida bu xususda alohida so'z yuritadi va shunday yozadi:

“Til stratifikatsiyasiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida leksik sath til tuzilishining alohida sathi sifatida e'tirof etilmaydi. Bunga sabab ular tomonidan leksik sath birligi bo'lgan leksemaning mustaqil til birligi sifatida qaralmasligi va sathni belgilashda “til birligiga asoslanish” tamoyiliga amal qilinganidir.

Leksema alohida til birligi sifatida qaraladimi yoki morfemaning bir turi sifatida qaraladimi, bundan qat'i nazar, u til sistemasida mavjud va tilning barcha birliklari kabi o'zining funktsiyalashish jarayonida imkoniyat va voqelik, umumiylik-xususiylik dialektikasini o'zida namoyon etadi”.³

Bizning nazarimizda ham, etakchi morfema sifatidagi leksema ham, leksik sathning alohida birligi sanaluvchi leksema ham til sistemasida

¹ Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. М.: Наука, 1971.

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (darslik) Toshkent: Universitet, 2006. -110-bet.

³ Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.- 2005, - 115-116-бетлар.

mavjud. Shunga ko'ra, ushbu o'quv qo'llanmada etakchi morfemalar bilan leksemalar umumiy tarzda asoslanildi va leksemalarning semantik tahliliga alohida ahamiyat berildi.

O'zbek tilidagi "lokal" semali so'z yasovchilar

Ma'lumki, funktsional-semantik maydonlar tilning turli sathlariga tegishli bo'lsa-da, umumiy invariant semantik belgilar asosida shakllanadi. Bunday maydonlarda dastlab yadro va periferiya ajratiladi, markaz va chekka qismlar hisobga olinadi. Ular tilning bir qator sathlariga mansub elementlarning umumiy segmentlar hosil qilishi bilan xarakterlanadi, muayyan til birliklarining semantik uzviyligi ta'minlanadi.

"Tilning har bir sathi va qismida yadroviy, tipik, asosiy hamda periferial (ikkinchi darajali) unsurlarni farqlash lozim. Yadro-periferiya munosabati struktur, semantik va funktsional aspektlarda namoyon bo'ladi".¹

Maydon elementlari ham turli paradigmalariga xos birliklarning qisman birikuvi haqidagi mulolhazalar qator tadqiqotlarda kuzatiladi. Maydon nazariyasiga taalluqli bo'lmagan izlanishlarda ham til hodisalari o'rtasidagi dialektik munosabatlarni aniqlashga e'tibor qaratilgan. Maydon nazariyasi esa til hodisalarining uzluksizligi va tadqiq doirasidagi kategoriyalarning oraliq holatlarini ham tahlil etishi bilan belgilanadi.

Funktsional-semantik maydonlar muayyan funktsional-semantik kategoriyalar uchun xos bo'lgan ma'noni ifodalashning maxsus vositalariga ega bo'lib, bu ma'no kategoriya doirasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Turlicha ma'nolar orqali umumlashgan birliklar (so'z, so'z birikmalari) individual va konkret leksik ma'noga ega bo'ladi. Funktsional-semantik kategoriyalar "quyidan yuqoriga" (yoki aksincha) tuzilishga ega bo'lgan differentsial semantik belgilarning ifodasi orqali namoyon bo'ladi. Maydon

¹ Элтазаров Ж. Сўз туркумлари парадигмасида ядро-периферия муносабатлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2006.- № 3.- 40-бет.

yadrosida ham, periferiyasida ham o'ziga xos sistemalar, shuningdek, sistema tarkibida kichik sistemalar mavjud bo'ladi va ular ma'lum semantik maydonga xos bir necha a'zoli qatorlardan iborat birliklarning oppozitsiyalarini hosil qiladi.

Ma'lum struktura hosil qiluvchi elementlarning o'zaro munosabati turli tipdagi til birliklarining aloqalari orqali funktsional-semantik maydonlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Jumladan, morfemalar til ifoda sistemasida tovushdan keyin turadigan semantik-morfologik birlik bo'lib, so'zning eng kichik ma'noli qismidir.¹

O'zbek tilida morfemik sath birliklari etakchi va ko'makchi morfemalar asosida lokallik mikromaydonini hosil qiladi. Qo'llanmaning keyingi betlarida etakchi morfemalar (leksemalar)ning mazmuniy jihatdan ichki bo'linishlari hamda shakl hosil qiluvchi affiksial morfema (**-ga**, **-da**, **-dan** kelishiklari)ning nutq jarayonida "lokal" sema hosil qilishi bilan bog'liq masalalar alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek tilidagi so'z yasovchi affikslarda ham lokallik belgisi ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Sh.Mirzaqulov so'z yasalish kategoriyasi xususida fikr yuritir ekan, uni so'z yasalish paradigmasining muhim tushunchalaridan biri sifatida e'tirof etadi.

O'zbek tilida lokal belgiga ega bo'lgan yasovchi morfemalar o'z doirasida qator ichki semalari orqali guruhlanadi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratib olish mumkin:

- joy otlari yasovchilar paradigmasi;
- joy belgisi yasovchilar paradigmasi.

Joy otlari yasovchilar paradigmasi doirasiga o'zbek tilidagi o'rin-joy oti yasovchi morfemalarni kiritamiz: **-loq**, **-zor**, **-goh**, **-iston** kabilar. Sh.Mirzaqulov ushbu affikslar to'g'risida to'xtalib, ushbu yasalma joy otlari

¹ Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент, 1992, 5-бет.

yasalishi kategoriyasiga birlashib, kichik bir sistema birliklari maqomida harakat qiladi, deb ta'kidlaydi¹.

Cho'l o'rnini paxtazorlarga, bog'larga bo'shatib qochayotibdi.
(A.Qahhor).

Ushbu affiksial morfemalar predmet, buyum-narsa otlariga qo'shilib yangi ma'no – lokal belgi hosil qiladi: ***paxtazor, olmazor, o'rikzor; qumloq, toshloq, o'tloq; o'yingoh, qarorgoh***. Bular orasida ***-iston*** morfemasi asosan milliy-etnik belgi asosidagi shaxs nomlariga qo'shilib, hududiy belgi orqali farqlangan atoqli otlarni yasaydi: ***O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston*** kabi.

Joy belgisi yasovchilar paradigmasi tarkibiga ***-dor, -gi (-ki,-qi), -lik, -loq*** singari birliklar mansub bo'lib, ular orqali shakllangan grammemalar lokallik bildiruvchi leksemalarning belgi valentligini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda ularning "o'ringa munosabat, xoslikni bildirishi"² ko'rsatiladi.

Bu boyning tashqi hovlisi edi (Oybek).

-dor morfemasi ***hosildor, unumdor*** tarzida "lokal" semaga ega bo'lishi bilan birga, ayrim hollarda "egalik" (***zotdor, jilovdor***) semasini ham ifodalaydi. Shuningdek, ***-loq*** morfemasi ba'zan narsa-predmet otlariga qo'shilib, ularga xos "lokal" belgini ifoda etsa, ba'zan esa belgi anglatuvchi birliklar yasaydi, ushbu morfemada har ikki holatda lokal belgi mavjud bo'ladi: ***toshloq er***.

Bu o'rinda ushbu morfema qo'shilayotgan otlar bilan sintagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalarning markaziy semalari e'tiborga olinadi. Bu markaziy semalar ularga bog'lanayotgan birlik(sifat)lar uchun chegara sema sifatida xizmat qiladi.

Ta'kidlash zarurki, hosila ma'noning o'zgaruvida yasovchi morfemaning o'rnini muhim. Chunki yasama so'z tarkibida asos leksik

¹ Мирзакулов Ш. Ўзбек тилида сўз ясалиши маъноси ва парадигмаси: Филол. фанл. номз... дис. автореф.. Самарқанд, 1995.- 13-бет.

² Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент: Фан, 1975.- 235-бет.

morfemaning ma'nosi sezlib, ayni paytda, asos sema ham saqlansa-da, yasama so'zning etakchi ma'nosi muhim bo'ladi. Jumladan, **yurtdosh**, **vatandosh**, **mahalladosh** singari birliklarda shaxs oti yasovchi morfemaning mavqei "o'rin" semasiga nisbatan ustunroq.

O'zbek tilidagi "lokal" semali ko'makchilar

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, "maydon tushunchasi bir umumiy mazmun yoki shakl o'xshashligi asosida turli sathlarga tegishli birliklarning funktsional-semantik birlashuvini aks ettiradi. Morfem shakl yoki ma'noning turli tarmoqlanishi morfemika sathi doirasida, o'mi bilan, boshqa sathlarga xos vositalarning ham qo'llanilishiga imkon yaratadi."¹

Turli sathlar uchun xos bo'lgan "lokal" belgini atroflicha tahlil etish "mazmundan shaklga" tamoyili bilan ish ko'ruvchi onomasiologik yondashuvning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ko'makchilar ma'no va vazifasi nuqtai nazaridan affiksial morfemalarga teng kelgani sababli, bir jihatdan, ularni ma'lum ma'no, ya'ni "lokal" belgi asosida, navbatdagi bosqichda (fonemadan so'ng) tahlil etish bilan "mazmundan shaklga" tamoyiliga nisbatan, o'z navbatida, muayyan shakl orqali birlashgan birliklar, morfemalarni mazmunan ichki guruhlash bilan "shakldan mazmunga" tamoyili asosidagi semasiologik yondashuvga nisbatan ish ko'rish mumkin.

O'zbek tilida mavjud ko'makchilar ham sof ko'makchilar va ko'makchi otlarga ajratilib, ko'makchi otlar ma'lum o'zak ma'nosini saqlagan "lokal" semali birliklardir. Tilshunoslikda bunday ko'makchilar turlicha yo'nalish anglatuvchi ko'makchilar sifatida ajratiladi, ularni shu asosda ichki guruhlarga ajratish mumkin:

¹ Мирзакулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари. Филол.фанл.докт....автореф.. Тошкент, 1994.-18-б

“Tik (vertikal) yo’nalish” semali ko’makchilar: *ost (tag), tepa, ust.*

Bu birliklar narsa-predmetning pastki qismida yoki tagidagi yo’nalishga; shuningdek, ustki qismida yoki ustidan yo’nalishga ishora qiladi:

daraxt tagiga

er ostidan

gulzorlar ustida

tuproq ustiga

Demak, ***ost (tag)*** ko’makchilarining mazmuniy mundarijasi tarkibida “past” semasi; ***ust*** ko’makchisi ma’nolari tarkibida “tepa” semasi ajratiladi, ular o’zaro zidlanadi; ularning birlashtiruvchi semalari “yo’nalish” semasi sanaladi.

Ayrim hollarda mazkur ko’makchilar sanab o’tilgan semalardan boshqa semalarni ham gavdalantirishi mumkin. Masalan:

Ibodilla maxsim mehmonlarni bog’ning o’rtasida shovullab oqib turgan ariq tepasiga o’rnatilgan so’riga taklif qildi (Y.Sulaymon).

Keltirilgan parchada o’rin belgisiga ega bo’lgan *tepa* ko’makchisi ishtirok etmoqda. Ushbu birlik ma’nolari tarkibida “lokallik”, “ust”, “yuqori” semalari mavjud bo’lib, ular orasida “ust” semasining o’rni muhim.

“Yotiq (gorizontal) yo’nalish” semali ko’makchilar: *old, orqa, yon, ich, tomon.* Ushbu ko’makchilardan ***old, orqa*** ko’makchilari “boshlanish”, “tugash” semalari orqali o’zaro zidlik hosil qiladi. Ular uchun umumiy sema “lokallik”, “yo’nalish”, “yotiq” semalaridir.

“Aralash yo’nalish” semali ko’makchilar: *o’rta, ora, bosh.* Ko’rsatilgan umumiy semalar bilan birga, “markaz” (***o’rta***), “oraliq” (***ora***), “boshlanish” (***bosh***) semalari esa farqlovchi sema hisoblanadi.

An’anaviy ilmiy qarashlarda ko’makchilarning vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlarni bildirish uchun qo’llaniladigan so’z turkumi ekanligi ta’kidlanadi.¹ Keyingi davrlardagi qarashlarda esa ot va fe’ldagi ko’makchilar morfemika ob’ektiga mansub

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент: Фан, 1975.-541-б.

birliklar qatorida izohlanadi.¹ Har ikki talqinda ham ko'makchilarning etakchi lug'aviy ma'nosini yo'qotganligi hisobga olinadi.

Shunga qaramay, ko'makchilar tarkibida muayyan semantik belgining mavjudligi e'tibordan chetda qolmasligi kerakligini nazarda tutsak, biz qamrab olayotgan "lokal" belgining ko'makchilarda qay tarzda shakllanganligini tahlil etish mumkin.

T.Mirzaqulov yordamchi morfemalarni ma'no vazifasiga ko'ra so'z yasovchilar, so'z qo'shuvchilar va modal birliklar tipidagi uch turga bo'ladi va ko'makchilarni so'z qo'shuvchilar tarkibiga kiritadi.²

Ushbu fikrga e'tiroz bildirmagan holda, ko'makchilarning boshqa so'zlar bilan birga ishlatilib (so'z qo'shish uchun), faqat ular bilan yonma-yon kelgandagina ma'lum ma'no yuzaga chiqarishini ko'rsatib o'tish mumkin. Ayni zamonda, so'zlarning bir-biriga qo'shiluvida ular o'rtasidagi mazmuniy mutanosiblik (emoq→ovqat, kelmoq→uy tomon) bilan birga, ularni qo'shuvchi vositalar, xususan, ko'makchi morfemalarning ham mazmuniy imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Jumladan, o'zbek tilidagi **sari**, **bo'ylab**, **ichra**, **tomon**, **qadar**, **qarab** ko'makchilari tarkibida "lokal" belgining mavjudligi bu birliklarning boshqa "lokal" semaga ega bo'lgan birliklar (xususan, etakchi morfemalar) bilan bog'lanishiga yo'l ochadi.

T.Rustamov ko'makchilarning leksik, grammatik ma'nolari masalasi nazariy masala bo'lib, ko'makchilarning mustaqil ma'noli so'zlardan kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi, deb hisoblaydi.³ Uningcha, **sari**, **tomon**, **qarab** ko'makchilarining umumiy leksik ma'nosi otlarga birikkandan so'ng harakatning biror nuqtaga yo'nalishini ifodalashdir.

Ma'lumki, o'zbek tilidagi ko'makchilar sintaktik jihatdan uch guruhga ajratib izohlanadi. Masalan, **sari**, **tomon**, **orqali**, **osha**, **ichra**, **bo'yi** "lokal" belgili ko'makchilar bosh va qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan birga; **tomon**, **qadar**, **qarab** ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan

¹ Мирзакулов Т. Ўша асар, 20-б.

² Мирзакулов Т. Ўша асар, 27-б.

³ Рустамов Т. Соф кўмакчилар. 12-б.

birga; **tortib, boshlab** ko'makchilari chiqish kelishidagi so'zlar bilan birga qo'llanilishi qayd etiladi.

Shuningdek, ma'no doirasida "lokal" belgi mavjud bo'lgan ko'makchi otlarning vertikal, gorizontal va aralash yo'nalish bildiruvchi tiplari ajratiladi. Biz umumiy "lokal" belgiga ega bo'lgan ko'makchilarning ichki differentsial xususiyatlarini tahlil etamiz. Zero, lokallik tilning barcha sathlari uchun xos hodisa sifatida amal qiladi.

O'zbek tilidagi "lokal" belgi asosida birlashgan ko'makchilar turli ichki semalarga ega bo'ladi. Jumladan:

"Yo'nalish" semali ko'makchilar: sari, tomon, qarab. Ushbu morfemalarni umumlashtiruvchi sema "lokallik", "yo'nalish" bo'lib, **sari** ko'makchisi **tomon** bilan semik nuqtai nazardan deyarli bir xil izohlanishi mumkin. Masalan:

*Ziyoxon orqasiga qaramay vokzal **tomon** yugurdi (Y.Sulaymon).*

Berilgan misolda **tomon** ko'makchisining ma'nolari tarkibida "lokallik", "yo'nalish" semalari kuzatilmoqda. Ushbu o'rinda **tomon** ko'makchisi bilan jo'nalish kelishigi ma'nolari o'rtasida sinonimik munosabat ko'zga tashlanmoqda:

vokzal tomon - vokzalga

Qarab ko'makchisining mazmuniy mundarijasida yuqoridagi semalar bilan birga, "o'lchov" semasi ham mavjud: *Ko'rpangga qarab oyoq uzat.*

"Chegara" semali ko'makchilar: qadar, nari, beri. Bu ichki guruhga xos umumlashtiruvchi sema "lokallik", "chegara" semalari sanaladi, **qadar** ko'makchisi tarkibida "qiyoslash" semasi ham kuzatiladi va **nari, beri** morfemalaridan shu belgi bilan farqlanadi. Ushbu birliklar ma'lum makon ("chegara")ga nisbatan yaqinlik yoki uzoqlik masofasini anglatadi, ayni belgi ularni birlashtiruvchi "chegara" semasini va zidlovchi "yaqin" (**beri**), "uzoq" (**nari**) semalarini ham yuzaga chiqaradi.

"Ich(kari)" semali ko'makchilar: ichra. Bu ko'makchi hozirgi o'zbek tilida juda kam ishlatiladi, faqat poeziyadagina ba'zan uchraydi. Hozir

qo'llanilishi chegaralanib - arxaiklashib, faqat bosh kelishikdagi otlarga birikadi va birgina o'rin ma'nosini – ish-harakat predmetning ichida sodir bo'lishini anglatadi.¹

“Vosita” semali ko'makchilar: osha, orqali, bilan, bo'ylab. Keltirilgan ko'makchilar “lokallik” va “vosita” semalariga ega bo'lib, bu o'rinda faqat makonga, joyga xos vosita e'tiborga olinishi zarur. Ushbu semalar orqali birlashganda, **orqali, bilan** ko'makchilari absolyut sinonim sanaladi: **olmazor orqali – olmazor bilan.**

Osha ko'makchisi esa faqat balandlik, do'nglikka ishora qiluvchi joy nomlarini ifodalovchi otlar bilan birikadi. Demak, **osha** ko'makchisi tarkibidagi “baland” semasi boshqa birliklardan farqlovchi sema hisoblanadi.

Shuningdek, **bo'ylab** ko'makchisining ma'nolari tarkibida “davomlilik”, “uzoq” semasi ham kuzatiladi: **daryo bo'ylab, shahar bo'ylab** kabi.

Tilshunoslikda lokallik masalasi

Fazo va vaqt borliqning asosiy yashash shakllaridan hisoblanadi. Vaqt orqali ma'lum hodisalarning ketma-ketligi, fazo orqali har qanday narsaning ko'lami, joylashish tartibi yuzaga chiqadi. Lokallik maydoni fazoning lingvistik vositalar yordamida ifodalanishidir, fazo bilan uzviy bog'langan turli hodisalar lokallik maydonida jamlanadi. Lokallik barcha tillar, ayni vaqtda, bir tilning barcha sathlari uchun universal hodisa sifatida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra, lokallik belgisiga ega bo'lgan lingvistik birliklar tilning barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Nutq a'zolarining harakati belgisi bilan fonetik birliklarda lokallik xususiyati ifodalanadi. Undosh tovushlar o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida ma'lum bir to'siqqa uchrashi tufayli hosil bo'lib, ana shu to'siq undoshlar uchun “lokal” belgi sifatida olinadi. O'zbek tilidagi undosh fonemalar labda, tilda va bo'g'izda paydo

¹ Русамонов Т. Ўша асар, 67-б.

bo'ladi. Ularning paydo bo'lish o'рни "lokal" belgi uchun asos sifatida xizmat qiladi. Morfemik sathda lokallik etakchi morfemalarda ham, ko'makchi morfemalarda ham mavjud. Bunda lokallikni ifodalovchi maxsus morfemalar e'tiborga olinishi zarur. O'zbek tilidagi "lokal" belgiga ega bo'lgan so'z yasovchi morfemalar joy otlari yasovchilar paradigmasi (**-loq, -zor, -iston, -goh**) hamda joy belgisi yasovchilar paradigmasi (**-dor, -gi, -liq, -loq**) tarzida ajratiladi. Ko'makchilarda "lokal" sema so'zlarning bir-biriga bog'lanish jarayonidagi mutanosiblikka aloqador ravishda "lokal" semali harakat ifodalovchi leksemalar bilan birga namoyon bo'ladi. Chunki bunday bog'lanishda ko'makchi morfemalarning ham mazmuniy imkoniyatlari hisobga olinadi. Leksemaga etakchi morfema sifatida yondashilganda ham, leksik sathning alohida birligi sifatida yondashilganda ham uning mazmuniy mundarijasiga muayyan ta'sir sezilmaydi. "Lokal" semali leksemalar yoki etakchi morfemalar tahlilida ham ana shu umumiylik nazarda tutiladi.

“LOKAL” SEMALI LEKSEMALARNING MAZMUNYIY TAHLILI

Lingvistik maydonlar ichida lokallik maydoni o'z ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan alohida ajralib turishi yuqorida ta'kidlab o'tildi. Ayniqsa, lokallik leksik sathda o'zining rang-barang ifodasiga ega. Ana shundan kelib chiqqan holda, biz quyida leksik sath birliklarining mazmuniy tahlili misolida o'zbek tilida lokallik ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritmoqchimiz. Bunda quyidagi mikromaydonlar tahlil uchun ob'ekt sifatida belgilanadi:

- umumiy "makon" semali leksemalar;
- "yashash" arxisemali lokal leksemalar;
- landshaft nomlari;
- korxona, muassasa nomlarini anglatuvchi lokal birliklar;

- “o’simlik” semali lokal leksemalar;
- diniy e’tiqod belgisi bilan farqlangan lokal birliklar;
- harbiy va sportga oid lokal birliklar va boshqalar.

Umumiy “makon” semali leksemalar

O’zbek tilida “lokal” semali leksemalar uchun xos bo’lgan semalar tarkibida ma’lum tomonlari bilan o’zaro zidlanuvchi semalar mavjud, ularga xos zidlanish belgilari turlicha semalarni namoyon qiladi.

Dastlabki bo’linishda “lokal” semali birliklarni “umumiylik” va “xususiylik” belgilari yordamida ajratamiz. Bunda umumiy “makon” semasidan tashqari, “yashash”, “geografik nom”, “o’simlik” semali lokal birliklar “xususiylik” belgisi orqali ko’zga tashlanadi. Bu kabi farqlanuvchi belgilarni ifoda etmaydigan makon ifodalovchi leksemalar “umumiylik” belgisi bilan gavdalanadi.

Ushbu qator birliklari sirasiga *er, joy, o’rin, makon, hudud, dargoh, fazo, ko’k, osmon, falak, dunyo, jahon, olam, koinot, bo’shliq* singari leksemalar kiradi.

Ismi ko’hna jahon ustida

Bulutlarni yirtgan bir yashin.(Oybek).

Bu leksemalar uchun “makon”, “umumiy” semalari xos bo’lib, ayniqsa, ular orasida *o’rin, joy, makon* birliklari maydonning yadrosida turuvchi umumiy xarakterdagi ifodalar sanaladi. Shunga ko’ra, nutqiy jarayonda ko’pincha bu leksemalar oldidan ularga aniqlik kirituvchi ayrim birliklardan foydalaniladi:

Bir mahal eshikka yaqinroq joyda xotin kishi hiqilladi
(O’.Hoshimov).

“Umumiylik” semasi ostida birlashgan qator tarkibidan *atrof, tevarak, ichkari, tashqari, shimol, janub, sharq, g’arb* leksemalari ham joy oladi.

Dastlabki leksemalar uchun “taraf” semasi kuzatilmaydi, keyingi birliklarda ushbu sema mavjud, biroq bu sema nisbiy xarakterga ega bo’lib, leksemalarda “chor taraf” (*atrof, tevarak*), “yopiq” (*ichkari*), “ochiq” (*tashqari*), “ma’lum tomon” (*sharq, g’arb, shimol, janub*) semalari ko’zga tashlanadi.

Ra’no ichkariga qayrilmasdan bog’chaga maxdum kirdi va tashqarini chaqirdi (A.Qodiriy).

Shuningdek, *atrof* leksemasida “mavhumlik”, *shimol, janub, sharq, g’arb* leksemalarida esa yo’nalishga xos “aniqlik” semalari ko’zga tashlanadi.

Umumiy “makon” semali birliklar ichida *fazo, er, joy, o’rin, makon* leksemalari alohida belgilanadi. Ular uchun xos “biror voqea-hodisa, ish-harakat bo’lgan”¹ joy belgisi asos bo’ladi.

Borliq, falak, fazo, koinot leksemalari uchun xos bo’lgan semalar ichida “makon” semasi ularni ushbu qatorga olib kiradi. ***Bo’shliq*** so’zining esa “O’zbek tilining izohli lug’ati”da quyidagi ma’nolari aks etadi:

Bo’shliq – 1. Ma’lum chegaralar bilan o’ralgan fazo, havol joy (qorin bo’shlig’i).

2. Olam fazosi.

3. Bo’sh yotgan er, joy.

4. Havosiz joy, vakuum.²

Tahlil etilayotgan qator tarkibiga ***bo’shliq*** leksemasi ikkinchi ma’nosi orqali kiritiladi.

Akademik A.Hojiyev *atrof, tevarak, gird, tegra, har tomon, har taraf, har yon, aylana, qurshov, o’ngu so’l, sog’u so’l, so’lu sog’* birliklarini bir sinonimik qatorga joylashtirib, ularni “hamma tomon”, “barcha taraf” tarzida izohlaydi. Ushbu qator ichidan *gird, tegra* leksemalarida eskilik bo’yog’i mavjudligi, *atrof* va *tevarak* so’zlari biror narsa, joyning hamma

¹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 100-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. М.: РЯ, 1981. -167-бет.

tomonlarining tutash holdagi butunligi ma'nosida, uning ma'lum bir nuqtadan olingan turli tomoni ma'nosida kelishi, **har tomon, har taraf, har yon** ifodalari ma'lum bir nuqtaga nisbatan bo'lgan turli tomon ma'nosida qo'llanilishi, **qurshov** orqali o'rab olingan atrof aks etishi, **o'ngu so'l, so'lu sog', sog'u so'l** esa folklor asarlarida uchrashini ta'kidlab o'tadi.¹

Masalan:

Hammamiz har yoqqa zir yugurib chaqira boshladik (O'.Hoshimov).

Berilgan gapdagi har yoqqa ifodasi lokallik belgisini ifodalovchi "makon", o'rin", "umumiy" semalaridan tashqari "turli tomon" belgini ifoda etuvchi semaga ham ega.

Ko'rinadiki, ushbu birliklar uchun xos bo'lgan "barcha taraf" semasi bo'rtib ko'rinadi. **Taraf, yon, tomon, yoq, chet** leksemalari uchun esa "ma'lum tomon" semasi xarakterli sanaladi.

Mana, davradagi juvon allanima deb kuldi-da, chetroqda qarsak chalib turgan Mahbubani o'rtaqa tortdi (O.Yoqubov).

Berilgan gapdagi **chetroqda** so'zida "o'rin", "makon", "umumiy" semalari bilan birga ma'lum o'ziga xoslik ham kuzatiladi, ya'ni **chet** leksemasi **o'rta** leksemasiga zidlanish uchun xizmat qiladi.

- Xudoga shukur, davlatlari ko'lankasida, - deb qo'rboshi tavozelandi va qo'l qovushtirib qushbegining yaqiniga cho'kkaladi (A.Qodiriy).

Ushbu gapda qo'llanilgan **yaqiniga** so'zi makon ma'nosiga ega bo'lib, bu birlik tarkibida "o'rin", "masofa" semalari mavjud.

Sharq, g'arb, shimol, janub leksemalarida ham ushbu sema ko'zga tashlanadi. Masalan:

Urush g'arbda, rota frontdan uch-uch yarim ming kilometr berida, yana sharqqa qarab ketayotibdi. (A.Qahhor)

Biroq ular uchun "aniq joy" semasi ustunroq, ular orasida zidlik ham kuzatiladi:

shimol- janub

¹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 100-бет.

sharq – g’arb

Mamlakatning janub qismi ancha iliqlashdi.

Umumiy “makon” semali birliklar uchun “maxsus joy” semasi xos emas, shu belgi ularni navbatda tahlil etiluvchi mikromaydon elementlaridan farqlashga xizmat qiladi.

“Yashash” arxisemali lokal leksemalar

O’zbek tilshunosligida lokallik belgisi bilan farqlangan leksemalar o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lib, ularning ma’lum tomonlari turlicha nuqtai nazardan, ko’proq grammatik planda tadqiq etilgan.¹ Keyingi yillardagi izlanishlarda esa muayyan sema orqali birlashgan leksemalarni uzviy tahlil etish ancha samarali bo’lmoqda.

Lokallik mikromaydoniga mansub bo’lgan “yashash” arxisemasi bilan farqlanuvchi leksemalar til sistemasida ancha faol ishlatiladi.

“Yashash” arxisemali birliklar doirasida umumiy tarzda insonning hayot kechirishi bilan bog’liq leksemalardan to ma’lum xususiylikkacha ega bo’lgan ifodalar jamlanadi. “Lokallik” va “yashash” arxisemasi ostida birlashgan *er, maskan, vatan, yurt, diyor, o’lka, joy, makon, uy, respublika, davlat* singari leksemalar bir umumiy belgi ostida namoyon bo’ladi. Ularda “lokallik”, “yashash”, “hayot kechirish”² semalari mavjud bo’lib, “yashash” arxisemasi ostidagi qator leksemalar dastlab ayni shu sema bilan gavdalanadi. Ushbu arxisema ostida birlashgan leksemalarni turlicha leksik-semantik munosabatlar asosida tahlil etish mumkin.

Yurtimizda qolmasin dasht-cho’l,

Chaman kulsin hatto toshlardan! (Oybek)

¹ Убаева Ф. Хол категорияси. Тошкент: Фан, 1971. – 19-27-бет; шу муаллиф. Ўрин ҳоли. – Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1969, 3-сон; Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 118-119-бет; 214-215-бет; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент: Фан, 1985. – 116-121-бет ва бошқ.

² Лексемаларнинг айрим семаларини ёритишда “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” дан фойдаланилди.

Dastlabki bo'linishda “tug'ilib o'sgan joy” semasi orqali; keyingi bo'linishda “aholi yashash joyi” semasi bilan, navbatdagi bo'linishda esa “xonadon” semasi vositasida leksemalarni ajratish maqsadga muvofiq.

“**Tug'ilib o'sgan joy**” semasi orqali umumlashgan guruh sirasiga **vodiy, voha, viloyat, shahar, tuman, qishloq** tarzidagi leksemalar kiradi. Ushbu guruh birliklari “joy”, “yashash”, “hayot kechirish”, “tug'ilib o'sgan” semalari bilan umumlashgani holda, **viloyat, shahar, tuman** leksemalarida “ma'muriy hudud” semasining mavjudligi; **vodiy** leksemasida “tog' oralig'i”, **voha** leksemasida “sahro oralig'i” tarzidagi differentsial semalar ham ko'zga tashlanadi.

Posyolka, ovul, ko'cha, mavze, mahalla, kvartal kabilar “**aholi yashash joyi**” semali leksemalar guruhini tashkil etadi. Sh.Iskandarova o'zbek tilidagi shaxs mikromaydoniga mansub leksemalarning mazmuniy tahlili xususida fikr yuritib, “ayrim leksemalar bir semasi bilan tahlil etilayotgan qator doirasiga, ikkinchi semasi bilan boshqa kichik maydonga ham kirishi mumkin”ligini ta'kidlaydi.¹ Yuqoridagi **shahar, tuman, qishloq** singari leksemalar ham “tug'ilib o'sgan joy” semasi bilan dastlabki guruhga, “aholi yashash joyi” semasiga ega bo'lganligi uchun ularni ikkinchi guruhga kiritish mumkin bo'ladi.

Masalan, “tug'ilib o'sgan joy” semasi bilan:

Chaqa qishloqdan o'zimizning Oydinbuloqqa kelib, o'rtoqlarimni to'pladim, xolam o'rgatgan gaplarni ularga hikoya qildim. (Y.Sulaymon)

Shuningdek, “aholi yashash joyi” semasi bilan:

Ertalab qishloq aholisi, bahor quyoshining dastlabki iliq nuridan jonlangan jonivorlar singari o'rmalab ko'chaga chiqa boshladi. (“Sharq yulduzi”)

Uy, hovli, qavat, xonadon, kulba, kapa, boshpana, hujra tarzidagi leksemalar “**xonadon**” semali guruh tarkibiga kiradi. Ushbu guruhdagi **uy**,

¹ Iskandarova Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фанл.докт. ... дисс.автореф. Тошкент, 1999.- 31-бет.

hovli leksemalarida “yashash”, “joy” singari umumiy belgilardan tashqari “sahn”, “maydon” kabi xususiy semalar mavjud.

Qutidor hovlisiga qayrilar ekan, bek bilan xayrlashdi (A.Qodiriy).

O'zbek tilida nutq jarayonida tez-tez qo'llaniluvchi ayrim leksemalar boshqa mikromaydonlardan lokallik mikromaydoniga kirishi, ayni paytda, ular shu mikromaydonga xos ma'lum semalarini yo'qotishi ham mumkin. Jumladan:

- Uyingdan tinchmisan, ering eson-omon yuribdimi? (A.Qodiriy)

Bu gapda **uy** leksemasi uchun “oila”, “turmush” semalari “yashash” semasiga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etyapti.

Kulba, boshpana, kapa, hujra leksemalarida esa “kichik”, “ko'rimsiz” semalari ko'zga tashlanadi.

Maktabga borib, Oybekning hujrasi qaerda ekanini kimdandir so'radim-da, eshikni barmog'im ikki bor chertdim, so'ng javob kutmasdanoq shartta ochdim (Z.Saidnosirova).

Shuni ham ta'kidlash joizki, **uy, hovli, xonadon** leksemalari ancha umumiy xarakterda bo'lib, ularda kichiklik yoki yiriklik belgisiga ishora qiluvchi sema kuzatilmaydi. Biroq ko'rsatib o'tilgan leksemalar orasida muayyan pragmatik belgi uchun xizmat qilish hollari ham uchraydi. Xususan, ***kulba, kapa, boshpana, hujra*** leksemalari o'z ma'nosiga nisbatan ko'proq konnotativ belgisi bilan namoyon bo'ladi:

Men boshqa manzilga tikkanman ko'zim,

U sening kulbangdan juda ham yiroq (A. Oripov).

Ushbu leksemalarga ***qasr, saroy, koshona*** leksemalari zidlanib, ular tarkibidagi semalar orasida “hashamatli”, “yirik”, “dang'illama” semalari zidlanish uchun asos bo'ladi:

Do'st qadam qo'ymas esa

vayronadir koshona ham (E.Vohidov).

Aslida ushbu o'rinlarda ishlatilgan leksemalarda birinchi navbatda “yashash” arxisemasi, so'ngra esa “uy” semasi nazarda tutiladi. Ularni

farqlash uchun xizmat qiluvchi semalar ushbu leksemalar tarkibidagi belgi-xususiyat asosida gavdalanadi, ya'ni **kulba, boshpana, hujra** singarilarda umumiy “uy” semasi bilan birga, “kichik”, “ko’rimsiz” semalariga ishora qiluvchi uyga xos belgi; ayni zamonda, **koshona, qasr** leksemalarida “hashamatli”, “katta” semalarini e’tirof etuvchi belgi-xususiyat anglashiladi va ana shu farqlovchi belgi zidlovchi sema sifatida gavdalanadi.

O’z navbatida, **ark, qasr saroy** leksemalari tarkibida “tarixiylik”, “qadimiylik” semalari ham kuzatiladi.

Ko’rsatib o’tilgan leksemalarning barcha semalari kuzatilganda, ularga xos ifoda imkoniyatlari yanada kengayishi mumkin. **Vatan, yurt, diyor, o’lka** leksemalari “tug’ilib o’sgan joy”, “hudud” semalari bilan **davlat, respublika** leksemalari qatoridan o’rin oladi:

O’zbekiston – Vatanim manim (A.Oripov).

Shuningdek, **vatan, makon** leksemasida “xonadon” semasi ham mavjud.

Mazkur leksemalar, jumladan, **respublika, davlat** leksemalari bilan **viloyat, voha, vodi** singarilar o’zaro giponimik munosabatga ham kirishadi.

R.Safarova so’zlar o’rtasidagi gipo-giperonimik munosabat xususida so’z yuritib, shunday ta’kidlaydi: “...giponim atamasi ostida biz to’la ma’noda biror-bir jins tushunchasiga nisbatan shu jinsning alohida-alohida turlarining nomini ifodalashdagi tilning lug’aviy imkoniyatlarini tushunamiz. Shunday ekan, aytish mumkinki, giperonim atamasi va tushunchasi kabi giponim ham jins-tur munosabatini ifodalashning til doirasidagi mantiqiy imkoniyatlardan va so’zlararo sistem (paradigmatik) aloqadan kelib chiqqan bir til doirasidagi aniq sistem hodisadir.

Giponim hamda giperonim orasidagi leksik-semantik munosabat va aloqa ustida shuni aytish mumkinki, giponimik qatorlar ko’p elementli bo’ladi”.¹

¹ Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 16-бет.

Lingvistik lug'atlarda esa giponimik munosabatlarga yondashuvda kengroq qamrovdagi talqinlar kuzatiladi.¹ Lokallik mikromaydoniga mansub birliklar doirasida ham bunday munosabatlar hisobga olinadi.

Jumladan, **respublika, davlat** leksemalari giperonim, **vodiy, voha, viloyat** leksemalari giponim sanaladi. O'z navbatida, **vodiy, voha, viloyat** leksemalari ham **shahar, tuman** leksemalariga nisbatan giperonim, **shahar** va **tuman** esa ularga nisbatan giponim; **shahar, tuman** leksemalari **mavze, mahalla, ko'cha** tarzidagi leksemalarga nisbatan giperonim, ular esa **shahar** va **tuman** singarilarga nisbatan giponim; **ko'cha, mahalla** esa **uy, xonadon, hovli, imorat** leksemalari uchun giperonim, bu birliklar esa **ko'cha** va **mahalla** leksemalariga nisbatan giponim hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu birliklar o'rtasida butun-bo'lak munosabati ham amal qiladi.² Xususan, "yashash" arxisemali leksemalardan **uy** so'zi butun bo'lgani holda, **shift, ostona, bo'sag'a, tokcha, deraza, eshik** singarilar uning bo'lagi hisoblanadi.

Masalan:

Munisxon ming azob bilan bir umr kelmas bo'lib ketgan uyining ostonasiga qadam qo'ydi (S.Ahmad).

O'zbek tilida ba'zan yashash xonadonlarining turi sifatida **ayvon, dahliz, boloxona, mehmonxona, yotoq, darsxona** singari leksemalar tez-tez uchraydi:

Dahlizdagi Anvar birinchi xonadagi a'yonni hayratga solib, ikkinchi tanobiyning bo'sag'asida, jallodlar o'rtasida to'xtadi va xonga ta'zim ado qildi (A.Qodiriy).

L.G'afurova uy-ro'zg'or leksikasi bilan aloqador masalalarni maxsus tadqiq etar ekan, "uy-joy binolari nomlari" sifatida **eshik, tuynuk, deraza,**

¹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966.

² Бундай муносабатлар хусусида қаранг: Қиличев Б.Э. Ўзбек тилида партонимия: Филол. фанл. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 1997.

oina, chorcho'p, tagdari, tom, qat, erto'la, og'il, qaznoq, ombor, bostirma singari birliklarni keltirib o'tadi.¹

Tilimizda “yashash” arxisemali leksemalar paradigmasini tashkil etuvchi yoki ularga mansub bo'lmagan, biroq ular bilan o'zaro assotsiativ munosabatga kirishuvchi qator birliklar ham mavjud. Shunga ko'ra, “yashash” arxisemali paradigma a'zolari xususida so'z yuritilganda, ularning o'zaro munosabati to'g'risida ham fikr yuritish zarur. Bunday leksemalar tarkibiga *hudud, chegara, aholi, iqlim, muhit (davlat, respublika, vodi, voha); zavod, fabrika, bog', do'kon, teatr (shahar, qishloq); guzar, choyxona (mahalla, ko'cha); xona, bo'lma, yotoqxona, yo'lak, burchak, shift, deraza, darcha*, shuningdek, turli uy jihozlari nomlarini bildiruvchi *mebel, televizor, gilam, xolodilnik, telefon (uy, xonadon)* singari qator birliklar mansub. Bu kabi leksemalarda tahlilga tortilgan “yashash” arxisemali lokallik mikromaydoni birliklari bilan o'zaro aloqadorlik asosidagi “tegishlilik” semasi kuzatiladi.

O'zbek tilida hayvonot olami bilan bog'liq bo'lgan *in, katak, uya, kavak, g'or* singari leksemalar ham uchraydi. Ushbu leksemalar ham “yashash” arxisemali lokal birliklar qatoridan joy oladi. Chunki ushbu leksemalar tarkibida hayvonot olamiga tegishli yashash joyi belgisi muhim. Jumladan, *in, uya* leksemalari “qush” arxisemasi, *katak* leksemasi “tovuq” arxisemasi, *kavak* leksemasi “hashorat” arxisemasi bilan assotsiativ bog'lanadi.

N.Hoshimova va D.G'anievalar assotsiativ guruhlar tuzilishida individual va tasodifiy assotsiatsiyalarga asoslanish mumkinligi haqida to'xtalib, shunday yozadilar:

“Ushbu individuallik va tasodifiylik mazmuniy maydonda komponent tahlil usuli bilan almashtiriladi. Masalan, *teatr* leksemasi bilan assotsiativ guruh tuzishga va tuzuvchi ongida paydo bo'lgan assotsiativ bog'lanishlarni

¹ Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка. Ташкент: Фан, 1991.-С.44.

taxminan ifodalashga harakat qilamiz: *spektakl, afisha, aktyor, sahna, parda, tomoshabin*".¹

In, uya, katak, kavak, g'or leksemalari ham ayrim hayvonlarning yashash joyini ifodalovchi nomlar sifatida kishi ongida gavdalanadi. Yuqorida dastlab tahlil etilgan barcha leksemalar esa "inson" arxisemasiga tegishli birlik sifatida qayd etiladi.

Shunday qilib, lokallik mikromaydoni elementlari sirasiga kiruvchi "yashash" arxisemali leksemalar til sistemasida o'ziga xos o'rin tutadi, ularni atroflicha tahlil etish o'zbek sistem leksikologiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

O'zbek tilidagi landshaft nomlari

A. Sobirov yer bilan bog'liq tushunchalarni relef va peyzaj, suv joylari, tuproq bilan bog'liq tushunchalar sifatida ajratadi².

Ma'lumki, landshaft nomlarining tarkibiga kiruvchi leksemalar (birikmalar) lokallik mikromaydonining elementi hisoblanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ko'rinishi, manzarasi bir xil bo'lgan er, joy"ga landshaft³ deyiladi. Ko'rinadiki, landshaft nomlarini ifodalovchi birliklar "lokallik" arxisemasi ostida birlashadilar.

Landshaft nomlarining o'zi turli jihatdan tasnif qilinishi mumkin. Sistema elementlarining eng muhim xususiyati ularning o'zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, leksik mikrosistemaning muayyan mikromaydoni sanaluvchi lokallik maydoni o'z ichida turlicha mikromaydonlardan tashkil topadi va o'z navbatida, har qaysi kichik mikromaydon yanada kichik bo'laklarga ajraluvchi xususiyatga ega bo'ladi.

¹ Хошимова Н., Ганиева Д. Ассоциатив ва мазмуний майдоннинг ўзаро муносабати// ФарДУ. Илмий хабарлар. Научный вестник. 2004, 1-сон. – 66-бет.

² Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш, Тошкент: Маънавият 2004. 92-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том, М., РЯ, 1981. – 427-бет

Landshaft nomlari shartli ravishda umumiy birliklarni qamrab oladi: **atrof, borliq, tabiat** kabi. Ushbu leksemalarda “lokallik” hamda “borliq bilan bog’liq” semalari mavjud. Dastlabki bo’linishda landshaft nomlari tarkibiga (qobig’iga) ko’ra

havo qobig’i (atmosfera)

suv qobig’i (gidrosfera)

tosh qobig’i (litosfera)

sifatida guruhlanadi. Jumladan, suvliklarning o’zi ham harakat belgisiga ko’ra, shuningdek, hajm darajasiga ko’ra qator leksemalarni birlashtiradi. Harakat belgisiga ko’ra oqin suvlar va turg’un suvlar sifatida tasviflanadi. Masalan, ***jilg’a, irmoq, daryo*** leksemalari “oqin” semasi bilan, ***ko’l, dengiz, okean*** leksemalari esa “oqin” semasiga ega emasligi bilan farqlansa-da, turg’un suvlar guruhiga kiruvchi leksemalar uchun “turg’unlik” semasi nisbiy (oqin suvlarga nisbatan kuchsiz harakatda) ekanligi, ularda “to’lqinlanish”, “qalqish” “mavjlanish” semalari mavjudligini kuzatish mumkin.

Hajm darajasiga ko’ra suvliklar nomlari ***jilg’a, irmoq, ariq, soy kanal, daryo*** leksemalari yaxlit graduonimik¹ qatorni; ***hovuz, suv ombori, havza, ko’l, dengiz, okean*** birliklari esa ikkilamchi graduonimik qatorni tashkil qiladi.

Ko’chadagi suv ariqning tagidan sayoz oqar, undan foydalanish qulay emas edi.(A.Qodiriy).

Ta’kidlash kerakki, ushbu leksemalarning ketma-ketlik qatori nisbiy xarakterda, chunki daryoning irmog’i ba’zan soy yoki kanaldan yirikroq yoki kichikroq bo’lishi mumkin. Shuningdek, suv havzalari nomlarini bildiruvchi leksemalar «tabiiy» va «sun’iy» semalari bilan farqlanadi.

Xususan, ***daryo, soy, irmoq, dengiz, okean*** leksemalari tarkibida “tabiiy” semasi uchun asos bo’lgan tabiatan mavjudlik belgisi; ***ariq, kanal,***

¹ Градуонимия (даражаланиш) хусусида қаранг: Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 1997.

suv ombori, hovuz, quduq singari leksemalarda «sun'iy» semasi uchun asos bo'lgan inson tomonidan yaratilganlik belgisi ko'zga tashlanadi.

Daryoning ana shu eski o'zani endi guruchdan mo'l hosil beradigan shaxmat taxta singari katak sholipoyalarga aylangan(J.Abdullaxonov).

Suv havzalari orasida *ko'lmak* leksemasi ham mavjud bo'lsa-da, uning tarkibidagi «beqaror» semasi yuqorida keltirilgan leksemalardagi «barqaror» semasiga zidlanadi va ayni shu sema uni biz tahlil etayotgan guruh tarkibidan chiqaradi.

Quruqliklar doirasidagi *o'rmon, qir, adir, cho'l, jar, tog', tepalik, tekislik* singari leksemalar ham balandlik va harorat darajasiga ko'ra ma'lum graduonimik qatorlardan iborat bo'ladi.

Adir orasidan barkashdek oy ko'tarilmoqda(S.Ahmad).

Cho'l shamolida tars-tars yorilgan tuyatish anorlar chiroq shu'lasida anvoyi tovlanardi(H.G'ulom).

Balandlik darajasiga ko'ra ushbu birliklarni *jarlik, pasttekislik, tekislik, qir, yonbag'ir, tog', dovon, cho'qqi* leksemalari o'rtasidagi darajali munosabat ma'lum qatorga birlashtiradi.

Ko'ktov dovonining u tomoni – yuqoridagi tekislik (SH.Rashidov).

O'zbek tilida *tog'* leksemasi amaliy nutqimizda juda faol qo'llaniladi, uning “balandlik” semasi berilgan qatordagi boshqa leksemalardagi shu semaga nisbatan turli maqsadlarda ishlatiladi. Masalan:

Tog' oshib, o'rmonzorlar oralab, tabiat mo'jizasi – Motsoxo g'origa kelamiz. (Y.Sulaymon)

Gapdagi *tog'* leksemasi tarkibida “o'rin”, “landshaft”, “balandlik” semalari mavjud. Bu gapda leksema o'zining denotativ ma'nosi bilan ishtirok etmoqda. *Tog'* leksemasi konnotativ ma'noda ayni shu “balandlik” semasini saqlagani holda, “o'rin” semasini yo'qotishi mumkin:

- *Ey, aka, juda katta to'y bo'ldi, siz ham bir tog'dan oshdingiz...*
(S.Boqiev)

Biroq ushbu birliklar alohida, mustaqil nomdagi ifodalar bilan belgilansa-da, ayrim leksemalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida birliklarning o'ziga xos ifoda imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Jumladan, **qirg'oq** leksemasi landshaft sifatida alohida geografik joy nomini anglatish bilan birga, "chetki qism" semasi asosida turlicha joy nomlariga tegishli bo'ladi: **dengiz, ko'l, daryo** kabilar.

Masalan:

Nihoyat, bug'u qirg'oqqa chiqdi-da, boshini u yoq-bu yoqqa salanglatib, bir-ikki na'ra tortdi. (Z.A'lam)

Shuningdek, **cho'qqi** leksemasi o'z tarkibida «o'rin-joy», "quruqlik", "eng yuqori" semalarini umumlashtirib, graduonimik qatorning eng so'nggi nuqtasida joylashsa-da, **tog'** leksemasining muayyan "qismi", "eng baland joyi" sifatida partonimik munosabatni ham shakllantiradi.

To'ylar davom etar, bola tug'ilar,

Cho'qqi zabt etilar, kitob o'qilar (A.Oripov).

Berilgan graduonimik qatorni **tekislik, pasttekislik, jarlik** tarzidagi «chuqurlik» semasining ortib borishi bilan aksincha yo'naltirish ham mumkin. Yuqoridagi kichik maydon birliklari qatori ushbu birliklar doirasida ham, "inson tomonidan yaratilgan" semasiga ega bo'lgan **qo'riqxon**a leksemasi ko'zga tashlanadi.

Harorat darajasiga ko'ra quruqlik nomlarini ifodalovchi leksemalar haroratning ortish (yoki kamayish) semasi asosida darajalanadi:

muzlik→vodiy→voha→dasht→cho'l

Masalan:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda

Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi (A.Oripov)

Bu erda berilgan qator ham muayyan nisbiylikka ega. Landshaft nomlarini ifodalovchi leksemalar orasida quruqlik va suv havzalarining bir-biriga nisbatan joylashuviga ko'ra

ajratiluvchi birliklar mavjud: **orol, yarim orol, burun, bo'g'oz** kabi.

Shuni aytib o'tish kerakki, **qo'ltiq, burun, bo'g'oz** leksemalari dastlabki ma'nolari bilan inson (hayvon) tana a'zolari nomlarini anglatishga xizmat qiladi, Biroq bu leksemalar tarkibidagi eng muhim differentsial semalar ma'no ko'chishi uchun asos bo'ladi. **Qo'ltiq** leksemasi tarkibidagi "tana a'zosi", "ichkari", "chukur" semalari ichidagi "ichkari", "chuqur" semalari; **burun** leksemasi tarkibidagi "tana a'zosi", "hid biluvchi", "turtib chiqqan" semalari doirasidagi so'nggi sema landshaft nomini ifodalashga xizmat qiladi. Bu o'rinda leksemalar semalari uchun shakl-ko'rinish belgisi muhim ahamiyatga ega bo'lyapti.

O'zbek tilidagi "lokallik" arxisemasi asosida birlashgan turli sathlarga tegishli mikromaydon elementlari uchun xos bo'lgan muhim xususiyatlarni aniqlash ularning ichki munosabatlarini chuqur tahlil etish o'zbek sistem tilshunosligi bilan aloqador masalalarni hal etishda katta ahamiyatga ega.

Korxona, muassasalar nomlarini anglatuvchi birliklar

O'zbek tilidagi "lokal" semali leksemalar orasida korxona, muassasalar nomlarini bildiruvchi leksemalar alohida ahamiyatga ega. Bunday guruh birliklari lokallik mikromaydonining katta qismini tashkil etadi. Ushbu guruh birliklarini bir necha asoslarga ko'ra ajratish mumkin.

Masalan:

- hajm belgisiga ko'ra;
- faoliyat belgisiga ko'ra.

Hajm belgisi asosida ajratilganda, korxona, muassasa, tashkilot nomlarini anglatuvchi birliklar "yirik", "kichik" hamda "hajmga betaraf" semalari orqali farqlanadi. Jumladan, "yirik" semasi bilan farqlangan birliklar

tarkibiga *aviabaza, zavod, fabrika, akademiya, devon, kosmodrom, bojxona, klinika, kombinat, ippodrom, universitet, elchixona, jome* singarilar mansub.

“Kichik” semasi orqali birlashgan leksemalar doirasida *do’kon, bufet, hammom, kafe, kioska, rasta, bekat* tarzidagi so’zlar alohida o’rin tutadi. Masalan:

Men har kuni do’konga borib, biror narsa ko’tarib kelaman
(Z.Saidnosirova).

Mazkur misolda *do’kon* leksemasining ma’nolari tarkibida “lokallik”, “hajm”, “kichik” semalari e’tiborga olinib, ushbu semalar leksemaning differentsial belgisi sifatida xizmat qilmoqda.

Qanaqa hammom bo’lardi, Beshyog’ochdagi hammom-da
(O’.Hoshimov).

“Hajmga betaraf” semali birliklar tilimizda katta miqdorni tashkil etadi: *baza, kon, gimnaziya, maktab, litsey, kutubxona, madrasa, guzar, dispanser, gospital, lager* kabilar. Jumladan:

Ular bir-birlaridan Xersonda, urush boshlangan dastlabki oylarda Normatjon yaralanib, birinchi marta gospitalga tushganda ajralishgan edi.
(Y.Sulaymon).

Berilgan gapda *gospital* leksemasi “o’rin”, “muassasa”, “xizmat ko’rsatish”, “davolash” semalari bilan yuzaga chiqyapti.

Dastlabki qatordagi so’zlar yiriklik, ikkinchisi kichiklik belgisi aniq ko’rinib turuvchi lokal leksemalar sanaladi. So’nggi qatorda ayni shu “hajm” semasi mavjud emas, ularga xos “hajm” semasi faqatgina nutq jarayonida hajm anglatuvchi “belgi” semali vositalar yordamida yuzaga chiqadi: *katta maktab, yirik gospital; kichik kutubxona, choqqina guzar* va boshqalar.

Korxona, muassasa nomlarini anglatuvchi leksemalar faoliyat belgisi orqali ham differentsial belgilarga ega. Ularni faoliyat belgisiga ko’ra guruhlashdan avval, ushbu belgi ajratilmaydigan, “umumiy” semasiga ega bo’lgan leksemalar hisobga olinishi zarur. O’zbek tilida *idora, inshoot,*

kabinet, korxona, tashkilot, korpus kabi “lokal” semali birliklar mavjud. Ulardagi dastlabki “lokal”, “faoliyat” semasidan tashqari, “umumiy” sema faoliyat turiga ishora qilmaydi. Chunki **korxona, muassasa, tashkilot, kabinet, idora, kassa, ombor** singarilarda ishlab chiqarish bilan ham, xizmat ko’rsatish bilan ham, ijodiy faoliyat bilan ham aloqadorlik bo’lishi mumkin. Ayni shu umumiy holat faoliyat belgisi ajratilmasligi uchun asos bo’ladi. O’z ichida ular ham “boshqarish” (**idora**), “ish yuritish” (**kabinet**), “pul oldi-berdisi” (**kassa**), “saqlash” (**ombor**) tarzidagi differentsial semalar bilan ajratiladi. Bu o’rinda faoliyatning yo’nalishi muhim emas, ular nutq jarayonida reallashadi.

Mahkam ancha tushkun qiyofada idoradan chiqib, beixtiyor kombinat tomon yurdi. (P.Qodirov)

Berilgan gapda **idora** leksemasiga xos “lokallik”, “faoliyat”, “tarkibiy qism” semalari ko’zga tashlanmoqda.

Bundan tashqari, **korxona, muassasa, tashkilot** leksemalarida “butun”, **kabinet, idora, kassa** leksemalarida esa “bo’lak” semalari ham mavjud bo’lib, ular ham nutq jarayonida ayrim hollarda yuzaga chiqishi mumkin.

Yuqoridagi “faoliyat” semasi ajratilmaydigan birliklar bilan birga, tilimizda ayni shu belgi ajratiluvchi leksemalar katta o’rin tutadi. Ularni o’z ichida “ishlab chiqarish”, “xizmat ko’rsatish”, “ilmiy-ijodiy” faoliyat asosidagi semalarga bo’lish maqsadga muvofiq.

Jumladan, “**ishlab chiqarish**” semali birliklar qatoridan **zavod, fabrika, kombinat** leksemalari o’rin oladi. Ta’kidlash kerakki, ushbu leksemalar qatorida “lokallik”, “faoliyat”, “ishlab chiqarish” semalari bilan birga, umumiy ishlab chiqarish belgisi ham mavjud.

Zavod hovlisidagi simyog’ochlar, tayyor traktorlar – uni kuzatib turgandek bo’laverdi... (Z.A’lam)

Zavod leksemasiga xos “o’rin”, “ishlab chiqarish” semasi bilan birga, “umumiy” semasi ham bu o’rinda xususiylikdan farqlash uchun xizmat qilmoqda.

Xususiy semalar esa nutqda yuzaga chiqadi: **ko'n zavodi, traktor zavodi; qog'oz fabrikasi, poyabzal fabrikasi; to'qimachilik kombinati, go'sht kombinati.**

“Xizmat ko'rsatish” semali lokal birliklar qatoriga **bog'cha, bekat, aeroport, bank, do'kon (magazin), dorixona, guzar, vokzal, depo, garaj, kafe, kioska, lager, kurort, klinika, shifoxona, gospital, bufet** tarzidagi ko'plab so'zlar kiritiladi. Ular uchun xos bo'lgan “lokallik”, “faoliyat”, “xizmat ko'rsatish” umumiy semalari bilan birga, ayrim farqlanuvchi semalar ham bo'lib, ularda xizmatning alohida turi e'tiborga olinadi:

- savdo-sotiq xizmati: **bozor, kafe, kioska, bufet, do'kon, rasta...**
- davolash va dam olish xizmati: **dorixona, klinika, dispanser, shifoxona, gospital, kasalxona, sanatoriy, kurort, lager, guzar...**
- transport xizmati: **vokzal, aeroport, bekat, depo, avtovokzal, aerodrom, garaj...**
- maishiy xizmat: **sartaroshxona, hammom, atele...**

Yuqoridagi lokal birliklar o'z ichida bir necha umumiy, ayni paytda, xususiy semalari orqali muayyan munosabatga kirishadi. Masalan, **bozor, do'kon, guzar, gospital, vokzal** leksemalari semalari tarkibidagi umumiy va xususiy belgilarni kuzatishi mumkin.

Ushbu leksemalar uchun dastlabki “lokallik”, “muassasa, korxona”, “faoliyat turi”, “xizmat ko'rsatish” semalari umumiy tarzda xos bo'lib, ular “davolash” (**gospital**), “dam olish” (**guzar**), “savdo-sotiq” (**bozor, do'kon**), “transport” (**vokzal**) semalari orqali o'zaro farqlanadi.

Ultarma bozoridan unda-bunda qaytayotganlardan bo'lak hech kim ko'rinmaydi. (Y.Sulaymon)

Gapdagi **bozor** leksemasi tarkibida “lokallik”, “muassasa, korxona”, “faoliyat turi”, “xizmat ko'rsatish” semalari ko'zga tanlanmoqda. Shuningdek, unga xos bo'lgan “savdo-sotiq” semasi ham reallashmoqda.

Uning ostona hatlashi Asadbekning Krasnoyarda kasalxonaga yotgan kuniga to'g'ri keldi (T.Malik).

Gapda keltirilgan ***kasalxona*** birligi o'z doirasida “lokallik”, “muassasa”, “xizmat ko'rsatish”, “davolash” semalarini umumlashtirmoqda. Ushbu so'zning semalari bilan ***gospital*** leksemasi tarkibidagi semalar o'zaro integral sema sifatida umumlashmoqda.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, paradigmatic munosabatda bo'lgan lingvistik birliklar muayyan birlashtiruvchi semaga ega bo'lishi bilan birga, o'zaro farqlovchi semaga ham ega bo'ladi. Ana shu farqlovchi semalar paradigma a'zolarining o'zaro zidlanishi uchun asos bo'ladi.

Sistemaviy tilshunoslikda paradigma a'zolarining ana shunday farqlovchi semalar asosida zidlanishini belgilash markaziy o'rinni egallaydi. Chunki lingvistik birliklarni ma'lum sinflarga birlashtirish qanchalik muhim bo'lsa, sinf a'zolarini bir-biriga zidlash ham shunchalik ahamiyatlidir. Sinflarga birlashtirishda lingvistik birliklar mundarijasidagi birlashtiruvchi sema xizmat qilsa, bir-biridan ajratishda farqlovchi sema asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslik asoschilari zidlanish tushunchasiga katta e'tibor berib, tilda zidlanishdan boshqa hech narsa yo'qligini ta'kidlaydilar.¹

Muayyan mikromaydonga mansub bo'lib, qator birlashtiruvchi (umumiy) semalari bilan yaqin keluvchi har qaysi leksema ham o'zi bilan yondosh leksemadan farqlanuvchi semasiga ega bo'ladi. Shu asosga ko'ra, yuqoridagi lingvistik birliklarni ham ayrim belgilari orqali bir-biriga zidlash mumkin. Jumladan, ***bozor va do'kon*** leksemalari uchun yuqorida ko'rsatilgan qator birlashtiruvchi semalar bilan bir qatorda, ayrim farqlanuvchi semalar ham mavjud. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ***bozor*** leksemasi shunday izohlanadi:

Bozor – 1. Aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy.

¹ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.-13-14 -бет.

2. Shunday savdo-sotiq qilinadigan kun.
3. (ko'chma) Shovqin-suron, tartibsizlik holati.
4. Tovar, mol almashuv sferasi.
5. Erkaklar ismi.¹

Berilgan izohlar ichida bizning tahlil ob'ektimizga xos ma'nosi dastlabki "aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy" deyilgan izoh to'g'ri keladi. Shu leksema bilan qiyoslash uchun *do'kon* leksemasining izohini ham keltiramiz:

- Do'kon*** – 1. Biror narsa sotish uchun maxsus jihozlangan savdo korxonasi, magazincha.
2. Hunarmandlarning ishxonasi.
 3. Hunarmandlarning ish qiladigan dastgohi; stanok.²

Ushbu qatordagi birinchi ma'no "biror narsa sotish uchun maxsus jihozlangan savdo korxonasi, magazincha" izohi yuqoridagi ***bozor*** leksemasi bilan ***do'kon*** leksemasini ko'p jihatdan, bir qancha semalari orqali yaqinlashtiradi. Ular o'rtasidagi farqlanuvchi sema "korxona" semasi hisoblanadi. Boshqa barcha semalarning muvofiqligi esa ***bozor*** leksemasining korxona, muassasalar nomlarini anglatuvchi birliklar qatorida, aniqrog'i, ularga qiyosan tahlil etish imkonini beradi. ***Bozor*** leksemasida ma'lum rasmiy tashkilot uchun tegishli "korxona" semasi mavjud bo'lmasa-da, ushbu mikromaydonga mansub o'nlab birliklar bilan lokallik, funktsionallik belgisi orqali umumlashadi.

Lager leksemasi ham bir necha farqli ma'nolari orqali turli qatorlar uchun mansub bo'lishi mumkin. Uning izohi lug'atlarda shunday beriladi:

- Lager*** – 1. Qo'shinning vaqtinchalik yashash joyi, qarorgoh.
2. Vaqtincha turish uchun mo'ljallangan oromgoh.
 3. Mahbuslar saqlanadigan joy.³

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I том. 126-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I том. 242-бет.

³ Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. (Hojiyev A., Nurmonov A. va boshq.) Toshkent: Sharq, 2001, - 121-bet.

Ko'rinadiki, **lager** leksemasi uchun xos bo'lgan semalar orasida "lokallik", "muassasa" semalaridan tashqari, "vaqtinchalik" semasi "yashash" arxisemali **uy** leksemasi tarkibidagi "doimiylik" semasiga zidlanadi. Dastlabki ma'no tarkibidagi "qarorgoh", so'nggi ma'no tarkibidagi "saqlanish" semalari undagi "harbiylik" semasiga ishora qiladi. Biroq so'nggi ma'no tarkibida "tutqunlik" semasi kuzatiladi. Ikkinchi ma'no esa **lager** leksemasini **oromgoh** leksemasi bilan bitta sinonimik qatorga birlashadi. Qiyoslang:

Chortoq tumanida yana bir turistlar lageri qad ko'tardi.(Gazetadan)

Shohimardon qishlog'ida ko'plab so'lim bolalar oromgohlari mavjud.

Avaxta, turma leksemalari esa "mahbuslar turadigan joy" semasi bilan **lager** leksemasi bilan bir umumiy qatorga joylashadi.

Ilmiy-ijodiy faoliyat belgisi orqali alohida guruhni tashkil etgan birliklar ham o'zbek tilida talaygina miqdorda bo'lib, ularni shu kichik mikromaydonga birlashtirishda "ilmiylik", "ijodiylik" va "ta'lim" semalarini asos qilib oldik, chunki ta'lim tizimiga xos tashkilotlarda ham bilim va ijod belgisi ko'zga tashlanadi. Ichki bo'linish esa quyidagicha:

- ilmiy-ijodiy muassasalar: **akademiya, laboratoriya, kutubxona, ko'rgazma, institut, kosmodrom, muzey...**
- ta'lim tizimiga xos muassasalar: **maktab, litsey, kollej, gimnaziya, universitet, madrasa...**

Keltirilgan qator birliklarining barchasi boshqa o'z guruhidagi so'zlardan ma'lum belgilar vositasida farq qiladi. Xususan, **ko'rgazma** va **muzey** leksemalari ko'proq san'at asarlari uchun tegishli joy sifatida "ijodiylik" semasining ustunligini ifodalasa, **laboratoriya** leksemasi uchun "ilmiylik" semasi muhim. SHuningdek, **akademiya, institut** leksemalari tarkibidagi ilm, san'at va ta'limga taalluqlilik belgisi uni konkret ko'rsatib beruvchi vositalar yordamida aniqlanadi:

Fanlar akademiyasi

Harbiy akademiya

Ilmiy-tekshirish instituti

Pedagogika instituti

Ta'lim tizimiga xos muassasalar doirasiga kiruvchi ***maktab*** leksemasi o'rta ta'lim uchun, ***universitet*** leksemasi oliy ta'lim uchun, ***madrassa*** diniy ta'lim uchun xoslangan belgilarni namoyon qiladi.

Bir kuni universitetda ilmiy anjuman bo'ladigan bo'ldi-da, u akademiya, men uydin borishga kelishdik (Z.Saidnosirova).

Ko'rinadiki, ***universitet*** leksemasi ta'lim uchun mo'ljallangan joy ma'nosini anglatib, uning tarkibida "lokallik", "muassasa", "ta'lim", "ilmiylik" semalari ajratiladi. ***Universitet*** leksemasi qator semalari orqali ***maktab*** va ***madrassa*** leksemalari bilan birlashib, ***madrassa*** leksemasi bilan "diniy", ***maktab*** leksemasidan esa "o'rta" semalari bilan farqlanadi.

Tilimizda ***auditoriya, kafedra, dekanat, rektorat, direksiya*** tarzidagi ma'lum "lokal" semali leksemalar ham bo'lib, ular o'quv yurti joylashgan tarmoqlarning o'rmini bildiradi. Jumladan, oliy o'quv yurti tizimiga xos bo'lgan qator birliklar o'rtasidagi partonimik (butun-bo'lak) munosabatlarni kuzatamiz: ***universitet, institut*** leksemalari butun, ***rektorat, dekanat, kafedra, auditoriya*** singarilar esa bo'lak hisoblanadi.

Berilgan qator birliklari ichida ***rektorat, direksiya*** leksemalari "boshqarish", ***dekanat*** va ***kafedra*** leksemalari "ish yuritish" semalariga ega bo'lib, ushbu differentsial semalar farqlanuvchi belgiga asoslanadi.

Bir kuni institutda, kafedrada o'tirar edim, Oybek kelib qoldi (Z.Saidnosirova).

Ma'lum faoliyat belgisi orqali birlashgan leksemalar orasida ***devon, qo'mita, vazirlik*** singari "lokal" semali birliklar ham mavjud bo'lib, ular davlatning yuqori boshqaruv sistemasiga tegishli joylar nomi sanaladi. Ular uchun umumiy "boshqaruv" semasi kuzatiladi:

Prezident devoni

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

“O’simlik” semali lokal birliklar

Ushbu semantik qator tarkibida tilimizdagi o’simlik o’sish belgisi bilan farqlanuvchi lokal vositalarni jamlanishi ko’zda tutilgan. Yuqorida tahlil etilgan boshqa qatordagi birliklardan ushbu qator birliklari “makon”, “joy” semalari bilan birga, “o’simlik”, “tuproq qatlami”¹ semalari bilan farqlanadi. Ular tarkibiga **ekinzor, dala, mevazor, bog’, poliz, tomorqa, changalzor, bedazor, to’qay, qo’riq, dasht, cho’l, sahro** singari birliklar kiradi.

Ushbu mikromaydon birliklarini bir necha tomondan guruhlash mumkin:

1. Inson mehnatiga aloqadorlik belgisi bilan farqlangan lokal birliklar “yovvoyilik” yoki “madaniylik” semasi orqali ajratiladi.
2. O’suvchi o’simlik turi asosida farqlanuvchi lokal birliklar “o’t-o’lanzor”, “gulzor”, “daraxtzor”, “plantatsiya” (“ekinzor”) semalari orqali ajratiladi.

Inson mehnatiga aloqadorlik belgisi orqali farqlanuvchi lokal birliklarni yuqoridagi semalar vositasida ma’lum ichki guruhlarga ajratamiz:

“Yovvoyilik” semasi orqali ajratiluvchi lokal birliklar: **dasht, biyobon, sahro, cho’l, butazor, to’qay, qo’riq, changalzor** tarzida. Ular uchun eng muhim, ya’ni “madaniylik” semasi orqali birlashgan lokal birliklardan farqlanuvchi belgi inson mehnatining mavjud emasligi hisoblanadi.

Zargarov samolyotdan uzoqlarga tikilganida sahro manzaralarining qandaydir o’zga sayyoralar manzarasiga o’xshash jonsiz, fayzsiz ekanligi necha marta dilidan o’tgan. (A.Muxtor)

Keltirilgan gapdagi **sahro** leksemasida “o’rin”, “yovvoyilik” semalari bilan birga, “keng”, “yaydoq” semalari ham ko’zga tashlanadi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. 248-бет.

Ushbu joy nomlari alohida (maxsus ekilgan) o'simliklarni emas, balki har xil o'simliklarni tabiiy jamlagan er maydoni sifatida gavdalanadi.

Yoshlar ana shu cho'lu biyobonlarni chamanzorga aylantirish uchun astoydil bel bog'ladilar. (Gazetadan)

Berilgan "lokal" semali so'zlarni yana yovvoyi holda o'sadigan o'simlik maydoni sifatida ham nomlash mumkin: ***butazor, qamishzor, changalzor, to'qay*** kabi.

To'qay leksemasi uchun xos bo'lgan "zax", "botqoq" semalari ***sahro*** leksemasidagi "suvsiz" semasi bilan o'zaro zidlik hosil qiladi.

Nechun sahro so'zin, toshlar nafasini,

Do'stlar o'tovini yashayman bilmay. (Zulfiya)

"Madaniylik" semasi orqali farqlanuvchi lokal birliklar sirasiga ***bog', gulzor, poliz, mevazor, dala, tomorqa, ekinzor, paykal*** kabi so'zlar kiritiladi. Ularda inson mehnatining natijasi bilan bog'liq belgilar gavdalanadi.

Dala bag'rini baxmal ko'rpa kabi qoplab olgan bo'z o'tlar kundan-kun bo'y cho'zadi, gullaydi (Sh.Rashidov).

Keltirilgan parchada ***dala*** leksemasi tarkibidagi "lokallik", "o'simlik", "keng", "madaniylik" semalari namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek:

Abdulla Qodiriyning ko'rkamgina, shinam bog'i bor edi (Z.Saidnosirova).

Akademik A. Hojiyev ***gulshan, guliston, gulzor, gulbog', bo'ston, chaman, chamanzor*** so'zlarini o'zaro sinonimik munosabatdagi vositalar sifatida ko'rsatadi va uning "gullagan, yashnagan, obod joy"¹ ekanligini izohlaydi:

Norinda suv bor ekan,

Cho'llar suvga zor ekan.

Cho'p bitmagan biyobon,

¹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 81-бет.

Suv bitsa, gulzor ekan. (Qo'shiq)¹

Ko'rinadiki, inson mehnatiga aloqadorlik belgisi asosida "yovvoyilik" semasi bilan ko'zga tashlanuvchi birliklar "madaniylik" semasi orqali namoyon bo'luvchi vositalardan "qarovsiz" yoki "obod" semalari orqali ma'lum zidlanish munosabatini ham hosil qiladi.

O'rmon leksemasi esa ayni shu belgiga betaraf sanaladi. Chunki o'rmonlar tabiat tomonidan yaratilishi, shuningdek, inson tomonidan hosil qilinishi mumkin. Shunga ko'ra, yuqoridagi "yovvoyilik" yoki "madaniylik" semasi **o'rmon** leksemasi uchun betaraf hisoblanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham ushbu leksema shunday izohlanadi:

O'rmon – daraxtlar bilan qoplangan katta maydon, daraxtzor.²

Kechga yaqin qalin o'rmonda hech narsa ko'rinmay, zim-ziyo bo'lgan edi.

O'suvchi o'simlikning turi³ orqali ajratiluvchi lokal birliklar ham o'zida mavjud o'simliklarning turi bilan shunday guruhlanadi:

- o't-o'lanzor nomlari: **maysazor, yaylov, o'tloq, bedazor, ko'kalamzor;**
- gulzor nomlari: **gulzor, gulshan, chaman(zor), bo'ston;**
- daraxtzor nomlari: **daraxtzor, bog', mevazor, butazor, qayinzor, archazor, changalzor, behizor;**
- poliz-paykal nomlari: **poliz, plantatsiya, ekinzor, dala, paykal, shudgor.**

Ushbu qatordagi birliklar ham ma'lum belgilar orqali o'zaro differentsial xususiyatlarga ega. Jumladan, daraxtzor nomlarini anglatuvchi lokal birliklarni mevali-mevasiz daraxtlar o'sishiga ko'ra "mevazor" (**olmazor, o'rikzor, behizor** va boshq.), "mevasiz daraxtli" (**butazor, archazor, o'rmonzor, terakzor, qayinzor**) semalari ajratiladi:

¹ Хожиев А. Ўша асар, 82-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том.

³ Ўзбек тилшунослигида ўсимликлар номи билан боғлиқ махсус тадқиқотлар mavjud. Бу ҳақда қаранг: Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадиий қўлланилиши: Филол.фанл. номз...дисс.автореф. Тошкент, 1998.

Olmazorlar gulin to'kadi,

Meva bog'lab shoxin bukadi. (H. O.)

Quyuq tuman archazor ustiga yopirilib, bir zumda qorong'ilik o'z hukmini o'tkaza boshladi. (O.T.)

Ayni shu qatorning o'zida ham “yovvoyilik” yoki “madaniylik” semasi bilan farqlanuvchi lokal birliklar ko'zga tashlanadi:

- ***butazor, changalzor, o'rmonzor;***
- ***behizor, olmazor, o'rikzor*** kabi.

Shu bilan birga, so'nggi qatordagi so'zlar ham ekin maydonida o'stirilayotgan o'simlik xili orqali ajratiladi:

- donli o'simliklar maydonining nomlari: ***bug'doyzor, sholipoya;***
- palakli o'simliklar maydonining nomlari: ***poliz, paykal;***
- chigitli o'simliklar maydonining nomlari: ***paxtazor, dala*** va boshqalar.

Keltirilgan belgi hisobga olinmaydigan lokal birlik sifatida ***shudgor*** leksemasini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu leksema “haydalgan, chopilgan er”¹ ma'nosi bilan farqlanadi: ***shudgorni haydamoq.***

O'zbek tilidagi shu qatorga mansub lokal birliklar doirasida ***ishkom, so'ri*** leksemalari ham uchraydi. Tokni ko'tarib turishga mo'ljallangan ushbu qurilma nomi tarkibida “joy” semasiga nisbatan ko'proq “vosita” semasi ustunlik qiladi.

O'zbek tilidagi “o'simlik” semasi bilan umumlashgan lokal birliklar o'zaro partonimik munosabatga ham kirishishi mumkin:

- butun nomlari: ***dala, poliz, bog', ekinzor, plantatsiya, daraxtzor;***
- bo'lak nomlari: ***egat, marza, pushta, jo'yak*** va boshqalar.

Bo'lak nomlarini bildiruvchi leksemalar o'ziga xos semalari bilan farqlanadi. Masalan, ***jo'yak, egat*** leksemalarida “ekin arig'i” semasi; ***pushta***

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. 431-бет.

leksemasi tarkibida esa ekindan xoli “bo’sh joy” semalari ularni o’zaro farqlash uchun xizmat qiladi.

Pushtaga yozilgan palaklar ichida bolalarning koptogi singari qovuntarvuzlar ko’rinib turardi. (SH.Rashidov)

Tomorqa so’zi keyingi qatordagi birliklar sirasida ma’lum kishiga tegishli er uchastkasi sifatida ajratiladi.

Ba’zan amaliy nutqimizda ekin maydonini anglatuvchi leksemalar o’rnida ularning o’lchov birliklari sifatida belgilangan numerativ so’zlardan ham foydalaniladi:

Umar akam bilan shudgor qilingan gektarlarning hisob-kitobini yozayotuvdik (O’.Hoshimov).

Gapdagi ***gektar*** leksemasi tarkibida “o’lchov”, “miqdor”, “keng” semalari bilan birga, “makon” semasi ham kuzatiladi. Bu o’rinda gektar leksemasining lokallashishi ko’zga tashlanmoqda.

Diniy e’tiqod belgisi bilan farqlangan lokal birliklar

O’zbek tilidagi mavjud “makon” semali birliklar doirasida diniy e’tiqod belgisi bilan farqlangan so’zlar ham ma’lum darajada o’rin tutadi. Bunday lokal birliklar, avvalo, “mavjudlik” yoki “ilohiylik” semalari bilan ajratiladi. Chunki har qanday diniy tushunchalar dastlab ilohiylik belgisi orqali gavdalanadi. O’zbek tilida ham ushbu belgilarni o’zida jamlagan tushunchalar ichida ularga xos lokal birliklar talaygina.

“Ilohiylik” semasi orqali umumlashgan leksemalarga islom diniga xos ***behisht, jannat, kavsar, firdavs, do’zax, jahannam*** kabilar mansub. Ularda “makon” semasi bilan birga, “diniylik”, “ilohiylik” semalari mavjud. Ushbu leksemalar ham ma’lum belgilar asosida differentsial semalarni namoyon qiladi. Masalan, ***jannat*** leksemasi “Hozirgi o’zbek tili faol so’zlarining izohli lug’ati”da shunday izohlanadi:

1. Islom falsafasiga ko'ra shu yo'lda yurgan begunohlarning ruhi yashaydigan Olloh maskani, bihisht.
2. Nihoyatda xushmanzara, chiroyli joy.¹

Berilgan ma'nolarning dastlabkisi tahlil uchun asos bo'ladi, keyingi ma'nosida islom falsafasiga xos **jannat** leksemasi tarkibidagi "makon", "go'zal", "xushmanzara" semalari saqlanib, "ilohiylik" semasi "reallik" semasi bilan almashyapti.

Do'zax leksemasi esa quyidagicha izohlanadi:

1. Gunohkor bandalari uchun Olloh tomonidan azoblanish buyurilgan joy, jahannam.
2. Ruhan va jisman qiynalishga, mushkul ahvolga soluvchi og'ir sharoit, holat.²

Dastlabki ma'no orqali leksemani tahlil etilayotgan qator tarkibiga kiritamiz. Undagi "qiynalish", "azoblanish" semasi **jannat** leksemasidagi "rohatlanish" semasiga zidlanadi va ayni shu ruhiy yoki jismoniy harakat, holatlar sodir bo'ladigan joy sifatida antonimik munosabatlar yuzaga keladi:

jannat - do'zax

bihisht – jahannam

Ushbu qator birliklari tarkibida **kavsar** leksemasida "makon", "diniy", "ilohiy" semalaridan tashqari, "jannatga xos", "hovuz" semalari bo'lib, so'nggi sema **kavsar** leksemasini qator birliklaridan ajratish uchun asos bo'ladi.

"Mavjudlik" semasi orqali birlashgan birliklar sirasiga **qibla, qadamjo, madrasa, masjid, cherkov, Baytulloh, Ka'ba, go'r, qabr, mozor, lahad, qabriston** kabilar kiradi.

Zebixonning nima uchun mozorga qarab yugurayotgani hech kim tushunmasdi(Y.Sulaymon).

¹ Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. (Hojiyev A., Nurmonov A. va boshq.) Toshkent: Sharq, 2001, - 92-bet.

² Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. (Hojiyev A., Nurmonov A. va boshq.) Toshkent: Sharq, 2001, - 53-bet.

Shuningdek:

Buvimni Minor qabristoniga dafn etdik (Z.Saidnosirova).

Yuqorida korxona, muassasa nomlarini anglatuvchi, ta'lim tizimiga xos muassasalar tarkibida ***madrasa*** leksemasini ham keltirgan edik. Faol so'zlarning izohli lug'atida ***madrasa*** leksemasiga shunday ta'rif beriladi:

Madrasa – diniy ta'lim-tarbiya beruvchi o'quv muassasasi.¹

Demak, ***madrasa*** leksemasi “ta'lim-tarbiya beruvchi” semasi bilan yuqoridagi mikromaydonga, “diniy” semasi bilan ushbu qatorga mansub bo'ladi. O'z qatoridagi birliklardan “reallik”, “ta'lim berish” semalari bilan farq qiladi.

Masjid, cherkov leksemalari “joy”, “diniy”, “mavjudlik” semalari bilan qatordagi boshqa birliklar bilan umumiy belgiga ega bo'lib, “ibodat joyi” semasi bilan farqlanadi. O'z ichida ***masjid*** leksemasi “musulmon diniga xos”, ***cherkov*** leksemasi “nasroniylarga xos” semalari bilan o'zaro differentsial belgiga ega bo'ladi.

Ka'ba (Ka'batulloh) leksemasi tarkibida “joy”, “diniy”, “real”, “muqaddas”, “ziyoratgoh” semalari mujassamlashadi.

Ka'batulloh yo'lida,

Joynomozi qo'lida,

Salom-salom, yor-yor,

Kelin salom, yor-yor,

Qaynotalariga salom.

Go'r, qabr, lahad, mozor, qabriston so'zlarida “joy”, “diniy”, “real” semalari bilan birga, “o'linga oid” semasi ham farqlanadi. ***Qabriston*** birligi “o'liklar qo'yiladigan”, ***qabr, go'r*** leksemalari “mayit qo'yiladigan chuqur joy”² belgilari bilan farq qiladi.

¹ Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. (Hojiyev A., Nurmonov A. va boshq.) Toshkent: Sharq, 2001, - 125-bet.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. М.: РЯ, 1981

Sport va harbiy sohaga oid lokal birliklar

Lingvistik maydonlar doirasida lokallik mikromaydonining imkoniyatlari juda keng. Lokallik mikromaydoni shu maydon ostiga birlashgan barcha a'zolarida mavjud bo'lgan birlashtiruvchi "makon" arxisemasi ostida shakllanadi va o'z ichida qator farqlanuvchi semalar orqali bo'linish xususiyatiga ega. O'zbek tilining leksik sathiga mansub bo'lgan lokal birliklarni umumiy "makon" semali; "yashash" semali; "landshaft" semali; "o'simlik" semali; "diniy e'tiqod" semali; "harbiy" va "sport" semali leksemalar sifatida ajratib o'rganish maqsadga muvofiq. Umumiy "makon" semali birliklar lokallik mikromaydonining asosiy mag'zini tashkil qiladi. Ular uchun "maxsus joy" semasi muhim emas. Ushbu leksemalarni "chor taraf" yoki "ma'lum taraf" semasi bilangina farqlash mumkin. O'zbek tilida "yashash" semasi bilan farqlanuvchi leksemalar nutq jarayonida ancha faolligi bilan ahamiyatga ega. Ushbu qator birliklari "tug'ilib o'sgan joy", "aholi yashash joyi" va "xonadon" leksemalari yordamida ajratib o'rganiladi.

Tilimizda hayvonot olamiga taalluqli bo'lgan ayrim "lokal" arxisemali leksemalar (*in, katak, g'or, uya* kabi)da ham "yashash" semasi mavjud. "Lokallik" arxisemasi ostida birlashgan leksemalar orasida landshaft nomlari o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ularning ichki bo'linishida leksemalarni ifodalovchi narsa-hodisaning harakati, hajmi, yuzaga kelish usuli, shakl-ko'rinishi, harorat darajasi hisobga olinadi. Korxona, muassasa nomlarini bildiruvchi lokal birliklar lokallik mikromaydonining katta qismini tashkil etadi. Ularda faoliyat belgisi asosiy o'rin tutadi, bunga ko'ra "umumiy faoliyat", "xizmat ko'rsatish faoliyati", "ishlab chiqarish faoliyati", "ilmiy-ijodiy faoliyat" semalari farqlovchi asos hisoblanadi. "O'simlik" semasi bilan birlashgan lokal birliklarda "tuproq qatlami", "o'simlik o'sish joyi" belgisi e'tirof qilinadi. Bunday leksemalarni inson mehnatiga aloqadorlik, shu joyda o'sgan o'simlikning turi orqali bo'lish mumkin. O'zbek tilida diniy e'tiqod belgisiga asoslangan, shuningdek, sport yoki harbiy tushunchalarga tegishli

bo'lgan lokal leksemalar ham munosib o'ringa ega. Ularning aksariyati ko'p ma'noli bo'lib, o'rni bilan "sport" yoki "harbiy" semasiga ega bo'ladi.

O'zbek tilida harbiy va sport uchun xos bo'lgan lokal birliklar ma'lum miqdorni tashkil etadi. Ularning aksariyati baynalmilal xarakterga ega bo'lib, o'zbek tilida ham aynan qo'llaniladi. Bunday so'zlar tarkibiga **marra (finish), ring, kort, stadion, trek, basseyn, poligon, transheya, janggoh, okop, tir** singari ifodalar mansub. Ushbu leksemalarning umumiy belgisi "makon" semasi bo'lib, o'z ichida ma'lum guruhlarini tashkil etadi.

1. "Harbiy" semali lokal birliklar.

2. "Sport" semali lokal birliklar.

"Harbiy" semali leksemalarning dastlabki belgisi "urushga aloqadorlik"¹ hisoblanadi: **poligon, transheya, janggoh, okop, tir** kabi. Ushbu birliklar ham ma'lum differentsial semalarga ega, ya'ni **janggoh, poligon, tir** so'zlarining semalari tarkibida "makon" semasidan tashqari, "kenglik", "sahn" semalari; **transheya, okop (handaq)** so'zlarida esa "ensiz", "chuqur" semalari ko'zga tashlanadi. O'z navbatida, har qaysi leksema o'zining farqlanuvchi belgilariga ega. Jumladan, **transheya, okop** leksemalarining barcha semalari integral bo'lgani holda, **okop** leksemasining himoya uchun, **transheya** leksemasining hujum uchun xoslanganligi ularning o'ziga xos differentsial semalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Okopga generelning o'zi kelganligi haqidagi xabar oniy lahzada shivir-shivir bilan quloqdan quloqqa o'tdi. (Oybek)

Harbiy tushunchalar bilan bog'liq **polk, rota, vzvod, qism, flot, batalon, diviziya** kabi leksemalar aslida muayyan harbiy bo'linmaning, harbiy shaxslardan iborat guruhning nomi sifatida belgilanadi. Bu ifodalar ana shu bo'linmalar joylashgan erga nisbatan ishlatilganda, "makon" semasiga ishora qiladi. Bunda ushbu birliklar lokallik mikromaydonining chegara qismiga tegishli bo'ladi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. М. : РЯ, 1981.- 687-бет.

Batalonlarning komanda punktlarida Kamol tutunga to'yib, o'z qismiga alla-pallada horg'in qaytdi. (Oybek)

“Sport” semali leksemalar tarkibidagi “makon” semasi bilan ajratiluvchi birliklar doirasiga ***start, finish (marra), ring, kort, trek, basseyn*** singarilar kiradi. Ularni ham ma'lum belgilar orqali farqlash mumkin. Masalan, ***start, finish*** kabi leksemalar yugurish, uchish bilan bog'liq sport turlariga xosligi bilan, ***ring*** boks, ***kort*** tennis, ***trek*** velopoyga, ***basseyn*** suzish singari sport turlariga xosligi bilan ajralib turadi.

Mohir sportchilar finishga etib keldilar.

Bokschilar ringga ko'tarilishdi.

Ayni paytda, ***start, finish*** leksemalari orqali o'zish, poyga musobaqalari to'g'risida, ***ring*** leksemasi orqali boks, ***basseyn*** leksemasi orqali suzish, ***kort*** leksemasi orqali tennis bilan bog'liq sport turlari haqida tasavvur hosil qilinadi. Ko'rinadiki, ushbu leksemalar o'zaro assotsiativ munosabatlarga kirishadi.

Yuqorida ***saroy, maydon*** leksemalarining semantik xususiyatlari haqida to'xtaldi. Ushbu leksemalar sport bilan bog'liq joy nomlari sifatida ham belgilanishi mumkin. Masalan, ***saroy*** leksemasi sport musobaqalari o'tkaziladigan katta bino sifatida, ***maydon*** leksemasi esa sport musobaqalari uchun mo'ljallangan keng sahn sifatida “sport” semasiga ham ega bo'ladi:

mashq maydoni, sport maydoni

Xumoyun barcha

O'zbek tilida ***darvoza, burchak, ustun, supa, yo'lka*** singari qator leksemalar turlicha ma'nolar uchun xizmat qiladi. Ushbu birliklar, ayni vaqtda, “sport” semali joy nomlari sifatida ham qo'llaniladi.

Jumladan, ***darvoza*** leksemasi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izohlangan:

Darvoza – 1. Hovli, qo'rg'on, qal'a, zavod va boshqa shu kabilarga kiriladigan, ochilib yopiladigan katta eshik, qopqa.

2. Kanallarda suvni to'sish yoki qo'yib yuborish uchun ishlangan maxsus qurilma, qopqa.

3. Futbol, xokkey va shu kabi o'yinlarda maydonning raqib yuborgan to'pni kiritmaslik uchun himoya qilinadigan chekli qismi.¹

Ko'rinadiki, so'zning so'nggi ma'nosi "sport" semasiga ega. Bundan tashqari, unda "qism" semasi ham ko'zga tashlanadi. Ushbu leksemalarning har qaysisi bir-biri bilan yuqoridagi integral semalar bilan birga, ayrim differentsial semalari orqali farqlanadi.

O'ZBEK TILINING LOKALLASHGAN BIRLIKLARI

Jahon tilshunosligida maydon bilan bog'liq tushunchalar doirasida kommunikativ maydon atamasi ham vujudga keldi, unda kommunikativ akt, ma'lum birliklarning, muayyan sintagmatik aloqalari vositasida diskursning maydon tarzida qaralishi e'tirof etilmoqda.²

F.Sossyurning lingvistik belgining muhim xususiyatlaridan biri sifatida uning silsilaligi ekanini ko'rsatib o'tganligi hozirgi kunda ko'pchilikka ayon. Bu xususiyat belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatga ishora qiladi. Ma'lum bir belgining boshqa belgi bilan o'zaro munosabati esa sintagmatik munosabat hisoblanadi.

Professor A.Nurmonov bu munosabatning asosi nutq jarayoni ekanini va uning negizida til vositalari yotishini ta'kidlaydi. Uningcha, "aloqa jarayonida yaratiladigan (talaffuz qilinadigan) konkret moddiy belgi real aloqa vositasi sanalib, bir vaqtning o'zida belgining moddiy sistemasi sifatidagi tilga ham taalluqli bo'ladi."³

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. Москва: Рус тили, 1981. – 209-бет.

² <http://www.snto-msu.net/ashowplat.php?Cat=&Board=study&Number=4083194&src=&o=&showlite=sl&tistart=16.8 K6> -- 19.10.2006

³ Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. Андижон, 1992. – 22-бет.

Sintagmatik munosabatning ostida turli sathga xos paradigma a'zolarining o'zaro munosabati ham e'tiborga olinadi. Bu munosabat, ayniqsa, leksik sathda yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda sintagmatik munosabat bilan sintaktik munosabat o'rtasidagi farqqa ham aniqlik kiritish kerak. Ayrim mualliflar sintagmatik munosabatda sintaktik sathga nisbat beradilar. Ushbu qo'llanmada F.de Sossyur izidan borib, sintaktik munosabat bilan sintagmatik munosabatni bir-biridan farqlanadi. Sintagmatika tilning barcha sathlariga tegishli bo'lib, har qaysi sath birligining nutqiy jarayonda ketma-ket bog'lanishidir.¹

O'zbek tiliga xos fonemalar nutqiy jarayonda o'z imkoniyatlarini namoyon qiladi. Xususan, unli fonemalar muayyan qurshovda qator belgisiga ega bo'ladi. O'zbek tilidagi unli fonemalar lokal belgi orqali nutqda til oldi (old qator) unlilari (a, e, u) hamda til orqa (orqa qator) unlilari (o, u, o') sifatida ikki guruhga ajratiladi.

Masalan, fonetik sathda **t**, **o** va **sh** tovushlarining ketma-ket bog'lanishi morfemik sathda **tosh** va **-ga** morfemalarining ketma-ket bog'lanishi singari. Sintaktik munosabat esa faqat sintaktik birliklarning o'zaro teng yoki tobe bog'lanishini ifodalaydi. Lekin bu ham umumiy sintagmatika qonuniyatiga amal qiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, sintaktik munosabat umumiy sintagmatik munosabatning tilning turli sathlaridan faqat bittasida namoyon bo'lishidir.

“Paradigma a'zolari nutq jarayonida har qaysi tilning muayyan qonun-qoidasi asosida hamda paradigma a'zosining ma'nosi doirasida boshqa paradigma a'zosining varianti bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Sintagmatik munosabatga kirishuvchi lingvistik birliklar tanlanish xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni har qanday qimmat jihatidan bir xil bo'lgan lingvistik birliklar emas, balki mazmuniy muvofiqlashgan, ma'no taqazo

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.

etgan ikki paradigma a'zosi variantlarigina sintagmatik munosabatga kirishadi.”¹

Sintagmatik munosabatga kirishuvchi har qanday lingvistik birliklar semalari tarkibida ma'lum mazmuniy muvofiqlik bo'lishi zarur. Ayni shu mutanosiblik “lokal” semali va ular bilan o'zaro munosabatga kirishuvchi boshqa birliklar uchun taalluqlidir. Jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklari va “lokal” semali ko'makchilar yordamida lokallikka betaraf bo'lgan leksemalar lokallashuvi natijasida ular lokallik mikromaydonining periferiyasidan joy olishi mumkin.

Haqiqatan, ma'lum sintagmatik munosabatning asosida mantiqiy uzviylik bo'lishi zarur. Biz, jumladan, muayyan harakatlarni tabiiy ravishda unga mos keluvchi narsa-predmetlar yoki belgi mutanosibligiga bog'lashimiz kerak. Masalan, ko'rish bilan bog'liq harakat, albatta, har qanday real predmetlarga; eyish bilan bog'liq harakat oziq-ovqatlarga; kiyish bilan bog'liq harakat ust-boshlarga; o'qish bilan bog'liq harakat kitob, gazeta, jurnal kabi o'qishga mo'ljallangan predmetlarga muvofiq keladi. O'z navbatida, ushbu aloqadorlik tilda ham o'z ifodasini topadi: ***bog'larni ko'rmoq; palov emoq; choy ichmoq; ko'ylak kiymoq; gazeta o'qimoq*** kabi.

Bunday mutanosiblik o'zbek tilidagi “lokal” semali birliklar bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi boshqa mikromaydon birliklariga ham tegishli. Masalan, o'zbek tilidagi ***sayohat, safar, darbadar*** singari tushunchalar nomlari; ***chuqur, sayoz, hosildor, shinam, keng*** tarzidagi belgi anglatuvchi leksemalar; ***bormoq, bunyod qilmoq, jo'namoq, kelmoq, ko'chmoq, o'tirmoq*** kabi harakat ifodalovchi birliklar mantiqan o'ringa, makonga aloqador bo'lib, lokallik mikromaydonining yadrosida joylashgan yuqoridagi ifodalar bilan sintagmatik yoki assotsiativ bog'lanishi mumkin.

¹ Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фанл. докт... дисс.автореф. Тошкент, 1999. – 9-бет

Ana shularga asoslangan holda, o'zbek tilidagi lokallikka ishora qiluvchi, ularning faol yoki fakultativ valentligini to'ldiruvchi belgi, harakat ifodalovchi leksemalarni alohida tahlil etildi. Ushbu birliklar lokallik mikromaydonining periferiyasida joylashgani sababli, ularni lokallashgan otlar, lokallashgan sifatlar hamda lokallashgan fe'llar sifatida ajratdik.

Lokallashgan otlar

O'zbek tilidagi tabiatga aloqador otlar; tana a'zolari nomlari; jonsiz predmetlar nomlarining lokallashishi nutq jarayoni bilan aloqador hodisa bo'lib, bu holat "lokal" semali kelishiklar va ko'makchilar yordamida yuzaga chiqadi. Ayni vaqtda, ko'makchilar, kelishiklar ham muayyan qurshov orqali o'z imkoniyatlarini reallashtiradi. "Lokal" semali belgi nomlari ham lokallik mikromaydonining yadrosiga tegishli elementlarning valentligini qamraydi. O'zbek tilidagi "o'rin" semali belgi ifodalovchi leksemalar "umumiy makon" semali; "hajm" semali; "masofa-o'lchov" semali; "harorat" semali; "shakl-ko'rinish" semali va belgining qator ichki guruhlariga xoslangan semalarni o'zida jamlaydi.

Yuqorida o'zbek tilidagi jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklari hamda ayrim ko'makchilarning lokallik belgisiga egaligi va shunga ko'ra, ularni lokal kelishiklar va "lokal" semali ko'makchilar sifatida yuritilishini qayd etilgan. Ularda "makon" semasi barqaror xususiyatga ega bo'lib, shu asosda bu kelishiklar lokallik mikromaydonining markaziy, yadro qismidan joy oladi.

"O'zbek tili grammatikasi"da "kelishik shakli yordami bilan ravish yasalishi, odatda, so'zlarning ma'lum kelishikda "qotib" qolishi natijasida yuzaga chiqib, maxsus ma'noga –belgini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. So'zda vujudga kelgan semantik siljish morfologik shalga ham ega bo'ladi"¹ deb qayd etiladi. Bu jarayon tilning taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент: Фан, 1975.- 536-бет.

kelgan hodisa bo'lib, u til sathida e'tirof etilishi zarur. Lokallashish jarayoni esa muayyan nutqiy vaziyatga aloqador sinxron hodisa tarzida amal qiladi.

Ayrim ilmiy manbalarda kelishiklar va ko'makchilarning ma'nosi kelishik turgan, ko'makchi bilan birga kelayotgan so'zga va ularni boshqarib kelayotgan so'zning ma'nosiga, matn va situatsiyaga bog'liq ekanligi e'tirof qilinadi. Bu o'rinda kelishik va ko'makchilarning turlicha semantik belgilarni nutq jarayonida reallashtirish imkoniyati ular turgan qurshov orqali namoyon bo'lishi nazarda tutilgan. Xususan, jo'nalish, o'rin va chiqish kelishiklari va ayrim ko'makchilar qurshovdagi so'zlar vositasida turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ta'kidlash kerakki, lokal belgiga ega bo'lmagan bosh va qaratqich kelishigi turlicha kontekstda ayri holda ushbu ma'noni ifodalamaydi. Oraliq holatda bo'lgan tushum kelishigining ifodalayotgan ma'nolari ayni nutqda reallashadi. Jo'nalish, o'rin va chiqish kelishigidagi so'zlar lokal belgini namoyon qiladi. Garchi bu o'rinda ular turgan va ularni boshqarayotgan fe'llar (yoki ularning shakllari) muhim deb hisoblansa-da, ayni vaqtda, ushbu kelishiklarning mazmuniy mundarijasida "makon" ma'nosining amal qilishini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. Chunki "ba'zan "narsa" uzvli so'zlar ham o'rin, jo'nalish, va chiqish kelishiklari bilan o'rin-joy ma'nosini bildirishi mumkin".¹

"O'rin valentligining namoyon etuvchisi gapda, asosan, o'rin kelishikli shakllarda qo'llanadi. Ayrim holatlardagina uning *-ni, -ga, -dan* kelishiklari bilan qo'llanishi kuzatiladi. Yo'nalma harakat fe'llarining lokalis valentligi, asosan, sath ma'nosini ifodalovchi otda namoyon bo'ladi. Yo'nalma harakat fe'llarining lokalis valentligi *oldida, orqasida, o'rtasida, bo'yida, yonida* kabi ko'makchili shakllarda ham namoyon bo'ladi".²

¹ Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол.фанл.номз....дисс.автореф.. Тошкент, 1996.- 16-бет.

² Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги валентлиги: Филол.фанл.номз....дисс.автореф.. Тошкент, 1999.- 19-бет.

Shuningdek, jo'nalish, o'rin va chiqish kelishiklari bilan sinonimik munosabatga kirishuvchi ayrim ko'makchilar ham nutq jarayonida ushbu kelishiklar kabi turli ma'no munosabatlarini yuzaga chiqarishda xizmat qiladi. Mazkur qo'llanmaning betlarida "lokal" belgi asosida birlashgan ko'makchilarning "yo'nalish", "chegara", "vosita" singari semalarga ajratilishi ko'rsatilgan edi. ("O'zbek tilidagi "lokal" semali ko'makchilar" qismiga qarang.) Ushbu ko'makchilar ham nutq jarayonida lokal belgiga ega bo'lgan kelishiklar bilan umumiy holda ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, o'zbek tilidagi lokallashgan otlarni ayrim mazmuniy guruhlariga ajratib, ularda lokal kelishiklar va "lokal" semali ko'makchilarning o'rnini ochib berishga harakat qilinadi. Masalan, ayrim guruhlarning tahlili quyidagicha:

- tabiatga aloqador otlarning lokallashuvi;
- tana a'zolari nomlarining lokallashuvi;
- jonsiz predmet nomlarining lokallashuvi.

Tabiatga aloqador otlarning lokallashuvi

Ma'lumki, tabiatga aloqador otlar ham o'z ichida qator ichki guruhlariga bo'linadi. Ular orasidan osmon jismlari nomlari, o'simliklar dunyosi bilan bog'liq leksemalar, suv va unga aloqador nomlarni quyidagicha tahlil etiladi. Jumladan, **quyosh, oy, yulduz, bulut, ufq** singari osmon jismlari nomlari; **daraxt, gul, shox, butoq, yaproq** tarzidagi o'simlik yoki uning qismlari nomlari; **suv, to'lqin, ummon** kabi suv bilan bog'liq nomlar bosh kelishikda kelganda, lokal belgiga betaraf bo'ladi. Ularning lokallashuvi jo'nalish, o'rin, chiqish kelishigi shakllari yoki "lokal" semali **qarab, sari, tomon, qadar, nari, beri, ichra, uzra** kabi ko'makchilar orqali namoyon bo'ladi. Qiyoslang:

Munajjim tasbehidan to'kilgan donalardek

Osmon uzra sochilib yarqiraydi yulduzlar. (E.Vohidov.)

Yoki:

*Ulug'bek nigoh tikkan **yulduzlarga** boqurman,
Bu kecha ko'k ummoni mash'allarga to'lug'dur.*(E.Vohidov)

Dastlabki parchada berilgan **yulduz** leksemasi narsa-predmetning nomini anglatish bilan belgilanadi, uning tarkibida “lokal” sema mavjud emas. Keyingi misolda esa **yulduzlarga** ifodasi –**ga** jo'nalish kelishigi shakli vositasida lokallasishi kuzatilmoqda.

Ayrim hollarda umumiy “makon” semali **atrof, taraf, tomon** leksemalari ham “lokal” semaga ega bo'lmagan leksemalarni nutq jarayonida lokallashtirishi mumkin:

***Quyosh atrofida** parvonasan, Er,
Sening tegrangda men parvonadurman* (E.Vohidov).

Berilgan she'riy parchada **quyosh atrofida, sening tegrangda** birikmalari “makon” semasiga ega bo'lib, lokal belgini aks ettirmoqda:

***Bulutlarga** yondosh osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.* (A.Oripov)

Ta'kidlab o'tilganidek, o'simlik va uning qismlari nomlarini anglatuvchi birliklarda lokallasuv ancha ko'p uchraydi. Misollarni qiyoslang:

***Yaproqlar** tebrantar she'r maqomiga,
Chechaklar jimgina egib turar bosh* (Zulfiya).

Shuningdek:

***Mening** tongim boshlanar tundan,
Kuzataman g'uncha kulishin.
Tog' ortida boshlanar kundan*

***Yaproqlarda** shabnam so'nishin.*(Zulfiya)

Yaproqlar so'zi bosh kelishikda lokal belgiga ega emas, **yaproqlarda** o'rin kelishigi ko'rsatkichi bilan birga, lokal belgiga ega bo'lmoqda.

***Salqin** saharlarda, **bodom** gulida
Binafsha labida, **erlarda** bahor.*(Zulfiya)

Berilgan misralardagi **bodom gulida, binafsha labida** birliklarining lokallashuvi uchrashi –**da** o‘rin kelishigi vositasida yuz bermoqda.

Qishloq o‘rtasidagi eng baland azamat chinorning och yashil kurtaklari orasida savatdek uya. (S.Ahmad).

Adirdagi lolalar ko‘m-ko‘k maysa uzra chiroy kasb etgan. (A.Kattabekov.)

Gaplarda ishtirok etgan **orasida, uzra** ko‘makchilari **kurtak, maysa** leksemalariga qo‘shilib, “makon” semasi uchun yo‘l ochyapti, natijada leksemalarning lokallashuvi kuzatilyapti.

Ba‘zi hollarda o‘simlik qismi tarzida ishlatiluvchi **to‘nka** leksemasi lokallik ma‘nosi uchun xizmat qilishi mumkin. Masalan:

Chol kattagina to‘nka ustida mung‘ayib o‘tirardi.

Bunday jarayon suv bilan bog‘liq tushunchalar nomlari doirasida ham yuzaga chiqadi. Aslida **suv, to‘lqin, ummon, mavj, dolg‘a** leksemalarida “makon”, “joy” semasi mavjud emas, ularning lokal belgiga ega bo‘lishi, ta‘kidlab o‘tilganidek, nutq jarayoni bilan aloqador bo‘ladi:

suv - suyuqlik turi

suvda (suzmoq) – “lokal” semali birlik

to‘lqin – po‘rtana

to‘lqin yuzida (balqimoq) – “lokal” semali birlik

Masalan, **to‘lqin** leksemasining lokallashuvi:

Kema moviy to‘lqinlar uzra qirg‘oqdan asta uzoqlashib borardi. (A.Kattabekov).

She‘riy matnlarda leksemalarning konnotativ ma‘no uchun xizmat qilishi ham kuzatiladi:

Lim-lim suvdan uzolmayman ko‘z,

To‘lqinlarda tirik hayajon. (Zulfiya.)

Berilgan gapda **to‘lqin** so‘zi “chayqalib turgan suv betidagi **po‘rtana**¹ ma‘nosi bilan reallashyapti, bu o‘rinda ushbu birlik **uzra** ko‘makchisi

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. 247-бет.

hamda o'rin kelishigi vositasida lokal belgiga ega bo'lmoqda. Matndagi **suvdan** so'zi ham chiqish kelishigi orqali lokal belgini namoyon qilmoqda.

Osmon jismlari, o'simlik dunyosi va suv bilan bog'liq nomlarni anglatuvchi bunday birliklar lokallikka betaraf leksemalar ekanligi sababli, "o'rin" semali vositalar asosida lokallik mikromaydonining chegara qismidan joy olmoqda.

Tana a'zolari nomlarining lokallashuvi

Tana a'zolari nomlarini anglatuvchi leksemalarni inson yoki hayvonot olami bilan aloqador nomlar sifatida ajratamiz, biroq bunday farqlanish nutq jarayoni bilan bog'liq bo'ladi.

A.Sobirov so'zlarga xos muhim xususiyatlardan biri sifatida ularning o'zida qanday g'oya tashiyotganligiga qarab alohida semantik (tushuncha) maydonlarni hosil qilish ekanligini qayd etadi va misol tariqasida tana semantik maydoniga birlashuvchi quyidagi so'zlarni keltiradi: "*soch, peshana, quloq, qosh, kiprik, burun, yanoq, ensa* so'zlari **bosh** ; *til, tish, milk, lakluk, tanglay* so'zlari **og'iz**; *ichak, buyrak, yo'g'onichak, jigar* so'zlari **qorin**; *tirnoq, panja, bilak, tirsak, barmoq* so'zlari **qo'l** so'zi bilan bog'liq paradigmatic qatorlarni hosil qilgani holda o'zaro birikib, tana semantik maydoniga birlashadi. Shu bilan birgalikda, sanab o'tilgan so'zlarning barchasida xususiyliklar ham kuzatiladi".¹

Ko'rsatib o'tilgan leksemalarning deyarli barchasi nutqiy vaziyat bilan aloqador holda lokallashishi mumkin. Lokallashishi mumkin bo'lgan leksemalar quyidagicha guruhlab tahlil etiladi:

- inson va hayvonlarga xos bo'lgan tana a'zolari nomlarining lokallashuvi;
- faqat insonlarga xos tana a'zolari nomlarining lokallashuvi;

¹ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент: Маънавият, 2004.- 48-49-бетлар.

- hayvonlar va qushlarga xos tana a'zolari nomlarining lokallashuvi.

Inson va hayvonlarga xos bo'lgan tana a'zolari nomlari leksema sifatida o'z mazmuniy mundarijasida umumiylik kasb etsa-da, nutq jarayonida (lokallashuv jarayonida) tegishlilik nuqtai nazaridan reallashadi. Ularga xos umumiy nomlar sifatida **tana, gavda, bosh, kalla, quloq, ko'z, burun, og'iz, tish, bo'yin, oyoq** singarilarni keltirib o'tish mumkin. Masalan, **bosh** leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday ta'riflanadi:

Bosh – 1.Tananing bo'yindan yuqorigi (odamda) yoki oldingi (hayvonda) qismi; kalla¹

Misollarga e'tibor bering:

Hurpayib turgan savatdek

Soch aning boshindadir. (E.Vohidov.)

Qo'zichoqning boshida ozgina qoramtir eri bor ekan (A.Kattabekov).

Birinchi gapdagi **boshindadir** so'zi orqali insonga xos tana a'zosi, ikkinchi gapdagi **boshida** so'zi orqali hayvonga xos tana a'zosi haqida so'z bormoqda. Har ikki gapda ham lokallikka betaraf bo'lgan **bosh** so'zining o'rin kelishigi vositasida lokallashuvi kuzatilmoqda.

-Voy, shunaqa demaysizmi, amaki,- dedi-yu, mening boshimdagi do'ppini oldi (O'.Hoshimov).

Bosh leksemasi **-dagi** affiksi orqali do'ppi leksemasining aniqlovchisi sifatida kelmoqda va ayni zamonda, bu leksema tarkibidagi "o'rin" semasi ham saqlanmoqda.

Elka leksemasi ham xuddi shu kabi holatlarni aks ettiradi:

Olaquroq paxtali to'nlar elkadan tushgan(S.Ahmad.)

Yoki:

Olahakka bir sakrab qizil govmishning elkasiga qo'ndi (S.Anorboev.)

Dastlabki misolda **elka** so'zi inson uchun xos tana a'zosi sifatida, keyingi misolda esa hayvon uchun xos bo'lgan tana a'zosi sifatida ko'zga

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ҳом. М.: РЯ, 1981. – 136-бет.

tashlanmoqda. Ularning lokallashuvi chiqish kelishigi (*elkadan*) hamda jo'nalish kelishigi (*elkasiga*) ko'rsatkichlari yordamida yuzaga chiqmoqda.

Faqat insonlarga xos tana a'zolari nomlarining lokallashuvi o'zbek tilida badiiy adabiyotlarda ancha ko'p uchraydi. Bunday leksemalar qatoriga **qosh, lab, yanoq, yuz, qo'l, kaft** tarzidagi birliklar kiradi.

A.Sobirov bu xususda "muayyan qism (meronim)lardan tashkil topgan butunnom (xolonim) muayyan ehtiyojga qarab turib boshqa bir xolonim (butunnom)ning meronimi (bo'laknomi)ga aylanib qolishi mumkin.

Masalan, *qo'l, oyoq, bosh* xolonimlari quyidagi meronimlardan tashkil topgan:

1. Qo'l – tirnoq, barmoq, kaft, bilak, tirsak, elka.
2. Oyoq – tirnoq, kaft, tovon, to'piq, ilik, tizza, boldir, son.
3. Bosh – soch, qosh, qovoq, kiprik, ko'z, quloq, burun, og'iz, peshona, ensa, iyak.

Uchala leksema o'z navbatida tana xolonimi uchun meronim vazifasini o'taydi", - deb ta'kidlaydi.¹

O'zbek tilidagi inson tana a'zolari nomlarining qo'llanilish xususiyatlari haqida qator ishlar mavjud bo'lib, ular ichidan Z.Mirahmedova hamda D.Bozorovalarning ishlarini alohida ko'rsatish mumkin.² Xususan, Z.Mirahmedova odam tanasining tashqi va ichki qismlarini bildiruvchi atamalarni guruhlaydi.³ Ular qatoriga **bosh, ko'z, elka, oyoq** kabilarni ham kiritadi. Masalan, faqat inson uchun xos tana a'zolari nomining lokallashuvi:

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,

Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan (Zulfiya).

Berilgan parchada **yuzidan** so'zining lokallik belgisiga ega bo'lgan chiqish kelishigi shakli orqali lokallashishi kuzatilmoqda. Lokallikka betaraf

¹ Собиров А. Кўрсатилган асар, 143-бет.

² Базарова Д.Х. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках: Автореф.дисс.... канд. филол.наук. Ташкент, 1967; Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол.фанл.номз....дисс.автореф. Тошкент, 1994.

³ Бу ҳақда қаранг: Собиров А. Кўрсатилган асар, 26-бет.

bo'lgan **yuz** leksemasi –**dan** chiqish kelishigi shakli qo'shilgunga qadar “lokal” semaga ega bo'lmagan edi.

*Kumushday **sochida** jilvalanar nur,*

Ko'zida yoshlikning so'nmas yolqini.(Zulfiya)

Sochida, ko'zida so'zlari ham lokallik belgisiga ega bo'lib, ularning lokallashuvi –**da** o'rin kelishigining ta'siri ko'zga tashlanmoqda.

*Uning ko'zlarida jiddiy o'y, **lablarida** ma'nodor, ingichka tabassum sezilar edi.(Oybek)*

Gapdagi **ko'zlarida, lablarida** so'zlari “ lokal” belgiga nutq jarayonida ega bo'lishi tufayli mikromaydonning periferiyasidan joy oladi.

She'riy matnlarda “lokal” semali ko'makchilarning ham o'ziga xos o'rni bor. Masalan:

Na bo'lg'ay bir nafas men ham,

***Yanog'ing** uzra xol bo'lsam (H.Olimjon).*

Ko'rinadiki, ushbu baytda **uzra (ustida)** ko'makchisi **yanog** leksemasining lokallashuvida vosita vazifasini bajarishi kuzatilmoqda.

Ayrim hollarda inson tana a'zolari nomlarini anglatuvchi ushbu birliklar ko'chma ma'noni ifodalashi va “lokal” semaga ega bo'lishi mumkin:

***Manglayda** porlagan toleing – quyosh (G'.G'ulom).*

Ba'zan mavhum ma'noli birliklar ham ma'lum maqsadga yo'naltiriladi:

Nechuk qizardi yuzing qip-qizil anor yanglig'

***Dilingda** o'ynoqi bir sharpa o'tdimi*

shoshilish? (CHo'lpon).

Yoki:

*Mening tongim **qalbimda** otar,*

O'ydan, ko'zdan haydab zulmatni (Zulfiya).

Hayvonlar va qushlar uchun xos bo'lgan tana a'zolarining nomlari qatorida **shox, tuyoq, dum, tumshuq, qanot** kabilarni keltirish mumkin. Ushbu birliklar ichida **shox, tuyoq, xartum (fil), o'rkach (tuya)** leksemalari

hayvonlar uchun xoslangan, **tumshuq, qanot** leksemalari qushlar uchun xoslangan tana a'zolari sifatida bo'linadi. Ularning barchasi xuddi yuqoridagi leksemalar singari nutq jarayonida lokallashadi.

*Ona tovuq mittigina jo'jalarini **qanoti ostiga** yashirdi.*

*Bolakay tuyaning **o'rkachi ustida** ashulani baland qo'yib kelayotgan edi.(E.Rahim).*

Qanot, o'rkach singari lokallikka betaraf leksemalar berilgan matnlarda **ostiga, ustida** ko'makchilari yordamida "lokal" belgiga ega bo'lib, "makon" semasini reallashtiryapti va mikromaydonning chegara qismidan joy olyapti.

A.Sobirov o'z risolasida yirtqich qushlar uchun xos bo'lgan asos belgi haqida, ularni shakllantiruvchi mikromaydon haqida shunday to'xtaladi:

*"Yirtqich, **tumshuq, cho'qimoq, chovut solmoq, o'limtik, sho'ng'imoq, o'lja** kabi leksemalar yirtqich qushlar mikromaydonining yadrosini tashkil qiladi".¹*

Ayrim hollarda yuqoridagi leksemalar ko'chma ma'no ifodasi uchun ham xizmat qiladi:

Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,

***Qanotida** kumush diyori(A.Oripov).*

Jonsiz predmet nomlarining lokallashuvi

Jonsiz predmet nomlari tarkibida shartli ravishda transport, uy jihozlari, idishlar va kiyim-kechak nomlari ajratiladi.

Transport nomlari tarkibiga **mashina, samolyot, tramvay, trolleybus, traktor, poezd, avtomobil, arava, izvosh** singarilar mansub bo'lib, ularning jo'nalish, o'rin, chiqish kelishigi ko'rsatkichlari yoki "lokal" semali ko'makchilar vositasida lokallashuvi kuzatiladi.

¹ Собиров А. Ўша асар, 99-бет.

*Direktor gapini tugatdi-yu, shoshib **mashinaga** chiqdi, hech kimga e'tibor qilmay yo'lga tushdi.*(H.G'ulom).

***Trolleybusda** odam tirband, havo issiqligidan nafas olish ham og'ir edi* (S.Anorboev).

*Qaysi bir **aravada** o'tin: g'o'zapoya, yantoq yoki xoda va to'ngak.*(I.Sodiqov)

Berilgan gaplarda **-ga, -da** “lokal” semali kelishiklar transport nomlarini anglatuvchi birliklarning lokallashuviga yo'l ochyapti.

Ma'lumki, qadimda transport vositasi sifatida turli hayvonlar – ot, eshak, tuya singarilardan ham foydalanilgan. SHuning uchun badiiy asarlarda ma'lum voqea-hodisalarning ishonarliligi, hayotiyligini ta'minlash uchun ular bilan bog'liq jarayonlar aniq ko'rsatilgan. YUqorida hayvonlar nomlarining lokallashuvi kuzatildi, yaqin yillarga qadar ot, eshak, tuya singari hayvonlar izvosh va arava kabi transport vositasi sanalgan. SHunga ko'ra jonsiz predmet nomlari sanalmasa-da, ushbu hayvon nomlarini transport turi tarzida hisobga olingan. Masalan:

*Olibsotar **eshakda** o'tirganicha hammollar aytgan yo'ldan salgina hadiksiragan bo'lib, nima deyishini bilmay o'ylanib qoldi.*(I.Sodiqov)

Keltirilgan misollardagi **aravada, eshakda** so'zlari o'rin kelishigi orqali lokallashmoqda. Ayni paytda, har ikki leksema transport turi sifatida ma'no anglatyapti.

Biroq, ilmiy manbalarda o'rin, jo'nalish va chiqish kelishigi shaklida kelayotgan har qanday birliklar “makon” semasiga ega bo'lmasligi ko'rsatilgan. Xususan, transport nomlari sanaluvchi yuqoridagi birliklar ham o'rin holi yoki vositali to'ldiruvchi vazifasiga ko'ra ajratiladi. E'tibor bering:

mashinada kelmoq - mashinada o'tirmoq

samolyotda bormoq - samolyotga chiqmoq

Birikmalardagi **kelmoq, bormoq** so'zlari bilan sintagmatik munosabatga kirishgan **mashinada, samolyotda** so'zlari “lokal” semaga betaraf bo'lib, **o'tirmoq, chiqmoq** harakat ifodalovchi so'zlar bilan aloqaga

kirishgan bu so'zlar "lokal" semali kelishiklar yordamida shu belgiga ega bo'lmoqda.

Uy jihozlari nomlarini bildiruvchi leksemalarning lokallashuvi ham tez-tez kuzatiladi. Ularga **gilam, sandiq, ko'rpa, to'shak** singari an'anaviy jihozlar nomlarini; **divan, stol, stul, kreslo, televizor, xolodilnik, shkaf** kabi zamonaviy jihozlar nomlarini kiritish mumkin. Ushbu jihozlarning barchasi muayyan narsalarning joylashtirilishi, o'tirish, yotish, turish yoki yurishga mo'ljallanganligi sababli, "o'rin" semali kelishiklar yoki ko'makchilar vositasida lokallashuvi hisobga olinadi.

Darparda orqasida tokchadagi chiroq shu'lasi uy ichidagi ko'rpada yotgan Hanifaga tushib lipillab turardi (I.Sodiqov).

Ushbu gapda **ko'rpada** so'zidagi **-da** o'rin kelishigi affiksi lokallashuv uchun yo'l ochyapti.

Kampir javray-javray uy ichida sochilgan matolarni sandiqqa joylay boshladi (S.Ahmad).

Sandiqqa so'zida **-qa (-ga)** jo'nalish kelishigi affiksi o'rin ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Nazokatxon stol ustiga xolodilnikdan muzdek sharbat keltirdi (P.Tursun).

Bu o'rinda **ustiga** ko'makchisi va chiqish kelishigi affiksi **-dan** ko'rsatkichi **stol, xolodilnik** leksemalarining lokallashuvi uchun asos bo'lyapti.

Ro'zg'or buyumlari nomlarini bildiruvchi **paqir, chelak, tog'ora, lagan, kosa, piyola, choynak, o'choq, tandir, mo'ri, savat** kabi qator leksemalar narsa-predmetning nomi sifatida ishlatiladi. Aslida bunday birliklar lokallikka betaraf bo'lib, o'rni bilan ularning lokallashishi kuzatiladi. Masalan:

Bir sazan paqirdan sapchib chiqib, shalop etib erga tushdi (I.Rahim).

Oshpaz mantilarni tugib bo'lgach, qasqonga joylay boshladi (SH.Rashidov).

Paqirdan, qasqonga soʻzlari kelishik affikslari yordamida lokallashib, mikromaydonning chegara qismidan joy olishi kuzatilmoqda. SHuningdek:

- *Voy, moshing oʻlsin!* - ***“qora ammam” tandirga shoʻngʻirkan, savat burchagida turgan jajji kulchaga imo qildi.*** – *Avval oʻzing eb ol* (Oʻ.Hoshimov).

Kiyim-kechak va uning qismlari nomlarini bildiruvchi leksemalar ham lokallashuvi mumkin. Jumladan, ***koʻylak, roʻmol, kamzul, yaktak, shim, kofta, doʻppi; eng, yoqa, etak, choʻntak*** singarilar nutq jarayonida juda koʻp uchraydi.

Mergan chol yaktagiga qoʻngan changni qoqib-qoqib, yoʻlida davom etdi (A.Kattabkov).

Gʻaybarov ***choʻntagidan*** sigarani chiqarib asta labiga bosdi (M.Muhammaddoʻst).

Dastlabki misoldagi ***yaktagiga*** soʻzida joʻnalish kelishigi lokallikka betaraf ***yaktak*** leksemasiga qoʻshilib, lokallashuv uchun yoʻl ochmoqda. Keyingi misolda esa ***choʻntagidan*** predmetning chiqish oʻrnini ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Har ikkisi ham lokallik mikromaydonining periferiyasidan joy olishi kuzatilyapti.

Umuman, oʻzbek tilidagi tahlil obʻekti sifatida ajratgan qatorga mansub boʻlmagan har qanday real predmetlar ham muayyan vositalar yordamida lokallashuvi mumkin.. Shu asosda oʻzbek tilidagi konkret tushunchalar nomlarini oʻrganish kutilgan samarani beradi.

Lokallashgan sifatlar

Oʻzbek tilshunosligida lokallik belgisi bilan farqlanuvchi lingvistik birliklar turli nuqtai nazardan tadqiq obʻekti boʻlib kelmoqda. Yaqin yillarga

qadar ular grammatik planda o'rganib kelindi.¹ Lokallik belgisi asosida birlashgan ifodalar muayyan mikromaydonni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Shu bilan birga, lokallik mikromaydonining periferiyasiga joylashuvchi ayrim birliklar tilda muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, sifat turkumiga mansub, xususan, "o'rin-joy" semali belgi nomlari ham lokallik mikromaydoni yadrosini tashkil etuvchi elementlarning valentligini qamrab oladi.

Valentlik nazariyasining mukammallashishida G.Xelbig o'z nazariy qarashlari bilan katta rol o'ynaydi. U nemis tili materiallari asosida fe'lning valentlik modellarini ishlab chiqdi va "Nemis tilidagi fe'llar valentliklari va distributsiyasi lug'ati"ni tuzdi.²

"Bu modellar dastlab faqat bir so'z turkumi – fe'l asosida belgilangan bo'lsa, 70-yillarda (o'tgan asrning 70-yillarida –B.Q.) valentlik modellarini faqat fe'l asosidagina emas, balki boshqa so'zlar asosida ham belgilash mumkinligi ma'lum bo'ldi".³

O'zbek tilida "o'rin-joy" semali belgi ifodalovchi leksemalar talaygina. Bunday leksemalar "o'rin-joy", "makon" semalarini nutq jarayonida yuzaga chiqaradi, chunki makon munosabatini yuzaga chiqaruvchi birlik otlar bilan o'zaro munosabatga kirishuvchi mazkur sifatlarning ma'nolari tarkibida "o'rin" semasi mavjud. Bu sema chegara sema sifatida leksema bog'lanayotgan so'z ma'nolari tarkibidagi markaziy ("lokallik") semasiga ishora qilishi bilan xarakterlanadi. "Lokallik" chegara sema sanalgan leksemalarni turlicha nuqtai nazardan tasniflash mumkin:

"Umumiy makon" semali belgi ifodalovchi leksemalar. Ushbu leksemalar "O'zbek tili grammatikasi"da o'rin va paytga munosabat

¹ Убаева Ф. Хол категорияси. Тошкент: Фан, 1971. – 19-27-бет; шу муаллиф. Ўрин холи. – Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1969, 3-сон; Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 118-119-бет; 214-215-бет; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент: Фан, 1985. – 116-121-бет ва бошқ.

² Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. М., 1978.- С.144-145; яна қаранг: Нурмонов А Гап ҳақидаги синтактик назариялар. Тошкент,1988.- 36-бет.

³ Нурмонов А. Кўрсатилган асар, 36-бет.

bildirishda qo'llanuvchi **-gi, -ki, -qi** affikslari turli so'z turkumlaridan sifat yasashi, **tashqi, ichki, narigi, berigi, ostki, ustki, pastki, sirtqi** kabilar o'ringa munosabat, xoslik bildirishi ta'kidlanadi.

*Azizboyning **tashqi** hovlisi juda keng edi. (Sh.G').*

Berilgan gapla **tashqi** leksemasi muayyan o'rin-joyga nisbatan umumiy xoslikni bildiriyapti.

Yuqoridagi qatorni tashkil etuvchi leksemalar semalari doirasida "belgi" arxisemasi bilan birgalikda "o'rin-joy" semasi ham kuzatiladi.

Hajm bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar: keng, tor, ulug'vor, katta, hashamatli, mo''jaz va boshqalar.

*Mir Arab madrasasiga o'xshash **katta** binolarning ta'minlanishini nazorat qiladi. (T. Po'latov)*

"O'rin-joy" semasi yuqoridagi belgi ifodalovchi leksemalarda yaqqol ko'zga tashlansa-da, **keng, tor** leksemalari tarkibida faqatgina o'ringa xoslikning o'zigina kuzatilmaydi, ularda mavhum tushunchalarga nisbatan ham hajm belgisiga nisbatan ishora seziladi. Jumladan, **keng fe'l, tor ko'ngil** singari birikmalarda ma'lum darajada "hajm" semasi ko'zga tashlanadi. Biroq **mo''jaz, hashamatli** leksemalari tarkibida "hajm" semasi bilan birga "o'rin-joy" semasi aniq namoyon bo'ladi.

Masofa-o'lchov bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar: uzun, qisqa, yaqin, uzoq, yiroq, poyonsiz, olis, bepoyon va boshqalar.

***Uzun, keng** ko'chada hech zog' yo'qligini ko'rdi-yu, hayron bo'lib bo'shashdi. (T. Po'latov)*

Keltirilgan leksemalar orasida **uzun, qisqa** belgi anglatuvchi leksemalar turli predmet, ba'zan harakat anglatuvchi ifodalarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Qatordagi **poyonsiz, bepoyon, olis, yaqin, yiroq, uzoq** singari belgi ifodalovchi leksemalar aksar hollarda lokallik mikromaydonining yadrosidan joy oluvchi leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Boshqacha aytganda, "belgi" arxisemasi doirasidagi ushbu qator birliklari lokallik belgisiga egaligi bilan farqlanadi: **olis manzillar, bepoyon o'rmonlar.**

Yaqin, uzoq leksemalari ayrim hollarda shaxslar o'rtasidagi insoniy aloqalarni ham ifodalashga ishora qiladi: **yaqin do'st, uzoq qarindosh**. Bunday hollarda ham leksemaning semalari tarkibidagi masofaga aloqadorlik e'tiborga olinishi zarur.

Harorat bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar: salqin, soya-salqin, so'lim, issiq, sovuq, qaqroq.

Salqin saharlarda uyqudan turgan...(H. Olimjon)

Qator tarkibidagi **issiq, sovuq** singari leksemalar lokallik bildiruvchi ifodalardan boshqa birliklar uchun ham xoslanishi mumkin: **issiq suv, sovuq havo** kabi. Ushbu leksemalar tarkibida o'rin-joy haroratiga ishora ham kuzatiladi:

Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketdilar.

Salqin, qaqroq, so'lim tarzidagi belgi ifodalovchi leksemalar semalari tarkibida o'rin-joyga xoslik kuzatiladi. Shunga ko'ra, ular lokallik mikromaydoni birliklarining belgi valentligini to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Keltirilgan ifodalar tarkibidagi **qaqroq** leksemasining mazmuniiy mundarijasida muayyan haroratning oqibatida yuzaga kelgan suvsizlikning ifodasiga ham ishora mavjud.

Shakl-ko'rinish bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar: tekis, o'nqir-cho'nqir, o'ydim-chuqur, baland-past, tizma, pastak. Berilgan qatordagi **o'nqir-cho'nqir, o'ydim-chuqur, baland-past** singarilarda o'ringa munosabat bilan birga hajm yoki miqdorga ishora ham ko'zga tashlanadi.

Iqtisodiy holat bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar: dang'illama, hashamatli, xarob, obod kabi. Yuqorida hajm bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar tarkibida ham **hashamatli** leksemasini keltirgan edik. Ushbu leksemaning semalari tarkibida "belgi", "hajm", "katta", "qimmatbaho" singari semalar mavjud. Demak, **hashamatli** leksemasi "hajm" semasi bilan yuqoridagi qatordan, iqtisodiy holatga ishora qiluvchi "qimmatbaho" semasi bilan keyingi qatordan joy oladi.

Xarob, dang'illama leksemalari esa o'rin-joy ma'nosini ifodalovchi leksemalar bilan birga, umumiy iqtisodiy holatga ham ishora ifodalagani sababli turli maqsadlarda ushbu birliklardan foydalanish mumkin: ***xarob kiyim, dang'illama to'y.***

Mavjudlik bildiruvchi belgi ifodalovchi leksemalar: ***panjarali, sersuv, g'ishtin, oynavand, toshloq, sermeva, serhosil, ko'p xonali (g'ishtin uy, panjarali maktab).*** Ushbu ifodalar doirasidagi ***sersuv, sermeva, serhosil*** leksemalari "mavjudlik" semasi bilan birga o'z ichida "miqdor" semasini ham umumlashtiradi: ***sermeva bog', serhosil er.***

"Mavjudlik" semasiga ***kimsasiz, huvillagan, bo'm-bo'sh*** kabi belgi ifodalovchi leksemalarning "yo'qlik" semasini zidlash mumkin. Ayrim hollarda ushbu birliklar konnotativ ma'no ifodasi uchun ham xizmat qiladi: ***huvillagan ko'ngil.*** Biroq bunday hollarda ham o'ringa munosabat ishorasi sezilib turadi.

O'zbek tilida o'rin-joy ifodalovchi leksemalarning belgi valentligini to'ldirish uchun ***shinam, botqoq, toyg'oq, sirpanchiq, yorug', charog'on, xushmanzara, borsa-kelmas, lalmikor*** singari qator leksemalar xizmat qiladi. Ushbu birliklar ham o'z tarkibida "o'rin-joy" semasini birlashtiradi.

Umuman, yuqoridagi singari belgi ifodalovchi leksemalar lokallik mikromaydoni doirasidagi yadroviy birliklarning belgi valentligini to'ldirishga xizmat qiladi.

Lokallashgan fe'llar

L.M.Vasilev fe'l mazmuniy mundariyasi to'g'risida fikr yuritir ekan, bu turkumga xos so'zlarning grammatik kategoriya va shakllarining xilma-xilligi, shuningdek, fe'l paradigmatic va sintagmatik aloqalarga boyligi bilan ajralib turishini ta'kidlagan edi.¹

¹ Васильев Л.М. Семантика русского глагола. М.: ВШ, 1981.- С.34.

Haqiqatan ham, fe'llar gapning tuzilish asosini belgilaydi. Funktsional-semantik maydon doirasida fe'l leksikasi, uning boshqa so'z turkumlarini mantiqan bog'lash imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega.¹ Shunga ko'ra, fe'l turkumi bilan bog'liq tadqiqotlar ularning valentligiga aloqador holda maydonga kelganligi tabiiy.

“Fe'lning eng muhim xususiyati shundaki, u gap semantik strukturasida markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun u faqat leksikologlarni emas, balki sintaksistlarning ham diqqat-markazida turadi”.²

Har qanday gap predikat va uning argumentlari (aktantlari) munosabati birligi sifatida qaralar ekan, predikat va uning argumentlari(aktantlari) o'rtasidagi sintaktik munosabatlar tushunchasi hozirgi tilshunoslikda morfologik munosabatlar tiplarning (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) tahlili orqali emas, balki valentlik tushunchasi orqali belgilanadi. Sintaktik aloqa reallashgan valentlik sifatida qoraladi.³

R.Rasulovning ta'kidlashicha, “ valentlik, bir tomondan, jonli nutqni – so'zlar orasidagi sintaktik aloqani, so'zlarning o'zaro birikuvini ta'minlaydi, ikkinchi tomondan, so'zlar orasidagi sintaktik aloqada, so'zlarning birikuvida reallashadi, ta'sir qiluvchi “kuch”ga aylanadi. Binobarin, sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. Valentlik – ichki imkoniyat (potentsiya) bo'lsa, sintaktik aloqa uning ro'yobga chiqishidir”.⁴

Valentlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda so'zning boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirisha olish imkoniyati sifatida belgilanadi.⁵ Tilshunoslikka dastlab bu tushunchani S.D.Katsnelson olib kirdi (1948). Frantsuz tilshunosi L.Tener esa *valentlik* atamasini G'arbiy Evropa tilshunosligiga birikuvchanlikni belgilash uchun kiritib, uni faqat fe'l

¹ [http://virlib.eunnet.net/proceedings/?base=mag/0031\(01_07-](http://virlib.eunnet.net/proceedings/?base=mag/0031(01_07-2004)&xsl=showArticle.xslt&id=a16&doc=../content.jsp)

2004)&xsl=showArticle.xslt&id=a16&doc=../content.jsp -- 48.0 Kb -- 28.08.2006

² Васильев Л.М. Кўрсатилган асар, 36-37-бетлар.

³ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. Тошкент, 1988.-34-бет.

⁴ Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа // Ўзбек тили ва адабиёти.- 1992.- № 5-6.- 38-бет.

⁵ Лингвистический энциклопедический словарь. Стр.79.

turkumiga nisbatan qo'lladi. U valentlikka fe'lga bog'lanadigan aktantlar soni orqali yondashadi.¹

L.Tener o'zining grammatikasida gapni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida gapning struktur asosi sifatida fe'lga tayandi.²

Valentlik tushunchasi keyinchalik fe'ldan boshqa so'z turkumlariga nisbatan ham tatbiq qilina boshladi. Biroq valentlik bilan bog'liq deyarli barcha talqinlarda fe'l turkumining etakchiligi saqlanmoqda.

“Fe'l valentligi nazariyasi gapning verbsentrik kontseptsiyasi natijasidir. Bunga ko'ra, gap strukturasi predikat (ko'p hollarda fe'ldan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilar uchun yo'l ochadi. Gapning barcha komponentlari fe'l-predikat valentligiga munosabatiga ko'ra unga bog'liq (tobe) komponentlarga (ular turli terminlar bilan nomlanadi: aktantlar, argumentlar, to'ldiruvchilar, partnerlar, komplementlar va boshqalar) va erkin komponentlarga (ular ham turlicha nomlanadi: sironstantlar, erkin kengaytiruvchilar, hollar, ad'yunktlar) bo'linadi”.³

“Lokal” semali fe'llarning barchasi o'rin valentligiga ega. Bu xususan o'zbek tilshunoslaridan I.Qo'chqortoev, N.Mahmudov, R.Rasulov, M.Mirtojiev, O'.Sharipova, S.Muhamedova kabilarning etarlicha qarashlari mavjud.⁴ Xususan, O'.Sharipova o'rin valentligi, uning o'ziga xos xususiyatlari borasida o'z ishida birmuncha to'xtalib o'tadi va shunday fikr bildiradi:

“O'rin valentligi “sath”, “uy-joy”, “korxona”, “er”, “suv havzasi” kabi uzvli o'rin-joy ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanadi”.⁵

¹ Лингвистический энциклопедический словарь. Стр.80.

² Нурмонов А. Ўша асар, 35-бет.

³ Нурмонов А. Ўша жойда.

⁴ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги.- Тошкент: Фан, 1977; Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия.- Тошкент: Ўқитувчи, 1984; Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари.-Тошкент:Фан, 1989; Миртожиев М. Гап тузилиши ва маъносининг марказий бўлаги масаласи// Ўзбек тили ва адабиёти. – 1998, №4; Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол.фанл.номз....дисс.автореф.. Тошкент,- 1996; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валнтлиги: Филол.фанл.номз....дисс.автореф.. Тошкент.- 1999 ва бошқалар.

⁵ Шарипова Ў. Кўрсатилган асар, 16-бет.

O'zbek tilida "lokal" belgiga ega bo'lgan fe'llar anchagina bo'lib, ular tarkibida **bormoq, kelmoq, jo'namoq, ketmoq, sanchmoq, bosmoq, sepmoq, ko'chmoq, siljimoq, o'tirmoq, yurmoq, etmoq, yashamoq, yotmoq** fe'llari ajratiladi.

Harakatning bajarilish o'rni bilan bog'liq bo'lgan ushbu fe'llarning aksariyati yo'nalishga aloqador. O'zbek tilshunosligida ayni shu fe'lga xos lingvistik xususiyatlar S.Muhamedova tomonidan maxsus tadqiq etilgan.¹ U o'z ishida yo'nalma harakat fe'llarining predikativligi va valentligi to'g'risida fikr yuritadi hamda o'zbek tilidagi yo'nalma harakat fe'llarining o'rin valentligi ham zaruriy valentlik hisoblanishini alohida ta'kidlab o'tadi.²

"Lokal" semali fe'llar o'z ichki uzvlari asosida, shuningdek, ular bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi, ularning o'rin valentligini to'ldiruvchi vositalarning ko'rsatkichlari asosida bir necha kichik guruhlariga ajratilishi mumkin. Avvalo, ularning holat va harakat fe'llari sifatida bo'linishini e'tiborga olish joiz.³

"Lokal" semali holat fe'llariga **turmoq, o'tirmoq, yotmoq, yashamoq** singarilar mansub bo'lib, ularda muayyan bir o'rin belgisi kuzatiladi. Masalan:

Navoiy kunduzlari aksar vaqt chodirning bir tomonini ko'tarib qo'yadi-da, quyoshda balqib yotgan yashil dalani, uzoq tepa va adirlarni tomosha qilib o'tiradi (Oybek).

Berilgan gapning o'rin valentligi **chodirda** so'zi orqali namoyon bo'lmoqda. Garchi ushbu gapda **o'tiradi** fe'lining o'rin valentligini ifodalovchi so'z aniq kuzatilmayotgan bo'lsa-da, undan mantiqan (*chodirning bir tomonini ko'tarib*) joy tushunchasi anglashilib turibdi.

Harakat fe'llarining o'zi bir necha tomondan guruhlanadi:

- harakatning ko'chish belgisiga ko'ra;

¹ Мухамедова С.Х. Кўрсатилган асар.

² Мухамедова С.Х. Кўрсатилган асар. 15-бет.

³ Ўзбек тилининг ҳолат феъллари ва унинг валентликлари ҳақидаги маълумотлар юқорида келтирилган Р.Расуловнинг монографиясида мавжуд.

- harakatning turiga ko'ra;
- harakatning yo'nalish o'rniga ko'ra .

Harakatning ko'chish belgisiga ko'ra ma'lum joyda sodir bo'luvchi va ko'chuvchi harakat sifatida ajratiladi. Ma'lum bir nuqtada sodir bo'luvchi harakat fe'llariga ***o'rnashmoq, sanchmoq, engashmoq, kavlamog unmoq, yiqilmoq*** singarilar kiritiladi.

Basharasiga tushgan qamchi zarbidan gursillab erga yiqildi (Mirmuhsin).

Gapdagi ***yiqilmoq*** fe'lining o'rin valentligi “makon” semali ***erga*** oti yordamida to'ldirilyapti.

“Ko'chish” belgili harakat fe'llari harakatning turi, yo'nalishi yoki darajasiga ko'ra farqlanadi. Jumladan, harakat turiga ko'ra quyidagi fe'llarni ko'rsatish mumkin: ***sudralmoq, yurmoq, chopmoq, uchmoq, suzmoq, oqmoq*** tarzida. Bunda ularning o'rin belgisi ajratiladi, ya'ni:

<i>yurmoq, sudralmoq, chopmoq</i>	- erda
<i>uchmoq, qo'nmoq</i>	- havoda
<i>oqmoq, suzmoq</i>	- suvda

Masalan:

Suyaklari ustida qarg'a-quzg'unlar uchib yurishibdi,- dedi boshini chayqab.(I.Sodiqov.)

“Ko'chish” semali harakat fe'llari harakatning yo'nalishi asosida ham farqlanishi mumkin. S.Muhamedovanning ta'kidlashicha, “lokalis aktanti agensning yo'nalma harakati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. U yo'nalma harakatning bajarilish o'rini bildiradi”.¹

U yo'nalma harakat fe'llarini boshlang'ich va oxirgi nuqta valentligi sifatida ajratadi va bunday farqlash Yu.D.Apresyandan olinganligini ko'rsatadi.²

¹ Мухамедова С.Х. Кўрсатилган асар, 15-бет.

² Мухамедова С.Х. Ўша асар, 17-бет.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda, harakatning boshlanish, tugash nuqtalari bilan birga, unga betaraf bo'lgan fe'llarni ham ajratishni lozim topdik.

Harakatning boshlanish o'rnini anglatuvchi fe'llarga asosan chiqish kelishigidagi so'zlarni talab qiluvchi "lokal" semali fe'llarni keltirib o'tish mumkin: **chiqmoq, ketmoq, bormoq, jo'namoq, qochmoq, ko'chmoq, haydamoq.**

Harakatning tugash o'rnini bildiruvchi "lokal" semali fe'llar jo'nalish kelishigi shakli bilan reallashadi: **kelmoq, yaqinlashmoq, kirmoq, etmoq, qo'nmoq** kabi.

Ko'rinadiki, **qo'nmoq** fe'li harakat turi nuqtai nazaridan ham, harakatning tugash nuqtasi jihatidan ham ajratilishi va har ikki kichik qatorga joylashishi mumkin.

"Lokal" belgisi, "ko'chish" semali, shu bilan birga, harakatning joyga ta'siri orqali farqlangan fe'llarga **tekislar, tozalalar, obod qilmoq, buzmoq, vayron qilmoq** fe'llari mansub. Ushbu fe'llar yuqoridagi barcha qator fe'llaridan muayyan joyga nisbatan "ta'sir" semasi bilan farq qiladi. Shu bilan birga, ulardagi harakat natijasi nuqtai nazaridan ham "ijobiy" yoki "salbiy" semali harakatlar farqlanadi:

"ijobiy" semali fe'llar: **tekislar, tozalalar, obod qilmoq**

"salbiy" semali fe'llar: **buzmoq, vayron qilmoq**

Masalan:

Qip-qizil sahrani obod qilib, ko'm-ko'k bog' yaratishdi-ya, azamatlar! (S.Abduqahhor.)

O'zbek tilida harakatning tezlik darajasi asosida ham qator fe'llar ajratiladi:

sudralmoq - harakatning sekinligi

yurmoq - me'yordagi harakat

yugurmoq - tez harakat

oyog'ini qo'liga olmoq - juda tez harakat

Lekin harakat darajasi uning o'rin belgisiga u qadar aloqador emas, shu sababli bu fe'llar tarkibidagi "lokal" semani farqlash bilan kifoyalandik.

Yuqoridagi tahlillar, misollardan ko'rinib turibdiki, fe'llarning o'rin valentligi asosan "lokal" semali ko'makchilar va "lokal" belgiga ega bo'lgan kelishiklar - **-da, -ga, -dan** orqali namoyon bo'ladi.

S.Muhamedova o'z tadqiqotida **kezmoq** va **o'tmoq** fe'llarining o'ziga xos ma'no xususiyatlariga to'xtaladi: "*Shukurjon qishloqda bir kun turdi, paxtazorlarni kezdi* (S.Ahmad).

Ushbu gapdagi **paxtazorlarni** so'zi **kezmoq** fe'lining ob'ekt aktanti deb qaralishi ham mumkin, lekin mantiqan bu so'z YHF (yo'nalma harakat fe'llari –B.Q.) ning o'rin valentligini namoyon etuvchisidir".¹

Demak, ushbu fe'l garchi lokal belgiga betaraf bo'lgan vositalar yordamida ham o'rin valentligini to'ldirish imkoniga ega. Bu holat **kezmoq** fe'lining ma'no imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi. Uning sinonimi hisoblangan **sayr etmoq** fe'li xususida ham shunday xulosa chiqarish mumkin.

O'zbek tilida fe'lning grammatik va lug'aviy xususiyatlari to'g'risida o'nlab tadqiqotlar yaratilgan, biz ushbu ishimizda faqat "lokal" semali fe'llarning nutqiy voqelanishi masalasiga qisqacha to'xtalib o'tdik.

O'zbek tilidagi "lokal" semali harakat fe'llari harakatning ko'chish belgisi, harakatning turi, harakatning yo'nalishi asosida ma'lum ichki guruhlarni tashkil etadi.

O'zbek tili struktur birliklarini kontseptual nuqtai nazardan o'rganish lingvistik maydonlarni belgilash uchun qulay imkoniyat yaratadi. Lingvistik maydon lingvistik paradigmalar bilan uzviy aloqador, lekin lingvistik paradigmadan tarkibidagi uzvlarning ko'p sathlilik bilan farqlanadi. Tilni maydon sifatida o'rganish uning ko'p bosqichli ierarxik tuzilishini namoyon qiladi.

¹ Мухамедова С.Х. Кўрсатилган асар, 16-бет.

Tilning turli semantik maydonlari o'zaro munosabatda bo'lib, shu tilning semantik sistemasini tashkil etadi. Semantik sistemadagi har qaysi maydonning o'zi kichik bir sistema bo'lib, uning tarkibidagi a'zolar o'zaro muayyan munosabatda bo'ladi.

Lokallik o'zbek tili semantik sistemasida alohida bir maydonni tashkil etib, o'z ichida bir necha mikromaydonlarning o'zaro munosabatidan iborat. Har bir mikromaydon a'zosi boshqa a'zolar bilan integral sema asosida birlashish bilan birgalikda, differentsial semalari bilan o'zaro farqlanadi.

Lokallik belgisi garchi tilning barcha sathlari uchun umumiy belgi sifatida amal qilsa-da, leksik birliklarda uning ifoda imkoniyati ancha keng ekanligi bilan farqlanadi. "Lokal" arxisemali leksemalar o'z ichida yana qator differentsial semalar asosida mazmuniy guruhlariga bo'linadi.

Lokallik maydonining mag'zini tashkil etgan umumiy "makon" semali mikromaydon birliklaridan "umumiy" (xususiy bo'lmagan) semasi bilan farqlanib, ularda "maxsus joy" semasi mavjud emas.

Nutq jarayonida faol ishlatiluvchi "yashash" semali mikromaydon birliklari uchun "hayot kechirish" semasi muhim bo'lib, ularni o'z ichida ma'lum differentsial semalar orqali kichik guruhlariga ajratish mumkin. Ushbu birliklar o'rtasidagi butun-bo'lak va assotsiativ munosabatlarni hisobga olish zarur.

Lokallik maydoniga mansub landshaft nomlari ham suvlik yoki quruqlik nomlarini bildiruvchi "makon" semali leksemalarga ajratiladi. Ularda "hajm", "harakat", "harorat", "tabiiylik" semalari hisobga olinadi.

"Faoliyat" semasi asosida lokallik maydoniga kiruvchi korxonalar, muassasalar nomlarini ifodalovchi birliklar asosan faoliyat belgisi orqali bo'linadi. Ularning ayrimlarida faoliyat turi aniq ajratilsa, ayrimlarida faoliyatning turi namoyon bo'lmaydi. Faoliyat turi asosida ushbu birliklar "umumiy faoliyat", "xizmat ko'rsatish faoliyati", "ishlab chiqarish faoliyati", "ilmiy-ijodiy faoliyat" semalari orqali ichki guruhlariga ajratilib, har qaysisiga mansub birliklarni muayyan uzvlar vositasida tahlil etiladi.

“O’simlik” semali lokal birliklar o’simlik o’sish joyi sifatida ajratiladi. O’z ichida inson mehnatiga bog’liqlik asosida “yovvoyilik” va “madaniylik” semasi bilan; o’suvchi o’simlikning turi asosida esa “o’t-o’lanzor”, “gulzor”, “daraxtzor”, “poliz-paykal” nomlari sifatida guruhlanadi.

Diniy e’tiqod belgisi bilan farqlangan “lokal” semali birliklar “mayjudlik” va “ilohiylik” semasi orqali zidlanadi. O’zbek tilidagi ushbu belgi vositasida farqlangan lingvistik birliklar asosan islom falsafasi negizida vujudga kelgan.

“Lokal” semali birliklar tarkibida harbiy sohaga va sportga oid leksemalar ham muhim o’rin tutadi. O’zbek tilida qo’llaniluvchi ushbu so’zlar baynalmilal xarakterda ekanligini e’tirof etish zarur.

Tilning muayyan bir davridagi holati doimiy rivojlanishda bo’lgan dinamik jarayonning ayni bir paytdagi holatidir. Har qanday statika dinamikaning bir halqasidir. Lokallik maydoni ham xuddi shu jarayonni o’zida namoyon qiladi.

Lokallik maydoniga birlashgan a’zolarning bir guruhi lokallik uchun xoslangan bo’lib, ularda “lokallik” semasi markaziy sema sanaladi. Bir guruhida esa “lokallik” semasi nutqiy jarayonda namoyon bo’ladi, bunday birliklarda “lokallik” chegara semani tashkil qiladi. Boshqa maydonlarga mansub birliklar nutqiy jarayonda muayyan qurshovda o’zgarishi natijasida “lokal” semaga ega bo’lishi mumkin, ular lokallashayotgan birliklar sinfiga mansub bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Фан Ватан равнақига хизмат қилсин // “Биздан озод ва обод Ватан қолсин”. 2-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 1996.- 384 б.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.- 200 б.
3. Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси // Ўзбек тили ва адабиёти.-1989.- № 6, Б.35-40.
4. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент: Фан, 1995.- 132 б.
5. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. Тошкент. 1997.-51 б.
6. Бондарко А.В. Грамматические значение и смысл.- Л.: Наука, 1978.- 84 с.
7. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. М.: ВШ, 1990,- 176 с.
8. Воккосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс.автореф. Фарғона, 2005.-22 б.
9. Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных в узбекском языке: Автореф.дисс....канд.филол.наук. Ташкент, 1983.- 24 с.
10. Зикриллаев Г.Н. Феълнинг шахс-сон ва ҳурмат категориялари системаси.- Тошкент: Фан, 1990.- 112 б.
11. Искандарова Ш. Шахс микромайдони бирликларининг семантик таҳлили // ФарДУ.Илмий хабарлар. – 1996.- № 4.- Б. 38-40.
12. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007.- 152 бет.

13. Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка.- М.: Наука, 1981.- 368 с.
14. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фанл. докт....дисс.автореф. Тошкент, 1993.- 50 б.
15. Кучкартаев И. Семантика глаголов речи в узбекском языке(компонентный и валентный анализ): Автореф. дисс. ...докт.филол. наук. Ташкент, 1978.- 40 с.
16. Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990.- 688 с.
17. Лурия А.Р. Язык и сознание. М.: МГУ, 1979.- 320 с.
18. Мирзакулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фанл. докт....дисс.автореф. Тошкент, 1994.- 42 б.
19. Муҳамедова С. Ўзбек тилидаги йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 1999.- 22 б .
20. Муҳаммаджонов Қ. Ўрин ва чиқиш келишларининг генезиси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 4-сон.- 31-35-бетлар.
21. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.- 128 б.
22. Нишонова Н.Р. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали лексемалар майдонининг семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс.автореф. Тошкент, 2000.
23. Новиков Л.А. Семантика русского языка. М.: ВШ, 1982. – 272 с.
24. Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. Андижон: Нашриётсиз, 1992.- 36 б.
25. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989.- 144 б.
26. Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. Самарқанд, 2004.

27. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамайили асосида тадқиқ этиш. Тошкент: Маънавият, 2004.- 160 б.
28. Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фанл.докт. ... дисс. автореф. Тошкент, 2005.- 50 б.
29. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование.- М.: Наука, 1971.- 292 с.
30. Щур Г.С. Теории поля в лингвистике.- М.: Наука, 1974.- 253 с.
31. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Тошкент: Фан, 1975.-612 б.
32. Ўзбек тили грамматикаси. 2-том. Тошкент: Фан, 1976.- 560 б.
33. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.- 316 б.
34. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. М.: Рус тили, 1981.- 632 б.
35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. М.: Рус тили, 1981.- 716 б.
36. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. Тошкент: Фан, 1977.- 168 б.
37. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1987.- 256 б.
38. Ҳамдамова Г. Лисоний ва нутқий майдон ҳақида (эғалик-қарашлилиқ семаси асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2005.- № 2. – Б. 106-108.
39. Ҳожиёв А. Тилшунослиқ терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002.- 166 б.
40. Ҳожиёва Ҳ.Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол.фанл. номз. ... дисс. автореф. Самарқанд, 2001.- 22 б.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3-bet
------------------------	--------------

LINGVISTIK MAYDON TALQINI VA LOKALLIK.....	4-bet
---	--------------

Til sathlari va lokallik maydoni	13-bet
Fonologik sathda “lokal” belgi.....	20-bet
Morfemik birliklarda “lokal” belgi	24-bet
Oʻzbek tilidagi “lokal” semali soʻz yasovchilar.....	25-bet
Oʻzbek tilidagi “lokal” semali koʻmakchilar.....	28-bet
Tilshunoslikda lokallik masalasi.....	33-bet

“LOKAL” SEMALI LEKSEMALARNING MAZMUNYI TAHLILI

Umumiy “makon” semali leksemalar	34-bet
“Yashash” arxisemali lokal leksemalar.....	37-bet
Oʻzbek tilidagi landshaft nomlari.....	44-bet
Korxona, muassasalar nomlarini anglatuvchi birliklar.....	48-bet
“Oʻsimlik” semali lokal birliklar.....	55-bet
Diniy eʼtiqod belgisi bilan farqlangan lokal birliklar	60-bet
Sport va harbiy sohaga oid lokal birliklar	62-bet

OʻZBEK TILINING LOKALLASHGAN

BIRLIKLARI	66-bet
Lokallashgan otlar.....	68-bet
Tabiatga aloqador otlarning lokallashuvi.....	71-bet
Tana aʼzolari nomlarining lokallashuvi	74-bet
Jonsiz predmet nomlarining lokallashuvi	78-bet
Lokallashgan sifatlar.....	81-bet
Lokallashgan feʼllar.....	85-bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	94-bet

